



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

DEKABR

№83
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 2-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2025]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 83-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 декабрь 2025 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2025. – 226 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –



Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоний вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қахҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ – ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ
КОНСТИТУЦИЯСИ МИЛЛАТИМИЗ ВА ХАЛҚИМИЗНИНГ
ҲУҚУҚИЙ ТИМСОЛИ

Ч.М.Аролов

Фуқаролик ишлари бўйича
Денов туманлараро суди судьяси

АННОТАЦИЯ : Ушбу мақола Янги таҳрирдаги Конституциянинг қабул қилиниши, сайлов жараёнлари миллий кадриятларимиз, адолатли фуқаролик жамияти, Янги Ўзбекистон жамиятида инсон ҳуқуқларининг ўрни, Референдум ва уннинг натоижалари, бош қомусимиз Конституциямизнинг янги таҳрирдаги ўзгаришлари ва қўшимчалари, ҳамда янги таҳрирдаги конституциямизнинг қабул қилиниш тарихи, унга дунё ҳамжамиятининг муносабати ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Демократия, Конституция, Референдум, қонунчилик, Янги Ўзбекистон, „Конституция ўзимизники“ ва „Бефарқ эмасман“ ҳуқуқий, суверен, халқ.

Мустақил Ўзбекистон Конституциясининг қабул қилиниши айни миллий кадриятларимизни, адолатли фуқаролик жамияти, демократик ҳуқуқий давлат қуриш, бозор муносабатларига ўтиш йўллари билан белгилаб берди.

Ўзбекистон Конституцияси ҳуқуқий тизимимизнинг таянч пойдеворидир.

Унинг барча қонунларимиз учун асос сифатида хизмат қилиши барчамизга маълум.

Шу кунга қадар қабул қилинган қонунлар, қонуности ҳужжатлари Конституциямиз илғор қоидаларининг ифодасидир.

Конституциянинг муқаддимасида Ўзбекистон халқи: инсон ҳуқуқларига ва давлат суверенитети ғояларига содиқлигини тантанавор эълон қилиб, ҳозирги ва келажак авлодлар олдидаги юксак масъулиятни англаган ҳолда тарихий, миллий кадриятларимизга таяниб, шунингдек халқаро ҳуқуқ соҳасидаги умумий эътибор этилган принциплар асосида инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлатни барпо этиш мақсадида ушбу Конституцияни қабул қилганлиги эътибор этилган. Дарҳақиқат, мустақиллик туфайли вужудга келган Қомусимиз бизга тилимизни, динимизни, тарихимизни, маънавиятимизни, инсоний ҳуқуқларимизни қайтариб берди ва уларни ўзининг ҳаётбахш нормаларида мустаҳкамлаб қўйди. Шу билан бирга у сиёсий кадриятларимизни-давлат ҳокимиятини бошқаришдаги халқнинг иштирокини таъминлаб берди.

Мустақил Ўзбекистон тарихида илк бор. Ўзбекистон ҳукумати томонидан. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартиришлар



киритиш ва янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини тайёрлаш тўғрисида қарор қабул қилинди.

Ўзбекистон Конституциясини янгилаш зарурати 2021 йилнинг 6 октябрь куни иккинчи муддатга сайланган Президент Шавкат Мирзиёев томонидан айtilган. Янги таҳрирдаги Конституция замон талабига мувофиқ такомиллаштирилиши кераклиги алоҳида таъкидланган. 2022 йил 26 майдан фуқаролардан „Менинг Конституциям“ портали, Телеграм-бот ва колл-марказ орқали таклиф йиғиш бошланди. Худудлар тақсимооти бўйича Тошкент шаҳри энг фаол эканлиги ва улар бераётган таклифларда асосан жиноят содир этган мансабдорларга бериладиган жазони оғирлаштириш кераклиги қайд этилди. 18 июнь куни ЕХХТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бюроси узок муддатли миссияси раҳбари Owen Murphy Олий Мажлис депутатларига иккита таклифни илгари сурган. Биринчиси, Президентлик ёки депутатликка номзодларни кўрсатишда қўйилган талаблар – республика худудида муайян муддат яшагани (ўтроқлик цензи) ҳамда тил билишига оид талабларни олиб ташлаш, иккинчиси, муомала лаёқати чекланганларга, яъни ақли норасоларга ҳам сайлаш ҳуқуқини бериш.

Президент Шавкат Мирзиёев референдум ўтказишни таклиф қилди ва ўз таклифларини берди:

“Албатта, халқимиздан Комиссияга келиб тушган барча муҳим ва долзарб таклифларни бугун Сизлар билан батафсил муҳокама қилиш имкониятига эга эмасмиз. Мен уларнинг айримларига тўхталиб ўтдим, холос. Комиссия таклифи асосида Парламент томонидан ишлаб чиқилган лойиҳани умумхалқ муҳокамасида кўриб чиқишни ҳамда референдум ўтказиш йўли билан қабул қилишни таклиф этаман. Тўғри, амалдаги қонунчилигимизга кўра, парламентнинг ўзи ҳам Конституцияга ўзгартиш киритиш ваколатига эга. Лекин, Конституциявий ислохотни фуқароларимиз фикри ва қўллаб-қувватлаши асосида референдум орқали амалга оширсак, бу том маънода халқимиз хоҳиш-иродасининг ифодаси – ҳақиқий халқ Конституцияси бўлади, деб ўйлайман. Бу “Конституциянинг ягона манбаи ва муаллифи – халқдир” деган тамойилга тўла мос келади. Шунда ҳар бир ватандошимиз “Янги Ўзбекистон Конституцияси – менинг Конституциям” деб юксак ғурур билан айта олади.

Ўзбекистон конституцияси референдуми — 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартиришлар киритиш бўйича умумхалқ референдуми. „Конституция ўзимизники“ ва „Бефарқ эмасман“ шиорлари асосида ўтказилди. Умумхалқ Референдумида жами 16 667 097 киши ўз сайлов ҳуқуқларидан фойдаландилар ва овоз бердилар. Бу рўйхатдан ўтган сайловчиларнинг 85,51%ни ташкил этди. Референдум натижасига кўра 15 040 055 сайловчи Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилишини маъқуллаб овоз бердилар. Бу Умумхалқ Референдуми овозларининг 90,61%ни ташкил этди. Жами сайловчиларнинг 9,39%и, яъни 1 633 134 киши таклиф қилинган қонун лойиҳасини маъқулламадилар. Янги таҳрирдаги бош Қомусимизда, мавжуд



Конституциянинг 64 та моддасига (яъни 128 та модданинг тенг ярмига) ўзгартириш киритиш ва 6 та янги модда қўшиш таклиф этилди. 1-моддадаги “Ўзбекистон – суверен демократик республика” жумласини қуйидагича ўзгартириш таклиф этилди:

Ўзбекистон – суверен республика, ҳуқуқий, ижтимоий, дунёвий, демократик давлат.

1-модда ўзгаргач, уни бошқа ҳеч қачон ўзгартирмаслик белгиланди. Бунинг учун 127-моддага (бу моддада Конституцияни ўзгартириш принциплари ёзилган) қуйидагича иккинчи қисм қўшилди:

Ушбу Конституция 1-моддасининг ва ушбу моддаси иккинчи қисмининг қоидалари қайта кўриб чиқилиши мумкин эмас. Деган жумла билан мустақамлаб қўйилди. Шу ва шу каби “Бош Қомусимиз”га киритилган ўзгаришлар Конституциявий суд томонидан кўриб чиқилди ва маъқулланди.

Ўзбекистонда бўлиб ўтган Референдум ва Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Конституцияси дунёнинг бир қатор мамалакатлари томонидан илиқ кутиб олинди. Хусусан: Сингапурнинг “Indiplomacy” электрон журнали саҳифасида журналист Nomita Dargning Ўзбекистон Конституциявий қонуни лойиҳаси бўйича ўтказилган референдум тафсилотларига бағишланган мақоласи эълон қилинди. Туркияда нашр этиладиган “Тўркие” газетасида Ўзбекистон Конституциявий қонуни лойиҳаси бўйича бўлиб ўтган референдум яқунларига бағишланган “Менинг Конституциям” референдумида Ўзбекистон халқи “Ҳа” деди” сарлавҳали мақола босилиб чиқди. “Российская газета” саҳифасида Россия Федерациясида хизмат кўрсатган фан арбоби, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор Наби Зиядуллаевнинг “Янги Ўзбекистон Конституцияси мамлакатнинг тараққиёт йўлини белгилаб беради” сарлавҳали мақоласи нашр эттирилди. “Конституцияни янги таҳрирда қабул қилиш бўйича референдумнинг муваффақиятли ўтказилиши республика сиёсий тараққиётидаги муҳим босқич бўлиб, унинг натижалари Президент Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий йўналиши жамоатчилик томонидан юқори даражада қўллаб-қувватланаётганидан далолат бериши баробарида Ўзбекистон фуқароларининг амалга оширилаётган ислохотларни давом эттиришдан манфаатдор эканлигини тасдиқлайди”, деб ёзади “Российская газета”. Бу каби мақолалар шундан далолат берадики жаҳон ҳамжамияти Янги Ўзбекистондаги ўзгаришларни, сиёсий янгиликларнинг доимий кузатувчиси ҳисобланади. Умумхалқ Референдуми ва Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Конституцияси “Янги Ўзбекистоннинг” ҳуқуқий ва умумбашарий тимсоли бўлиб хизмат қилади.

Манбалар:

1. „Референдум по новой Конституции Узбекистана назначен на 30 апреля“ <https://www.gazeta.uz/ru/2023/03/10/referendum-date/>

2. „Ўзбекистонда конституцияни такомиллаштириш масаласини кўриб чиқиш режалаштирилмоқда“ <https://kun.uz/news/2021/11/06/ozbekistonda-konstitutsiyani-takomillashtirish-masalasini-korib-chiqish-rejalashtirilmogda>



3. ”Етмиш марта ўйлаб, қарор қилиш керак” - Шавкат Мирзиёев Миромонович.

4. „Шавкат Мирзиёев референдум ўтказишни таклиф қилди“
<https://kun.uz/uz/news/2022/06/20/shavkat-mirziyoyev-referendum-o'tkazishni-taklif-qildi>.

5. ”Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси” (1992 йил 8 декабрь)

6. “Янгиланган Конституциямизнинг чинакам муаллифи халқимиз бўлди” — Шавкат Мирзиёев – Ўзбекистон янгиликлари –
Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/08/president/>

7. “ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ”
(30.04.2023 й)

8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.



ОММАВИЙ ТАРТИБСИЗЛИКЛАР ИШТИРОКЧИНИНГ ШАХСИЯТИ ВА УНИНГ КРИМИНОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Нурадинов Сражатдин Камалатдинович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги
университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада оммавий тартибсизликларда иштирок этувчи шахснинг шахсий-психологик хусусиятлари, ижтимоий мақоми, мотивацион омиллари ҳамда уларнинг ҳуқуқбузарлик содир этишга бўлган мойиллиги криминологик жиҳатдан таҳлил қилинади. Тадқиқот доирасида оммавий тартибсизликлар иштирокчиларининг ижтимоий-демографик таркиби, жамоавий онг ва ижтимоий-эмоционал муҳит таъсири, шунингдек, радикаллашув ва девиант ҳуқуқ атвор омиллари ўрганилади. Мақолада амалдаги қонунчилик нормалари, жиноят ҳуқуқи ва криминология фанининг назарий ёндашувлари асосида ушбу тоифа шахсларга нисбатан жавобгарлик масалалари, профилактика ва реабилитациянинг самарали механизмлари ёритилади. Шу билан бирга, профилактик чора-тадбирларни такомиллаштириш бўйича амалий таклиф ва тавсиялар илгари сурилади.

Калит сўзлар: оломон, оммавий тартибсизликлар, иштирокчининг шахсияти, криминологик таҳлил, ижтимоий омиллар, девиант ҳуқуқ, радикаллашув

Сўнгги йилларда жамиятдаги ижтимоий ўзгаришлар, сиёсий жараёнлар, иқтисодий муаммолар ва глобал ахборот таъсирининг кучайиши натижасида оммавий тартибсизликлар хавфи турли мамлакатларда долзарб муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Бундай вазиятларда жиноят ҳуқуқи, криминология ва ижтимоий психология нуқтаи назаридан оммавий тартибсизликлар иштирокчисининг шахсини чуқур ўрганиш жиноятларнинг олдини олиш, профилактика чораларини тўғри белгилаш ҳамда жавобгарлик масалаларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади.

Одамларнинг оммавий тўпланиши ҳодисасини тавсифловчи дастлабки психологик назариялардан бири Г.Лебоннинг “юктириш” назариясидир. “Халқлар ва омма психологияси” асарида Г.Лебон оломонни ташкил этувчи одамлар ягона гуруҳ ғояси таъсирида бўлганлиги сабабли бир хил ҳаракат қилиши, фикрлаши ва фаолият юритишини ёзган. Б.Ф. Поршнева ижтимоий психология асосчисининг қарашларини шундай изоҳлаган: “Оломон – бу баъзан мутлақо тасодифий одамлар тўплами. Улар орасида ҳеч қандай ички алоқалар бўлмаслиги мумкин ва улар фақат муайян шахслар, тартиблар ёки воқеаларга нисбатан бир хил салбий, вайронкор ҳис-туйғулар билан қамраб олингани туфайли умумийликка айланади. Хуллас, оломонни баъзан фақат унинг қаршиё эканлиги, яъни уларга қарши бўлганлиги жамоага айлантиради” [1].



XIX аср – XX аср бошларида омма хулқ-атворини ўрганишга ижтимоий-психологик ёндашув оломонни одамларнинг инстинктив, онгсиз равишда стихияли интилишларга бўйсунувчи умумийлиги сифатида тавсифлади, унинг пайдо бўлиши ва ҳаракати сабабларини эса етакчиларнинг патологик қобилиятлари билан изоҳлади. Юқорида таъкидланганидек, Г.Лебон “турух онги” ғоясини асослаб, якка шахс хулқ-атворининг оломон хулқ-атворига бўйсунушини таърифлаган. У ва унинг издошлари оломон одамларни якка ҳолда қила олмайдиган ҳаракатларга ундашини таъкидлаганлар. Француз тарихчиси И.Тайн оломонни Г.Лебон услубида таърифлаб, мажозий тарзда шундай дейди: “Ғазабланган ҳайвон йўлида учраган ҳамма нарсани, ҳатто ўзига зарар етказиш эвазига бўлса ҳам, йўқ қилади, бартараф этилиши лозим бўлган тўсиқ томон ўкириб интилади. Бу раҳбар ва ташкилотнинг йўқлиги, у шунчаки поданинг бир қисми бўлганлиги сабабли содир бўлади” [2]. Оммавий хулқ-атворнинг биринчи психологик концепцияси сифатида Г.Лебоннинг трансформация назарияси, ғояларнинг катта қисми маҳаллий ва хорижий тадқиқотчилар томонидан рад этилган бўлса-да, XX аср олимлари ва амалиётчиларига сезиларли таъсир кўрсатди. XX асрнинг ўрталаридан ҳозирги кунгача иштирокчилари шахсий мақсадларини амалга оширадиган ва ўз ҳаракатларини мувофиқлаштирувчи кўп сонли одамларнинг онгли хулқ-атвори назарияси ишлаб чиқилмоқда [3].

XX асрнинг 60 йиллар охирида Америка ижтимоий психологиясида шаклланган конвергенция назарияси намояндалари оломон ичидаги одамларнинг хулқ-атвори, аксинча, унинг иштирокчилари томонидан уларнинг ҳар бирининг индивидуал хусусиятлари ва хулқ-атвори билан боғлиқ ҳолда белгиланади, деб тахмин қилдилар. Бошқача қилиб айтганда, “юқтириш” назарияларидан фарқли ўларок, оломоннинг хулқ-атвори гуруҳланиш босқичидан олдин аниқланган. Масалан, Г.Оллпорт шуни кўрсатадики, содир бўлаётган воқеалардан беҳабар одамлар, агар оломон ядросига маълум бўлган маълумотларга эга бўлганларида, ўз хулқ-атворларини ўзгартирган бўлардилар. С.Милгрэмнинг тадқиқотларида оломон хулқ-атворини тартибга солиш алоҳида шахсларнинг фаол роли орқали амалга оширилиши мумкинлиги кўрсатилган. Р.Доллард жетон тизимидан (мукофотлаш) фойдаланиб, гуруҳлаш тенденцияларини камайтиришга ва оломонда индивидуалликнинг ролини оширишга эришди [4].

Р.В. Броун одамлар бирлашмасининг оммавий турлари сифатида оломон ва жамоатчиликни кўриб чиқади [5]. Оломон тўрт турга бўлинади: агрессив, ваҳимачи (қочувчи), аффектив (экспрессив) ва талончи (очкўз). Омма оломонга нисбатан пассивроқ, фаол эмоционал кечинмаларга қодир, лекин ҳаракатга эмас. Хулқ-атвор хусусиятига кўра, одамларнинг ҳаракатдаги жамоаси тажовузкор, қочқин, манфаатпараст, экстатик бўлиши мумкин, масалан, диний фанатизм ёки оломон кумири мухлисларининг ақлдан озиши туфайли юзага келади. Ю.А.Шерковин таъкидлаганидек, бўлиниш шартлидир. Бир турдаги оломон бир вақтнинг ўзида бошқасининг хусусиятларини намоён қилиши ва янги турга ўтиши мумкин [6].



Замонавий ижтимоий-сиёсий воқеликда ижтимоий психологларнинг эътибори оммавий тартибсизликларда иштирок этаётган одамларнинг умумийлигига қаратилган. Г. Шнайдер оммавий тартибсизликларни шартли равишда тўрт гуруҳга бўлди:

- қуролланган (улар оқилона режалаштириш, аниқ мақсадли йўналиш, ижтимоий-таркибий шартланганлик билан ажралиб туради);
- экспрессив (таъкидланган ифодали, ҳис-туйғулар ва фикрларни ифодалашга бўйсундирилган);
- асоссиз (ижтимоий-таркибий сабабларга эга бўлмаган);
- ўтиш туридаги тартибсизликлар [7].

Сўнгги йилларда Европа, Африка, Яқин Шарқ мамлакатларида содир бўлган оммавий чиқишлар мисоллари Г.Тард асарларида асос солинган оломон ва омма ҳақидаги тасаввурни ўзгартиради. Замонавий воқеалар шуни кўрсатадики, кўчадаги оломон ва аудитория ўртасидаги фарқлар техник тараққиёт воситалари билан йўқ қилинмоқда. Яъни, Г. Рейнголд “смарт-моб” ақлли оломон ғоясини ишлаб чиқаётиб, алоқа воситаларига – “кўпчилик кўпчилик билан” симсиз алоқасига ҳал қилувчи аҳамият беради. Рейнолднинг таъкидлашича, коммуникация имконияти кўплаб одамларни ўзига жалб қилувчи ва уларнинг хулқ-атворини тартибга солувчи ахборот майдонини таъминлайди. Оммавий тартибсизликларни бошқаришда алоқа воситаларининг роли 2010-2012 йилларда араб мамлакатларида оммавий намоёишлар ва умуммиллий норозиликка олиб келган оммавий тартибсизликларда (Тунис, Сурия, Яман), ҳукуматни ағдариш ва давлат тузумини ўзгартиришда (масалан, Миср, Ливия) кўринади. Барча мамлакатларда замонавий рақамли ва интернет технологиялари фаол қўлланилди, бу эса аҳолининг норозилик гуруҳларини мувофиқлаштиришга сабаб бўлди. Энг таъсирчан ва кенг тарқалгани смс-хабарлар ёрдамида чақириш ёки уларни оммабоп сайтлар ва ижтимоий тармоқларга жойлаштириш эди. Оммани ташкил этишда унинг раҳбарлари – иштирокчиларнинг мумкин бўлган максимал сони билан алоқа каналларини таъминлайдиган мобилдерларга алоҳида роль ажратилади. Бирлашиш учун мобилдерлар флеш-моб технологияларидан фойдаланадилар – бу ўзига хос “машк” процедуралари бўлиб, бу ушбу ижтимоий-психологик воситанинг моҳиятини ўзгартирмайди.

Назарий мукаддимани умумлаштириб, оммавий тартибсизликлар вазиятидаги оломон – иерархик тарзда ташкил этилган деструктив йўналтирилган ижтимоий-психологик жамоа эканлигини таъкидлаймиз. Оммавий тартибсизликлар иштирокчиларининг уюшқоқлиги функцияларни тақсимлаш, мақсадлар, жараён ва ҳаракатларнинг мувофиқлигини таъминлайдиган шарт-шароитларни англаш билан тавсифланади. Иерархия раҳбарлар ва бўйсунувчиларнинг мавжудлиги, алоқа каналлари ва ўзаро таъсир қилиш тартиблари билан белгиланади. Деструктивлик ҳам раҳбарлар, ҳам оддий иштирокчилар томонидан ҳам мақсадларга эришиш, ҳам қўшимча



таъсирлар – вайрон қилиш, мулкни ўзлаштириш, ҳуқуқ-тартибот кучлари ва бошқарув тузилмаларига қаршилиқ кўрсатиш орқали амалга оширилади.

Кўпчилиқни оммавий тартибсизликлар юзага келишининг ижтимоий ва сиёсий сабабларига нисбатан дастлаб нейтрал бўлган бузғунчи оломоннинг оддий иштирокчиси психологияси қизиқтиради, чунки иштирокчилар томонидан қондирилган эҳтиёжлар норозилиқ намоишларининг асосий параметрларини – етказилган зарарнинг даражаси ва хусусиятини, тартибсизликларнинг давомийлиги ва такрорланишини белгилайди. Масалан, таъкидланган эҳтиёжларни қондириш (шу жумладан, тақиқланган эҳтиёжларни ҳам) норозилиқ намоишларининг “ўз-ўзидан тикланишига” олиб келиши мумкин. Оммавий тартибсизликлар иштирокчиларининг психологик хусусиятларини моделлаштириш учун муаллифлар томонидан ижтимоий-психологик тажриба ўтказилган.

Психологик нуқтаи назардан, провокаторлар ўз атрофига тадқиқот шартлари бўйича нотаниш одамларни бирлаштириши, уларни диффуз таълимдан юқори даражадаги гуруҳга ташкил этиши, провокаторлардан бошқа етакчиларнинг пайдо бўлишини таъминлаши керак эди. Л.И.Уманский терминологиясида бу бевосита ҳуқуққа зид хатти-ҳаракатлар вазиятида юзага келадиган кичик гуруҳнинг кооператив модели ҳақида гапириш имконини беради. Шунингдек, провокаторлар ролга қараб вазифаларни бажардилар, масалан, психологик таъсир гуруҳи қуршов fronti бўйлаб полиция ходимларини масҳара қилиш ва камситиш орқали оғзаки равишда провокация қилади; жисмоний таъсир гуруҳи полициячиларга фаол ҳужум қилиб, шерикларига тажовузкор хулқ-атвор намуналарини кўрсатади. Бундан ташқари, провокатор-психологлар киритилган кузатувни амалга оширдилар, махсус ишлаб чиқилган анкета-ҳисоботлар ёрдамида машғулотларнинг турли босқичларида тартибсизликлар иштирокчиларининг ҳиссий реакциялари, оғзаки хатти-ҳаракатларини қайд этадилар. Иштирокчиларнинг аксарияти махсус тайёргарликдан ўтмаганлиги, яъни шунчаки таклиф қилинганлиги сабабли, уларнинг оммавий тартибсизликларга жалб этилиши митинглар, юришлар, йиғилишлар иштирокчиларининг аксарият қисмининг хатти-ҳаракатларига хос бўлган ўз-ўзидан пайдо бўладиган хусусият эди [8].

Шундай қилиб, машғулотлар давомида намоишчиларнинг индивидуал ва гуруҳий хулқ-атворининг ўзига хос хусусиятлари, иштирокчилар онгидаги оммавий тартибсизликлар образининг ҳиссий, баҳоловчи ва когнитив таркибий қисмлари, шунингдек норозилиқ гуруҳларининг ривожланиши ҳақида эмпирик материаллар тўпланди. Афсуски, ушбу мақола доирасида эмпирик маълумотларнинг тўлиқ ҳажмини муҳокама қилишнинг иложи йўқ, аммо уни тушуниш кейинги нашрларимизда давом этади.

Оммавий тартибсизликлар иштирокчиларининг шахсини ўрганишга оид тадқиқот вазифалари қуйидагилардан иборат.

1. Оммавий тартибсизликлар иштирокчилари хулқ-атворининг психологик хусусиятларини тавсифлаш;



2. Шахсинг оммавий тартибсизликларда иштирок этиши билан боғлиқ психологик хусусиятларининг таъсирини ўрганиш.

Ушбу вазифаларни ҳал қилиш учун махсус ишлаб чиқилган восита – оммавий тартибсизликлар иштирокчисининг ўз-ўзига ҳисоботи сўровномаси қўлланилади, деструктив тенденцияларни баҳолаш учун методика билан синалувчиларни ташхислаш натижалари бўйича ҳисобланган “Деструкция хавфи” кўрсаткичидан фойдаланилади. У ғайриижтимоий йўналганликни, атрофдагиларга зарар етказишга қаратилган ва катта маънавий ҳамда моддий зарар келтирадиган фаолиятни амалга оширишга тайёрликни тавсифлайди. Психологик нуқтаи назардан шахс деструктивлиги ғайриижтимоий хулқ-атвор установасининг ғайриижтимоий-жиноий турини англатади.

Оммавий тартибсизликлар иштирокчисининг шахсини ўрганиш – нафақат жиноят ҳуқуқи, балки криминология, психология ва социология фанлари кесишувидаги мураккаб комплекс масаладир. Бундай шахсларнинг хулқ-атвори индивидуал ва ижтимоий омиллар уйғунлигида шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Поршнева, Б. Ф. Социальная психология и история / 2-е изд., доп. и испр. – М.: Наука, 1979. – 193 с.
2. Ginneken, J. V. Crowds, psychology and politics: 1871 – 1899. – Cambridge: Press syndicate of the University of Cambridge, 1991. – 38.
3. Understanding Crowd Behaviours Volume 1 – Practical Guidance and Lessons Identified London: TSO 1161_CB Voll1_Newly Styled.indd 1 6/4/10 12:32:52. – URL <http://academia.edu/1108101/Understanding>
4. Wijermans, N. (2011). Understanding crowd behavior: Simulating situated individuals. Thesis University of Groningen. – URL http://www.nandawijermans.nl/wordpress/wp-content/uploads/2012/10/poster_GSCSWijermansS
5. Durupinar, F. From Audiences to Mobs: Crowd Simulation with Psychological Factors. PhD thesis, Bilkent University, 2010. – URL: www.cs.bilkent.edu.tr/tech.../BU-CE-1205.pdf
6. Социальная психология. Краткий очерк / под общ. ред. Г.П. Предвечного и Ю.А. Шерковина. – М.: Политиздат, 1975.
7. Шнайдер, Г. Массовые беспорядки глазами криминолога. – URL http://www.ecsocman.edu.ru/data/530/585/1216/4-Gans_ShNAJDER.pdf
8. Сундиев, И. Ю. «Управляемый хаос»: социальные технологии в массовых беспорядках // Свободная мысль. – 2012. – № 7/8 (1634). – С. 93–104.



ОММАВИЙ ТАРТИБСИЗЛИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ НОРМАТИВ ТАРТИБГА СОЛИШГА ДОИР ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Нуратдинов Сражатдин Камалатдинович,
*Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги
университети мустақил изланувчиси*

Аннотация: Ушбу мақолада оммавий тартибсизликларга қарши курашиш соҳасидаги хорижий давлатлар қонунчилиги ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти қиёсий-ҳуқуқий таҳлил асосида ўрганилади. Мақолада куч ишлатишнинг пропорционалик принципи, инсон ҳуқуқлари кафолатлари, суд назорати ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича замонавий ёндашувлар ёритилади. Шунингдек, хорижий тажрибани миллий қонунчиликка имплементация қилиш имкониятлари ва унинг афзаллик ҳамда эҳтимолий чекловлари бўйича тавсиялар илгари сурилади.

Калит сўзлар: оммавий тартибсизликлар, хорижий тажриба, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, жамоат хавфсизлиги, куч ишлатишнинг пропорционалиги

Сўнгги йилларда жаҳон миқёсида глобаллашув жараёнлари, ижтимоий-сиёсий трансформациялар, иқтисодий инқирозлар ва ахборот маконида дезинформациянинг кўпайиши оммавий тартибсизликлар хавфининг ортишига сабаб бўлмоқда. Бундай шароитда оммавий тартибсизликларга қарши курашишни ҳуқуқий жиҳатдан тўғри тартибга солиш, инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилган ҳолда жамоат хавфсизлигини таъминлаш замонавий давлат бошқарувининг муҳим йўналишларидан бирига айланди. Хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш эса миллий қонунчиликни такомиллаштириш учун амалий аҳамият касб этади.

“Оммавий тартибсизликлар” атамасининг ўзи кўплаб шахслар ёки “омма” деб аталадиган жиноятнинг жамоавий субъектини англатади. Кишилар оммаси тартибсизликлар келтириб чиқаришга интилаётганлиги сабабли, муайян тажовуз объекти бузгунчи таъсир хавфи остида қолади. Бизнинг ҳолатимизда, табиий равишда, бундай объект сифатида давлатда ўрнатилган ижтимоий тартиб намоён бўлади, у анъанавий равишда юридик фанда “ҳуқуқий тартиб” ёки “жаомат тартиби” каби тушунчалар билан ифодаланади.

Илмий билишнинг ижтимоий-психологик кесимида оммавий тартибсизликлар ҳодисасини ўрганган олимлар О.В.Кантитский ва А.М.Лафуткин ижтимоий тартибсизлик жамиятда шаклланган жамоалар ва гуруҳларни барқарор мувозанат ҳолатидан чиқариб, уларнинг эркинлик даражасини оширишини таъкидлаганлар [1].

Оломон томонидан содир этилган жиноят “бир шахс”нинг қилмиши сифатида жазоланиши керакми ёки аксинчалиги ҳақидаги саволлар классик жиноят ҳуқуқида ҳар доим муҳокама қилинган, чунки унда жиноят бегона



таъсир ёки ишонтиришдан қатъи назар, шахсинг ирода эркинлиги намоён бўлишининг априор натижасидир. Позитив мактаб вакиллари эса қуйидаги ғояни қабул қилдилар: “оломон томонидан содир этилган жиноят бир шахс томонидан содир этилган жиноятдан фарқ қилиши керак”. Бундай мулоҳаза аста-секин ривожланиб, вақт ўтиши билан жамоавий жиноят содир этганлик учун жинойий жавобгарлик доктринаси шаклини олди, бу таълимот ижобий ҳуқуқ мактаби тарафдори Пюлизе томонидан ўзининг машҳур “Жамоавий жиноят тўғрисида”ги асарида шакллантирилган эди. Унинг фикрича, исён кўтарган халқ оммаси орасида ҳаракат қилган шахс “оқим қирғоғидан чиққан томчи” бўлиб, натижада оломоннинг онгсиз қуролига айланади [2].

Пюлезенинг келтирилган мантиғи шуни англатадики, кўпчилик томонидан содир этилган жиноят алоҳида олинган шахсинг жинойий қилмишларига қараганда кўпроқ енгилликка лойиқдир, чунки у таклиф қилаётган жамоавий ярим жавобгарлик тамойили айнан шунга асосланади.

Одатда, оммавий тартибсизликлар географик жойлашувидан қатъи назар, Ғарбий Европа, Америка, Африка ёки Осиё мамлакатларида содир этилишидан қатъи назар, улар одатда ўт кўйиш, жисмоний зўравонлик ҳаракатлари, хусусий ва муниципал мулкни йўқ қилиш ва шикастлаш, ўқотар қурол ва атрофдагилар учун хавф туғдирувчи моддалардан фойдаланиш билан бирга кечиши табиий.

Масалан, англо-саксон ҳуқуқий оиласига мансуб мамлакатларда (АҚШ, Буюк Британия) оммавий тартибсизликлар содир этилиши факти бундай жиноятларнинг потенциал ва ҳақиқий қурбонлари томонидан содир этилаётган қилмишнинг ижтимоий хавфини субъектив баҳолаш билан боғлиқ.

Буюк Британияда 1986 йил 1 апрелдаги Жамоат тартибини сақлаш тўғрисидаги қонунга кўра, агар 12 ва ундан ортиқ шахсдан иборат оломоннинг хатти-ҳаракатлари атрофдагиларда ҳаёт ва шахсий хавфсизликни сақлаш учун ҳақиқий хавотир уйғотадиган хусусиятга эга бўлса, оммавий тартибсизликлар содир этилган деб ҳисобланади.

АҚШда оммавий тартибсизликлар учун жавобгарликка тортиш тартиби ҳар бир штат қонунчилигида 1962 йилги Намунавий жиноят кодекси асосида қўлланилади, у “Оммавий тартиб ва ахлоққа қарши жиноятлар” деб номланган алоҳида бобда, 250-моддаси “Тартибсизликлар содир этиш, оммавий тартибни бузувчи хатти-ҳаракатлар ва уларга тегишли тажовузлар”ни назарда тутди.

АҚШ жиноят қонунчилигига кўра, оммавий тартибсизликлар иштирокчиларининг хатти-ҳаракатлари “хавотир ва жамоатчиликни ваҳимага солиши, йўл ва пиёдалар ҳаракатини тўсиб қўйиши, маданий қимматга эга бўлган буюмларни йўқ қилиш билан бирга содир этилиши” керак.

Романо-герман ҳуқуқий оиласига мансуб таҳлил қилинган мамлакатларнинг ҳужжатларида оммавий тартибсизликларга ўхшаш қилмишларнинг асосий квалификация белгиси бир гуруҳ шахслар ёки “йиғилиш”, “ноқонуний тadbир” деб аталадиган шахслар томонидан содир этилган зўравонликдир.



Хорижий жиноят қонунчилигида оммавийлик белгисини таъкидлаш учун “ноқонуний йиғилиш” (Голландия ЖК), “ноқонуний тадбир” (Дания ЖК), “кўпчилик бўлиб тўпланган шахслар” (Корея ЖК) атамаларидан кенг фойдаланилади. Оммавий тартибсизликлар тўғрисидаги баъзи нормаларда оммавий тартибсизликлар субъектлари сифатида эътироф этиш учун оломон иштирокчиларининг аниқ белгиланган сони квалификация белгиси сифатида кўрсатилади. Бундай шартлар Таиланд ва Туркиянинг Жиноят кодексларида мавжуд бўлиб, уларда 10 киши деб белгиланган.

Таҳлил қилинган мамлакатларнинг Жиноят кодексларида гуруҳ бўлиб содир этилган ҳуқуқбузарлик иштирокчиларининг жиноят содир этишдан бош тортишини рағбатлантирувчи нормалар мавжуд бўлиб, улар тинч йўл билан тарқалишга чақирувдан сўнг зўравонлик ҳаракатларини содир этишдан олдин йиғилишни ихтиёрий равишда тарк этган шахсларни жиноий жавобгарликдан озод қилишни назарда тутди (Дания, Франция, Швейцария). Бундан ташқари, бундай таърифлашда қонун чиқарувчилар тарқалиб кетиш ҳақида айтилган талаблар сонини кўрсатишга мурожаат қиладилар, уларнинг бажарилмаслиги оломон иштирокчиларини жиноий жавобгарликка тортиш шarti бўлиб хизмат қилади.

Голландия Жиноят кодексига оммавий тартибсизликларга ўхшаш жиноят субъекти сифатида ҳарбий хизматчилар ҳам тилга олинади.

Полша жиноят қонунчилиги оммавий тартибсизликлар тўғрисидаги нормани ишлаб чиқишга ёндашуви билан ажралиб туради. Полша Жиноят кодексининг 254-моддаси 1-бандидаги “оломон иштирокчиларининг мол-мулк ва жисмоний шахсларга нисбатан зўравонлик билан тажовуз қилишга қаратилган саъй-ҳаракатларнинг биргаликда амалга оширилаётганини англаши” жиноят моҳиятини аниқлашнинг ҳал қилувчи жиҳати эканлигини аксарият мамлакатларнинг оммавий тартибсизликларга яқин ҳаракатларни тавсифлаш бўйича ёндашувидан фарқли ўлароқ, ўзига хос хусусият деб аташ мумкин. Полша Жиноят кодексининг 254-моддаси 2-банди шартли равишда тушунадиган оммавий тартибсизликлар таркибини моддий тартибсизликлар сифатида инсон ўлими ва унинг соғлиғига оғир шикаст етказиш кўринишидаги оқибатларни ўз ичига олади.

Туркияда оммавий тартибсизликлар давлат ва сиёсий тадбирлар ўтказиш билан боғлиқ бир қатор таҳдидларга сабаб бўлди. Хитойда сиёсий ҳуқуқлардан маҳрум қилиш кўринишидаги санкцияларни қўллашда сиёсий тус кузатилади.

Оммавий тартибсизликлар учун жавобгарликни норматив-ҳуқуқий тартибга солиш жиҳатини кўриб чиқиш билан бир қаторда, биз ўрганаётган ҳодисанинг ажралмас қисми сифатида оломоннинг ижтимоий-психологик табиатини ёритиш алоҳида эътиборга лойиқдир.

Бизнинг фикримизча, оломон фаолияти механизмидаги қонуниятларни аниқлаш Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар қонунчилигида оммавий тартибсизликлар учун жиноий жавобгарликнинг ижтимоий сабабларини ўрганишнинг асосий воситаси ҳисобланади. Бундан ташқари, бизнинг



фикримизча, оломон ҳодисасининг моҳиятини тушуниш оммавий тартибсизликларга қарши жиноий-ҳуқуқий кураш стратегиясини ишлаб чиқишда дастлабки асослардан биридир, чунки айнан “оломон” ҳал қилувчи омил ва уларни содир этиш шартининг ажралмас элементи ҳисобланади.

Россиялик социолог А.П. Назаретян берган таърифда, оломон “умумий мақсадлар ва ягона ташкилий-ролли тузилма билан бирлаштирилмаган, аммо умумий эътибор маркази ва ҳиссий ҳолат орқали ўзаро боғланган одамлар тўплами” сифатида тушунилади [3]. У келтирган таснифга кўра, оломон тўрт турга бўлинади:

оқказионал – бирор-бир ҳодиса, масалан, йўл-транспорт ҳодисаси туфайли юзага келган;

конвенционал – спорт тадбири, рок-концерт ва ҳоказоларда тўпланган;

экспрессив – маълум талаблар ифодаланган митинг, юриш, пикетлаш, намоёиш орқали ифодаланади;

ҳаракатдаги – тажовузкор кайфиятдаги одамлар тўдасига айланаётган.

Француз социологи Густав Лебон оломонни инсон индивидуаллигини қамраб олувчи “жамоавий рух” хусусияти билан таърифлаган. “Онгли шахс йўқолади, бунда оломон деб аталадиган яхлитликни ташкил этувчи барча алоҳида бирликларнинг ҳис-туйғулари ва ғоялари бир хил йўналишни олади” [4]. Жамоавий рухнинг хусусиятларини тавсифлашда Лебон унга кўпроқ салбий тус беради.

Машҳур социолог С.И. Сигеленинг оломоннинг ишлаш механизмлари ҳақидаги қарашлари бизга янада асосли ва оммавий ҳамда индивидуал психологияга кўпроқ мос келадиган бўлиб туюлди. С.И. Сигеле ҳеч қандай таъсир, шу жумладан гипнотик таъсир ҳам инсон индивидуаллигини тўлиқ бостиришга қодир эмас, деб ҳисоблаган. Бу ҳолатни асослаш учун С.И. Сигеле кузатувлар ва тажриба маълумотларига асосланган куйидаги тезисни келтиради: “Агар барча таъсирларнинг энг кучлиси ва қудратлиси бўлган гипнотик таъсир ўтказиш орқали инсон индивидуаллигини тўлиқ йўқ қилишнинг иложи бўлмаса, балки уни фақат заифлаштириш мумкин бўлса, унда биз кўпроқ асос билан айтишимиз мумкинки, бу индивидуаллик уйғоқлик ҳолатида сақланиб қолади, ҳатто таъсир ўтказиш, масалан, оломон орасида энг юқори даражага етганда ҳам” [5].

Хорижий давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадигани, оммавий тартибсизликларга қарши курашиш фақат репрессив чоралар билан чекланиб қолмаслиги, балки ижтимоий профилактика, инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилиш, қонун устуворлигини таъминлаш билан уйғунлашган бўлиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кантицкий, О.В. Психология толпы и массовых беспорядков / О.В. Кантицкий, А.М. Ла-футкин. — Рязань.: Академия ФСИН России, 2013. — 182 с.



2. Сигеле, С.И. Преступная толпа / С.И. Сигеле. – М.: Книга по требованию, 2013. – 106 с.
3. Назаретян, А.П. Психология массового поведения / А.П. Назаретян. – М.: ПЕР СЭ, 2001. — 188 с.
4. Лебон, Г. Психология народов и масс / Г. Лебон. — М.: Издательство АСТ (Философия-Neoclassic), 2017. — 320 с
5. Сигеле, С.И. Преступная толпа / С.И. Сигеле. – М.: Книга по требованию, 2013. – 106 с.



HAQIQATNI ANIQLASH VA HIMOYALANISH HUQUQI: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY MUAMMOLAR

Suyunboyev Ilhom Oybek o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

(Jinoiy odil sudlov fakulteti tyutori)

ORCID ID: 0009-0002-3084-264X

E-mail: suyunboyevilhom994@gmail.com

ANNOTATSIYA: Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi, avvalo, shaxs huquq va erkinliklarining real ta'minlanishiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, haqiqatni aniqlash va himoyalani sh huquqi sud-huquq tizimining fundamental institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqlar nafaqat jinoyat-protsessual munosabatlarda, balki fuqarolik, ma'muriy va konstitutsiyaviy sud ishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqatni aniqlash sud adolatining mazmuniy asosini tashkil etsa, himoyalani sh huquqi shaxsning davlat hokimiyati oldidagi huquqiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada haqiqatni aniqlash va himoyalani sh huquqining nazariy-huquqiy mohiyati, ularning o'zaro uzviy bog'liqligi, xalqaro huquqiy standartlardagi o'rni, milliy qonunchilikda mustahkamlanishi hamda huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan muammolar kompleks tarzda tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Jinoyat protsessi, haqiqatni aniqlash prinsipi, himoyalani sh huquqi, adolat, tortishuv prinsipi.

1. Haqiqatni aniqlash tushunchasi va uning huquqiy mohiyati.

“Haqiqat” tushunchasi falsafa fanida obyektiv voqelikning inson ongida to'g'ri va to'liq aks etishi sifatida izohlanadi. Huquqiy ma'noda esa haqiqat – bu ish bo'yicha mavjud fakt va holatlarning qonuniy usullar orqali aniqlangan, ishonchli va dalillar bilan tasdiqlangan holatidir. Sud jarayonida haqiqatni aniqlash adolatli qaror chiqarishning zaruriy sharti bo'lib, noto'g'ri aniqlangan haqiqat huquqiy xatolarga va inson huquqlarining buzilishiga olib keladi. Huquqshunoslikda haqiqat ikki turga ajratiladi: **obyektiv haqiqat** va **formal (protsessual) haqiqat**. Obyektiv haqiqat ish bo'yicha mavjud bo'lgan real holatlarning to'liq va aniq aniqlanishini anglatadi. Formal haqiqat esa protsessual qoidalar doirasida isbotlangan va sud tomonidan e'tirof etilgan holatlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Zamonaviy huquq tizimlarida ushbu ikki yondashuv o'zaro muvozanat asosida qo'llanilishi lozim. Sud ishlarini yuritishda haqiqatni aniqlash prinsipi adolatli sudlovning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu prinsip sud, tergov va prokuratura organlarining ish bo'yicha barcha holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona o'rganish majburiyatini nazarda tutadi. Ayniqsa, jinoyat ishlarida shaxsning aybli yoki aybsizligini aniqlash masalasi bevosita haqiqatni to'g'ri belgilashga bog'liqdir. Haqiqatni aniqlash jarayonida dalillarni yig'ish, tekshirish va baholash muhim rol o'ynaydi. Dalillar qonuniy yo'l bilan olingan, ishonchli va o'zaro bog'liq bo'lishi



talab etiladi. Noqonuniy yo'l bilan olingan dalillar sud tomonidan e'tiborga olinmasligi lozim, chunki bunday dalillar inson huquqlarining buzilishi hisobiga qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin [1].

2. Himoyalaniş huquqi: tushuncha va mazmun.

Himoyalaniş huquqi shaxsning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun qonunda belgilangan barcha vositalardan foydalanish imkoniyatini anglatadi. Bu huquq, avvalo, shaxsga qo'yilgan ayblov yoki da'voga qarshi dalillar keltirish, o'z pozitsiyasini bayon etish, malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi. Himoyalaniş huquqi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, u aybsizlik prezumpsiyasi, tortishuvchanlik va tomonlar tengligi prinsiplari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu huquqning cheklanishi yoki amalda ta'minlanmasligi sud adolatining buzilishiga olib keladi [2].

Himoyalaniş huquqi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- o'ziga qo'yilgan ayblov yoki da'vo mazmunidan xabardor bo'lish huquqi;
- jim turish va o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik huquqi;
- advokat yordamini olish huquqi;
- dalillar taqdim etish va ularni tekshirtirish huquqi;
- sudda so'zlash va e'tiroz bildirish huquqi;
- sud qaroridan shikoyat qilish huquqi [3].

Mazkur elementlarning har biri shaxsning protsessual maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi va haqiqatni aniqlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Haqiqatni aniqlash va himoyalaniş huquqining o'zaro bog'liqligi.

Ba'zi hollarda haqiqatni aniqlash prinsipi bilan himoyalaniş huquqi o'rtasida qarama-qarshilik mavjud degan noto'g'ri tasavvur shakllanadi. Aslida esa ushbu ikki institut bir-birini inkor etmaydi, balki o'zaro to'ldiradi. Himoyalaniş huquqi ta'minlangan sharoitda aniqlangan haqiqat yanada ishonchli va adolatli bo'ladi. Agar himoya tomoni faol ishtirok etmasa yoki uning huquqlari cheklansa, sud jarayonida aniqlangan "haqiqat" bir tomonlama bo'lib qoladi. Shu sababli, protsessual tenglik va tortishuvchanlik haqiqatni aniqlashning muhim kafolati hisoblanadi. Tortishuvchanlik prinsipi tomonlarning mustaqil ravishda dalillar keltirishi va ularni bahslashish orqali tekshirtirishini nazarda tutadi. Sud esa neytral hakam sifatida ishtirok etib, taqdim etilgan dalillar asosida qaror chiqaradi. Mazkur model haqiqatni aniqlashning eng samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi [4].

4. Xalqaro huquqiy standartlarda haqiqat va himoyalaniş huquqi, Milliy qonunchilikka nazar hamda mavjud amaliy muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari.

Xalqaro huquq normalarida haqiqatni aniqlash va himoyalaniş huquqi alohida e'tibor bilan mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, shuningdek, mintaqaviy hujjatlarda adolatli sudlov huquqi asosiy prinsip sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjatlarda har bir shaxs mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilish, o'zini himoya qilish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'lish huquqiga egaligi



belgilangan. Xalqaro sud amaliyotida ham himoyalaniş huquqining buzilishi jiddiy protsessual kamchilik sifatida baholanadi [5]. Milliy huquq tizimida haqiqatni aniqlash va himoyalaniş huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Konstitutsiyada shaxsning sud orqali himoyalaniş huquqi, malakali yuridik yordam olish huquqi va aybsizlik prezumpsiyasi kafolatlangan. Jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual va ma'muriy protsessual qonunchilikda ushbu prinsiplar yanada rivojlantirilib, sud va tergov organlari zimmasiga aniq majburiyatlar yuklatilgan. Xususan, dalillarni qonuniy yo'l bilan to'plash, taraflarning huquqlarini ta'minlash va qarorlarni asoslantirish talablari belgilangan. Huquqni qo'llash amaliyotida haqiqatni aniqlash va himoyalaniş huquqini ta'minlash borasida qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hollarda tergov organlarining ayblovga moyil yondashuvi, advokatning ishga kech jalb qilinishi, dalillarni baholashda biryozlamalik holatlari kuzatiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

- sud va tergov organlari xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish;
- advokatura institutining mustaqilligini yanada kuchaytirish;
- sud nazoratini kengaytirish;
- protsessual kafolatlarni amalda ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish [6].

Xulosa qilib aytganda, haqiqatni aniqlash va himoyalaniş huquqi huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo'lib, ularning uyg'unligi adolatli sudlovni ta'minlashning asosiy shartidir. Himoyalaniş huquqi real va samarali ta'minlangan sharoitda aniqlangan haqiqat jamiyat va shaxs manfaatlariga mos keladi. Shu bois, mazkur institutlarni yanada rivojlantirish va ularni amaliyotda to'liq ro'yobga chiqarish huquqiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining “Advokatura to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1996 (amaldagi tahrir).
4. O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT Bosh Assambleyasi, 1948-yil 10-dekabr.
6. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. – Nyu-York, 1966-yil 16-dekabr.
7. Ashworth A. **Human Rights, Serious Crime and Criminal Procedure.** – Oxford: Oxford University Press, 2019.



AYOLLARNING MEHNAT HUQUQLARINI XALQARO VA MILLIY DARAJADA TARTIBGA SOLISH

Xakimova Inobatxon Marksova,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti, mustaqil izlanuvchisi
inobat.x.m@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada ayollarning mehnat huquqlarini ta'minlash masalasi xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar asosida tahlil qilingan. Unda BMT va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan qabul qilingan asosiy konvensiyalar — xususan, CEDAW hamda XMTning 100, 111 va 183-sonli konvensiyalarining mazmuni yoritilib, ularning O'zbekiston mehnat qonunchiligiga uyg'unligi ko'rsatilgan. Teng haq to'lash, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, onalikni himoya qilish va xavfsiz mehnat sharoitlari bo'yicha kafolatlar yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ayollar, mehnat huquq, gender tengligi, teng haq to'lash konvensiya, qonunchilik, Konstitutsiya, Kodeks, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, CEDAW.*

Ayollarning mehnat huquqlarini ta'minlash masalasi ularni jamiyatning zaif qatlamiga mansubligi sababli butun jahon hamjamiyati uchun umumiy masalaga aylangan. Ayollarni teng huquqli mehnat subyekti sifatida e'tirof etish, ularning ijtimoiy-mehnat sohasidagi himoyasizligidan kelib chiqib, xalqaro mehnat standartlari hamda har bir davlatning mehnat qonunchiligi orqali belgilanishi va kafolatlanishi lozim, davlat mazkur XMT konvensiyalari va tavsiyalarining ishtirokchisi bo'lishidan qat'iy nazar. Shu bois, ayollar mehnatini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i zarur, mehnat faoliyatiga oid mavjud cheklovlar esa adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlari bilan almashtirilishi kerak.¹

cost or in accordance with International Financial Reporting Standards. A business entity should consider each category of investments equally.

Investments accounted for at cost should be accounted for in accordance with International Financial Reporting Standards 5 "Non-current assets held for sale and discontinued operations" when they are classified as held for sale (or included in the derecognition group classified as held for sale) . The valuation of investments accounted for in accordance with **International Financial Reporting Standards 9 does not change in such cases.**

If an entity elects, in accordance with paragraph 18 **of International Accounting Standards 28 (as amended in 2011)**, to reflect its investments in associates or joint ventures as investments at fair value through profit or loss in accordance with **International Financial Reporting Standards 9**, it should be taken into account in the same way in its separate financial reports.

If the parent entity is required, in accordance with paragraph 31 of **International Financial Reporting Standards 10**, to reflect its investment in a subsidiary business entity as an investment with changes in fair value recognized in profit or loss in accordance with International Financial Reporting Standards 9, such parent entity shall present its investment in the subsidiary business entity in its separate financial statements. should be taken into account in the same way in the reports.

When the status of an investment business entity of the main organization is terminated, or it is changed to an investment business entity, such a change should be taken into account from the date of the change in status as follows:

when the status of an investment business entity of the main organization is terminated, the main organization in accordance with paragraph 10:

the subsidiary should account for the investment in the business entity at cost. The fair value of the subsidiary business entity on the date of change of status should be taken as the cost on this date; or the investment in the subsidiary shall continue to be accounted for in accordance with **International Financial Reporting Standards 9.**

shall account for the investment in the business entity as an investment at fair value through profit or loss in accordance with **International Financial Reporting Standards 9.** The difference between the previous balance sheet value of the subsidiary business entity and its fair value on the date of change in investor status should be recognized as a profit or loss in profit or loss. The cumulative amount of any fair value adjustment previously recognized in other comprehensive income in respect of those subsidiaries is treated as if the investee had derecognised those subsidiaries on the date of the change in status.

An entity shall recognize a dividend received from an affiliate, joint venture or subsidiary in profit or loss in its separate financial statements when the right to receive the dividend arises.

When a parent organization reorganizes its group structure by establishing a new business entity as its parent organization in a way that meets the following criteria: if the new parent entity acquires control over the original parent entity



by issuing equity instruments in exchange for the existing equity instruments of the original parent entity; the assets and liabilities of the new group and the original group are the same immediately before and after the reorganization;

If the owners of the original parent before the reorganization have the same absolute and relative shares in the net assets of the original group and the new group immediately before and after the reorganization, and if the new parent takes into account its investment in the original parent in its separate financial statements in accordance with the relevant paragraph, the new business entity should estimate the cost at the balance sheet value of its share in the capital items reflected in the separate financial statements of the original parent organization on the date of reorganization.

Also, a business entity that is not a parent organization may establish a new business entity as its parent organization in a way that satisfies the criteria in paragraph 13. In such cases, "initial parent organization" and "initial group" shall mean "initial business entity".

References:

1. Steven M. Bragg "Accounting Best Practices" John Wiley & Sons, New Jersey, USA. 2010.- 542 p.
2. Babaev Yu.A. Mejdunarodnye standard financial otchetnosti. Textbook. - M.: INFRA-M, 2012.
3. Vakhrushina M.A. MSFO: methodological transformation RO. M.: Omega -L , 2007. -565 p.
4. Vakhrushina M.A. International financial reporting standards. Omega-L, 2007. -568 p.
5. Generalova N.V. International financial reporting standards. M.: Prospectus - 2008. 325 p.
6. Jarylgasova B.T. International standard audit. Uchebnoe posobie. M.: KNORUS, 2008-400 p.
7. Ibragimov A.K. et al. Accounting in banks based on international financial reporting standards. Study guide. – .: 2010.-272 p.



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY TAHLIL VA AUDITORLIK FAOLIYATINI XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mamayunusov Bekzod Ravshanovich

Alfraganus universitet Moliya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jamiyat va davlat boshqaruvi, iqtisodiy jarayonlar hamda moliyaviy monitoring sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga chiqarmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyati tamoyillarini yangilashni, zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni talab qilmoqda. Ushbu jarayon iqtisodiyotda raqamsallashtirish, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt asosida ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi. Natijada, iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini olib borishda xalqaro standartlar hamda ilg'or tajribalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy tahlil, auditorlik faoliyati, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli transformatsiya, moliyaviy tahlil, korxonalarini raqamlashtirish, auditorlik standartlari.

Аннотация: В последние годы развитие цифровой экономики во всем мире привело к фундаментальным изменениям в сферах управления обществом и государством, экономических процессов и финансового мониторинга. Стремительное развитие цифровой экономики требует обновления принципов экономического анализа и аудита, их совершенствования на основе современных технологий. Этот процесс позволяет обеспечить цифровизацию, автоматизацию и обработку данных в экономике на основе искусственного интеллекта. В связи с этим внедрение международных стандартов и передового опыта в области экономического анализа и аудита приобретает все большую актуальность.

Ключевые слова: цифровая экономика, экономический анализ, аудит, международный опыт, инновационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровая трансформация, финансовый анализ, цифровизация предприятий, стандарты аудита.

Annotation. In recent years, the development of the digital economy worldwide has led to fundamental changes in the fields of society and state governance, economic processes, and financial monitoring. The rapid development of the digital economy requires updating the principles of economic analysis and auditing, improving them based on modern technologies. This process allows for digitalization, automation, and data processing in the economy based on artificial intelligence. As a result, the introduction of international standards and best practices in economic analysis and auditing is becoming increasingly important.



Keywords: digital economy, economic analysis, auditing, international experience, innovative technologies, information and communication technologies, digital transformation, financial analysis, enterprise digitization, auditing standards.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin egallamoqda. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va sun‘iy intellekt kabi zamonaviy yechimlar yordamida iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatni tez, samarali va shaffof tarzda amalga oshirishga imkon beradi. Mazkur jarayonlarda Internet tarmog‘i, bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma‘lumotlar va axborotlarni qayta ishlashning yangi metodlari keng qo‘llanilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli texnologiyalarning, jumladan, internet, mobil kommunikatsiyalar, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data), blokcheyn, bulutli texnologiyalar va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatdir. Ushbu omillar iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshiradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy tahlilchilarga va auditorlarga yangi imkoniyatlar ochib beradi, ular uchun ma‘lumotlarni tezkor va to‘laqonli olish, aniqlik asosida tahlil qilish va samarali xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratadi. Iqtisodiy tahlil – bu xo‘jalik subyektlari faoliyatini, davlat va korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish, moliyaviy, investitsiyaviy va ishlab chiqarish samaradorligini baholash, rivojlanish istiqbollari belgilashda yordam beradigan ilmiy yo‘nalishdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Avvallari iqtisodiy tahlil ko‘proq statistik va an‘anaviy usullarga asoslangan bo‘lsa, hozirda zamonaviy dasturiy vositalar, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil platformalari yordamida yuqori darajada tahliliy jarayonlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ancha ishonchli, tez va sifatli axborotlar olish imkonini beradi [1].

Auditorlik faoliyati ham raqamli iqtisodiyot sharoitida tubdan yangilanmoqda. Auditorlik zamonaviy korxonalar, tashkilotlar va moliya institutlarida moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini va shaffofligini ta‘minlash, moliyaviy cheklovlarning rioya qilinishini nazorat qilish, firibgarlik va xatoliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Raqamli yechimlar, xususan, blokcheyn texnologiyalari va sun‘iy intellekt, kompaniyalarning moliyaviy harakatlari ustidan doimiy va real vaqt rejimida monitoring olib borish, barcha hujjat va hisobotlarni jadval asosida avtomatik qayd qilish imkonini beradi. Bunda inson faktoriga xos bo‘lgan xato va kamchiliklar minimal darajaga tushadi. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar raqamli iqtisodiyotni keng joriy qilgan holda iqtisodiy tahlil va auditorlik tizimini doimiy takomillashtirib bormoqda. Masalan, rivojlangan davlatlarda barcha hisobotlar va moliyaviy ma‘lumotlar markazlashgan yagona axborot bazasi orqali qayd etiladi. Bu tizimlar rahbarlar va auditorlar uchun barcha iqtisodiy harakatlarni aniq va ishonchli tarzda kuzatish imkonini beradi. Ilg‘or tajribalardan yana biri bulutli texnologiyalar asosida axborotlarni tezkor almashinuvi va saqlanishidir. Bu esa nazorat va tahlil jarayonlarini kundalik ish



tartibiga aylantiradi. Sun'iy intellektga asoslangan dasturiy vositalar esa auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, xalqaro audit kompaniyalari auditing jarayonining asosiy qismini avtomatlashtirilgan tahlil dasturlari vositasida amalga oshirmoqda. Raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatining zamonaviy yondashuvlari bir qator ustunliklarni taqdim etadi. Birinchidan, barcha iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar yagona axborot maydonida jamlanib, tahlil va monitoringning aniqligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, avtomatlashtirish va raqamsallashtirish yordamida inson omiliga bog'liq xatoliklar sezilarli darajada kamayadi. Uchinchidan, tezkorlik va samaradorlik ortadi, chunki auditor va tahlilchilar hisobot va statistik ma'lumotlarni avtomatik tarzda, real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. To'rtinchidan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari yordamida tahlil va auditda ilgari mavjud bo'lmagan ko'lamdagi yangi yondashuvlar paydo bo'lmoqda [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida ko'plab davlatlar zamonaviy infratuzilmani joriy etmoqda. Jumladan, moliya va iqtisodiyot sohasidagi tashkilot va korxonalarda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, avtomatik hisobot va monitoring tizimlarini yaratish ustidan katta ishlar olib borilmoqda. Yirik va o'rta biznes subyektlarida moliyaviy hisobotlarni dasturiy vositalar orqali yuritish, auditorlik kompaniyalari esa o'z xizmatlarini raqamli platforma vositasida taqdim etmoqda. Bu esa iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatida aniqlik va ishonchlilik darajasi yuqori bo'lishini kafolatlaydi. Raqamli iqtisodiyotni joriy etishda xalqaro tajribalar asosida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: birinchidan, iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan zamonaviy dasturiy vositalarni keng joriy qilish va ularni muntazam yangilab borish lozim; ikkinchidan, axborot texnologiyalarini joriy etish bilan birga, mutaxassislarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni doimiy ravishda malaka oshirish kurslariga yuborish kerak; uchinchidan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda huquqiy bazani mustahkamlash, zamonaviy standartlarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish va xalqaro reglamentlarga javob beradigan me'yorlarni joriy etish muhim hisoblanadi

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish korxonalar va tashkilotlarda faoliyatni to'laqonli kuzatib borish, moliyaviy barqarorlikni oshirish, firibgarlik va moliyaviy xatolarni kamaytirish, shuningdek, hisobotlarni shaffof yuritilishini ta'minlaydi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlik jarayonlari yirik ma'lumotlar bazasidan samarali foydalanish va zamonaviy analitik usullardan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi natijasida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyati sohalarida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi: birinchi navbatda, barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayd etish, ikkinchidan, hisobotlarni real vaqt rejimida shakllantirish, uchinchidan, yirik va kichik miqyosdagi ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash mumkin bo'ladi. Ularning amaliyotga joriy etilishi respublika iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot



imkoniyatlarini ochib berish uchun birinchi navbatda zamonaviy axborot kommunikatsiya infratuzilmasi, yuqori tezlikdagi internet, himoyalangan axborot xavfsizligi tizimi va innovatsion texnologiyalar joriy qilinishi zarur. Shu o‘rinda, raqamli iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar, auditorlik firmalari hamda iqtisodiy tahlil markazlari xalqaro tajribalardan keng foydalanishlari, o‘z faoliyatini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirishlari lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish iqtisodiyotning zamonaviy bosqichini shakllantirishda, iqtisodiy jarayonlarni tahlil va boshqarishda, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda, firibgarlik va xatoliklarning oldini olishda, shaffof va ishonchli hisobotlar yuritishda beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, auditorlik va iqtisodiy tahlil sohasida xalqaro tajribalarga tayangan holda ilg‘or amaliyotlarni joriy etish respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, barqarorligini va samaradorligini oshiradi. Raqamli iqtisodiyotni keng joriy qilish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi va shu yo‘l bilan iqtisodiy tahlil hamda auditorlik faoliyatining xalqaro standartlar asosida rivojlanishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov, M. M. (2019). “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy tahlilning innovatsion usullari”. Moliyaviy Hisobiyot va Audit, 2(4), 14–22.
2. Abdullayev, R. S. (2018). “Zamonaviy axborot texnologiyalarining auditorlik faoliyatida qo‘llanilishi”. O‘zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi, 5(3), 67–73.
3. Akramov, T. S. (2021). “Raqamli iqtisodiyotda auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish yo‘nalishlari”. Audit va Tahlil, 4(2), 35–43.
4. Ashurov, S. M. (2020). “Iqtisodiyotni raqamlash jarayonida auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish”. Iqtisodiyot va Innovatsiyalar, 8(1), 55–62.



AGROSERVIS XIZMATLRINI TO‘G‘I VA SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI YUQORI XIZMAT NATIJALARIGA ERISHISH YO‘LLARI

Abilov Feruz Nematullaevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi.
feruzabilov@gmail.com.

Annotatsiya ushbu maqolada agroservis xizmatlarining hududlar kesimida notekis rivojlanganligi, infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, servis xizmatlarining sifati va qamrovi pastligi kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: servis xizmatlari, kambag‘allikni qisqartirish, sifat, qishloq xo‘jaligi, bozor mexanizmlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что неравномерное развитие агросервисов в разных регионах, недостаточная инфраструктура, а также низкое качество и охват услуг негативно влияют на процесс сокращения бедности.

Ключевые слова: услуги, сокращение бедности, качество, сельское хозяйство, рыночные механизмы.

Abstract: This article examines the fact that uneven development of agricultural services in different regions, insufficient infrastructure, as well as low quality and coverage of services negatively affect the process of poverty reduction.

Key words: services, poverty reduction, quality, agriculture, market mechanisms.

Bugungi kunda qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, aholining daromad manbalarini kengaytirish va kambag‘allik darajasini qisqartirish masalalari dunyo miqyosida, xususan, O‘zbekiston uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini shakllantirishi, aholining katta qismi aynan ushbu sohada band ekanligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda agroservis xizmatlarining roli tobora ortib bormoqda.

Agroservis xizmatlari (texnik xizmat ko‘rsatish, mexanizatsiya, logistika, agrotexnik maslahatlar, moliyaviy va raqamli xizmatlar) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, hosildorlik va mahsulot sifati yaxshilanishini ta‘minlash orqali ularning barqaror daromad olishiga xizmat qiladi. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, qishloq hududlarida agroservis xizmatlarining hududlar kesimida notekis rivojlanganligi, infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, servis xizmatlarining sifati va qamrovi pastligi kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.



Ayniqsa, kichik fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa egalari uchun agroservis xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ularning ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirib, daromadlar barqarorligiga tahdid solmoqda. Bu esa qishloq hududlarida kambag‘allikning saqlanib qolishi va ayrim hududlarda chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shu sababli agroservis xizmatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlarida agroservis infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur hujjatlarda qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, xizmatlar sektorini kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish vazifalari ilgari surilgan.

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi I-yo‘nalishida nazarda tutilgan har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish bo‘limining 1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar bandining 27 maqsadida nazarda tutilgan. 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish. Kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish Ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash masalalari qo‘yilgan. Hududlarda agroservis xizmatlarini takomillashtirish va ularni qishloq hududlarida kambag‘allikni qisqartirish bilan uzviy bog‘liq holda strategik yo‘nalishlar asosida tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi bo‘yicha katta salohiyatga ega. Ta’kidlash joizki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining to‘rtidan biri (2022 yil yakuniga ko‘ra – 25,1 foizi), aynan mazkur sohaga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, respublika bo‘yicha band bo‘lgan aholining qariyb 24,9 foizi (2022 yil 3-chorak yakuniga ko‘ra) qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga to‘g‘ri kelib, bu ko‘rsatkich 3,5 mln. kishini tashkil etmoqda¹⁷.

Bu esa, nafaqat iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni g‘oyatda muhim ekanligini, balki bevosita sohada amalga oshiriladigan islohotlarga ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

O‘z navbatida aytish lozimki, so‘nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, erlarning melorativ holati buzilishi kabi muammolar sabab, O‘zbekistonda mazkur soha qator muammo va tahdidlar girdobida qoldi. Bundan tashqari, yillar davomida ushbu sohada to‘laqonli bozor munosabatlariga asoslangan islohotlarning amalga oshirilmaganligi, ya’ni ushbu soha davlat tomonidan eng ko‘p tartibga solinadigan soha bo‘lganligi, davlat buyurtmasi, erdan foydalanishga bo‘lgan huquqlarning cheklanganligi va

¹⁷<https://kun.uz/news/2025/12/13/qishloq-xojaligining-taqdiri-va-kelajagi-butun-mamlakatimizning-taqdiri-va-kelajagidir-shavkat-mirziyoyev-qishloq-xojaligi-xodimlariga-tabrik-yolladi>



himoyalanmaganligi kabi muammolar ushbu tarmoqdagi samaradorlik, unumdorlik ko'rsatkichlarining pasayishiga sabab bo'ldi. Yana bir sabablardan biri bu iqlim o'zgarishlari hisoblanadi, bu o'zgarishlar agrar sektor faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Paxta, g'alla va meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha yangi navlarni ekish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori hosildorlikka erishildi. Uylaymizki, agroservis xizmatlarini to'g'ri va samarali tashkil etish orqali yuqori xizmat natijalariga erishish bilan bigra biirinchi, qishloq aholisining bandligi ta'minlansa, ikkinchidan kambag'allik darajasini keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, qishloq joylarda agroservis xizmat ko'rsatish tizimini to'g'ri tashkil etish bir qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga:

- birinchidan, agroservis sohasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini diversifikatsiyalash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish hamda innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlarida xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanish;

- ikkinchidan, modernizatsiyalash asosida agroservis korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy etish orqali doimiy takomillashtirib borish;

- uchinchidan, agroservis xizmatlarini o'z muddati va sifatida amalga oshirish hisobiga mahsulot (tovar) ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish hamda buning uchun intensiv omillardan maqbul nisbat va hajmlarda to'liq foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. “Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси”. Ўқув қўлланма -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004 й.
2. Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.
3. Амартья Сен «Бедность и голод: очерк о правах и лишениях» (1981);
4. Бедность: взгляд ученых на проблему. М., 1994
5. Спенсер, Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – СПб: В. Врубелевский, 1906
6. Муҳаммедов М. (2020) 1,9 АҚШ долларидан кам маблағга кун кечираётганлар //“Zarafshon” газетаси. 2020 йил 23 июнь. 68 сон. 2-бет.
7. Пардаев М.Қ., Пардаев О. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Рисола. Самарқанд, 2020
8. <https://kun.uz/news/2025/12/13/qishloq-xojaligining-taqdiri-va-kelajagi-butun-mamlakatimizning-taqdiri-va-kelajagidir-shavkat-mirziyoyev-qishloq-xojaligi-xodimlariga-tabrik-yolladi>



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH, AHOЛИ BANDLIGINI TA'MINLAB, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILIDIR

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
i.f.d. pardayevmamayunus@gmail.com

Abilov Feruz Nematullaevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil izlanuvchisi.
feruzabilov@gmail.com.

Annotatsiya ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasiga ta'sirini kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allikni qisqartirish, xizmatlar sohasi, aholi bandligi, mehmonxona tarmoqlari, ta'lim xizmatlari, servis korxonalari

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что развитие сектора услуг, повышение его эффективности и усиление его влияния на уровень жизни населения входят в число приоритетных вопросов государственной политики.

Ключевые слова: сокращение бедности, сектор услуг, занятость, гостиничные сети, образовательные услуги, предприятия сферы услуг.

Abstract: This article examines the fact that the development of the service sector, increasing its efficiency and strengthening its impact on the standard of living of the population are among the priority issues of public policy.

Key words: poverty reduction, service sector, employment, hotel chains, educational services, service enterprises.

Globalashuv jarayonlari dunyo aholisining notekis tarzda o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlar bir hududda aholi kamayishini yuzaga keltirsa, yana bir hudud aholisini ko'payishiga sabab bo'lmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat vazifalar ishlab chiqilgan. Ularning tarkibida aholi va uning farovonligi bilan bog'liq masalalar alohida e'tirof etilgan. Ushbu masalalar globalashuv jarayonida dunyo aholisining tarkibiy tuzilishi va o'zgarish jarayonlari bilan ham bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda imzolangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi № PF-60 sonli Farmonida mamlakat aholisini va uning farovonligi bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Dunyo aholisining turli yo'nalishlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini, ularning farovonlik darajasini o'rganish va



ularni kambag'allikdan chiqarish bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda bevosita xizmatlar sohasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng faol va dinamik tarmoqlaridan biri sifatida **inson kapitali, innovatsiya va texnologik taraqqiyot** bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston iqtisodiyotida ushbu soha 2020–2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 50 foizdan oshirib, milliy iqtisodiyotning asosiy **drayveri** sifatida shakllandi. Shu davrda xizmatlar tarmog'ida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada ortib, 2024-yilda 9,6 million kishidan oshdi. Bu mamlakatda xizmatlar sektori bandlikdagi eng yirik ulush - qariyb 56 foizni tashkil etdi¹⁸.

So'nggi yillarda xizmatlar sektori tarkibida **axborot va aloqa (68 foiz o'sish), ta'lim (14 foiz)** hamda **yashash va ovqatlanish xizmatlari (20 foiz)** kabi yo'nalishlarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlar mamlakatda iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya va raqamli infratuzilma rivojining tezlashuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va aholi turmush darajasiga ta'sirini kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida belgilangan yettita strategik yo'nalishning to'rtinchisi - "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" yo'nalishi xizmatlar sohasi orqali aholining farovonligini oshirishga qaratilgan 55 ta aniq chora-tadbirni o'z ichiga oladi (Farmon, 2022). Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishning tarkibiy drayveri, yangi ish o'rinlarini yaratish manbai hamda aholining turmush darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan oshib, 9,6 milliondan ortiq aholi bandligini ta'minlagan. Bu esa mamlakatda xizmatlar sektori bandlikning 56 foizini tashkil etayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi 2020–2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida barqaror o'sishni namoyish etdi. 2020-yilda xizmatlar hajmi 219,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 818,4 trln so'mga yetdi, ya'ni 3,7 barobar o'sish qayd etildi.

1-jadval

Xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va o'sish tendensiyalari¹⁹

Yil	Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %	Kichik biznes ulushi, %	Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
2020	219 978,5	–	57,5	6 426,1
2021	284 388,1	112,9	60,1	8 145,1
2022	366 891,0	114,1	65,1	10 292,0

¹⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil yakunlari

¹⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil yakunlari



2023	649 806,4	116,3	67,4	17 845,7
2024	818 428,3	112,9	73,2	22 017,6

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xizmatlar sohasi so'nggi besh yilda o'rtacha 14–16 % atrofida barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Eng sezilarli o'sish 2023-yilda qayd etilgan (116,3 %), bu pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiyot tiklanishining va ichki talabning oshishining natijasidir. Kichik biznesning ulushi 2020-yildagi 57,5 % dan 2024-yilda 73,2 % gacha ko'tarilgan. Bu esa xizmatlar sohasida xususiy sektorning dominant mavqega ega bo'layotganini anglatadi. Xizmatlar hajmining ko'payishi bilan birga, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar miqdori ham deyarli 3,4 barobar o'sdi. Bu holat aholining real farovonligi oshayotganidan, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi.

Xizmatlar sektori rivojlanishida hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Quyidagi jadvalda 2024-yil yakunlari bo'yicha xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari keltirilgan.

2-jadval

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi

Hudud	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Toshkent shahri	298 825,6	36,5	116,8
Samarqand	58 875,7	7,2	114,1
Farg'ona	55 200,7	6,7	112,3
Toshkent viloyati	56 317,9	6,9	112,8
Qashqadaryo	43 255,9	5,3	110,9
Andijon	41 807,5	5,1	113,1
Buxoro	34 495,1	4,2	111,2

2-jadval ma'lumotlari bo'yicha xududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri mamlakat xizmatlar tarmog'ining markaziy o'sish nuqtasi bo'lib qolmoqda - 2024-yilda umumiy xizmatlar hajmining 36,5 % aynan poytaxt hissasiga to'g'ri kelgan. Bu yuqori natija moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, IT va turizm infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Samarqand viloyati (7,2 %) va Farg'ona viloyati (6,7 %) so'nggi yillarda yangi mehmonxona tarmoqlari, ta'lim xizmatlari va servis korxonalarining faoliyati hisobiga sezilarli o'sishga erishdi. Bu mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirish bilan birga aholi bandligini ta'minlab, kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pardayev M., Pardayeva O., Globallashuv jarayonida dunyo aholisining tarkibiy tuzulishi va o'zgarish jarayonlari. // Jurnal of marketing business and management (JMBM). – 64-73 betlar. www.jmbm.uz VOLUME 1, ISSUE 4 (June) ISSN: 2181-3000 <https://cyberleninka.ru/article/n/taraqqiyot-strategiyasini-taminlashda-yaponiya-tajribasidan-foydalanish-imkoniyatlari>. – 0,8 b.t.,
2. Pardayev M.Q., Latipov A.R., Usmonov M.D. Qishloq aholisining kambag'alligini qisqartirishda ish bilan bandligini imkoniyatlari. // Jurnal of marketing business and management (JMBM). – 209-217 betlar. www.jmbm.uz VOLUME 1, ISSUE 4 (June) ISSN: 2181-3000 <https://cyberleninka.ru/>. – 0,5 b.t.,



3. Mamayunus Qarshibayevich Pardayev. Ozoda Mamayunusovna Pardayeva. Globallashuv jaraenida dunè aholisining tarkibiy tuzilishi va o'zgarish jaraenlari. //“Servis” ilmiy-amaliy jurnal. 2022. 3-son. – 5-11 betlar. – 0,6 b.t..
4. Мухаммедов М. (2020) 1,9 АҚШ долларидан кам маблағга кун кечираётганлар //“Zarafshon” газетаси. 2020 йил 23 июнь. 68 сон. 2-бет.
5. Пардаев М.Қ., Пардаев О. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Рисола. Самарқанд, 2020



ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ

Юлдашова Н.З.

преподаватель кафедры «Экономический анализ и статистика» Самаркандского института экономики и сервиса, доцент и.о. PhD

Нарзуллаева Ж.Х.

Студентка Самаркандского института экономики и сервиса 2-го курса БИ-224

Аннотация: Статья посвящена комплексному исследованию процессов цифровой трансформации сферы услуг и их влияния на повышение эффективности деятельности организаций. В работе анализируются теоретические основы цифровизации, современные инновационные подходы и механизмы оптимизации сервисных процессов. Особое внимание уделено автоматизации, внедрению цифровых платформ, использованию больших данных, искусственного интеллекта и облачных решений. Рассмотрены научные труды ведущих исследователей и сформирована методологическая основа анализа. На основе обобщения результатов предлагаются конкретные рекомендации по повышению эффективности услуг посредством внедрения цифровых технологий.

Ключевые слова: Цифровая трансформация; инновации; сфера услуг; эффективность; автоматизация; цифровые платформы; искусственный интеллект; большие данные; сервисные процессы.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning tashkilot faoliyatini yaxshilashga ta'siri keng qamrovli o'rganilgan. Maqolada raqamlashtirishning nazariy asoslari, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Avtomatlashtirish, raqamli platformalarni joriy etish, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt va bulutli yechimlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Yetakchi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ko'rib chiqiladi va metodologik asos ishlab chiqiladi. Natijalar xulosasi asosida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya; innovatsiya; xizmat ko'rsatish sohasi; samaradorlik; avtomatlashtirish; raqamli platformalar; sun'iy intellekt; katta ma'lumotlar; xizmat ko'rsatish jarayonlari.

Abstract: This article presents a comprehensive study of digital transformation processes in the service sector and their impact on improving organizational performance. The paper analyzes the theoretical foundations of digitalization, modern innovative approaches, and mechanisms for optimizing service processes.



Particular attention is paid to automation, the implementation of digital platforms, the use of big data, artificial intelligence, and cloud solutions. The scientific works of leading researchers are reviewed, and a methodological framework is developed. Based on a summary of the results, specific recommendations are proposed for improving service efficiency through the implementation of digital technologies.

Keywords: Digital transformation; innovation; service sector; efficiency; automation; digital platforms; artificial intelligence; big data; service processes.

Современная экономика характеризуется ускоренными темпами развития технологий и глобальной цифровизацией всех сфер деятельности. Особое место в этих процессах занимает сфера услуг, которая в большинстве стран стала ключевым источником формирования ВВП и занятости населения. Услуги сегодня выполняют более сложные функции, чем в прошлом: они обеспечивают не только выполнение запросов клиента, но и формируют новый уровень взаимодействия, основанный на скорости, точности и доступности. Потребители всё чаще отдают предпочтение тем компаниям, которые способны предложить удобные цифровые каналы обслуживания, гибкие способы взаимодействия и повышенный уровень персонализации. Поэтому цифровизация стала не просто новым этапом развития, а фундаментальным условием конкурентоспособности организаций.

Однако внедрение технологий — это не только технический процесс, но и глубокое изменение бизнес-моделей, форм организации труда, структуры коммуникаций и управления качеством услуг. В результате возникает необходимость комплексного анализа того, каким образом инновации влияют на эффективность сервисной деятельности.

Степень изученности проблемы: Проблема цифровизации услуг изучалась многими зарубежными и отечественными учёными. Среди ключевых исследователей можно выделить:

1. **М. Портер** — основатель теории конкурентных преимуществ, исследовал влияние технологических изменений на производительность и стратегию компаний.

2. **П. Друкер** — один из первых учёных, подчеркнувший, что инновации лежат в основе повышения эффективности и устойчивого развития организаций.

3. **Т. Давенпорт** — исследовал внедрение информационных систем, аналитики данных и автоматизации рабочих процессов.

4. **К. Шваб** — основоположник концепции Четвёртой промышленной революции, описывающий влияние цифровых технологий на общество и экономику.

5. **Н. Брайсон и Дж. Андерсон** — анализировали цифровые государственные услуги, развитие электронного управления и онлайн-сервисов.

Цифровые технологии в современных условиях стали **ключевым фактором развития сферы услуг и повышения эффективности сервисной деятельности**. Переход организаций к цифровым моделям обслуживания



формирует новую экономическую среду, в которой на первый план выходят **скорость, удобство, прозрачность и качество взаимодействия с клиентами**. Цифровизация перестала быть элементом обновления и превратилась в **стратегическую необходимость**, обеспечивающую конкурентоспособность и устойчивое развитие организаций в долгосрочной перспективе.

В условиях цифровой трансформации **традиционные формы обслуживания утрачивают актуальность**, уступая место электронным платформам, мобильным приложениям и дистанционным каналам взаимодействия. Это позволяет перенести значительную часть сервисных процессов в виртуальную среду, делая услуги **более доступными, независимыми от времени и территории**, а также способствуя **снижению операционных затрат** организаций. Клиенты получают возможность решать большинство вопросов без физического обращения в офис, что значительно повышает удобство и эффективность обслуживания.

Особое значение приобретает **персонализация услуг**, основанная на использовании больших данных и технологий искусственного интеллекта. Анализ поведения и предпочтений клиентов позволяет формировать **индивидуальные предложения, адаптированные интерфейсы и гибкие условия обслуживания**, что повышает уровень удовлетворённости и лояльности потребителей. Для компаний это становится инструментом укрепления конкурентных преимуществ и стимулирования повторного спроса.

Существенную роль в повышении эффективности услуг играет **автоматизация сервисных процессов**, включающая электронный документооборот, программных роботов, чат-ботов и интеллектуальные системы обработки данных. Автоматизация сокращает время выполнения операций, снижает вероятность ошибок и высвобождает трудовые ресурсы для выполнения **аналитических и экспертных функций**, тем самым повышая общую продуктивность труда.

Важным элементом цифровой трансформации являются **цифровые платформы**, формирующие новую архитектуру предоставления услуг. Они объединяют поставщиков и потребителей в едином пространстве, обеспечивают прозрачность взаимодействия и расширяют доступ к сервисам в таких сферах, как торговля, банковская система, образование, транспорт и государственное управление. Платформенные решения способствуют **расширению аудитории и сокращению административных издержек** организаций.

Цифровые технологии также обеспечивают **повышение прозрачности и управляемости сервисных процессов** за счёт электронной фиксации операций и автоматического контроля. Это снижает риски злоупотреблений, усиливает доверие клиентов и особенно важно для **государственного сектора**, где цифровизация способствует сокращению бюрократии. Несмотря на существующие сложности, связанные с затратами, киберугрозами и



необходимостью развития цифровых компетенций персонала, **цифровизация остаётся основным фактором совершенствования сферы услуг**, обеспечивая рост эффективности, улучшение качества обслуживания и устойчивое развитие организаций.

Проведённое исследование показало, что цифровые технологии и инновации становятся ключевым инструментом повышения эффективности услуг. Их внедрение ускоряет процессы, снижает издержки, повышает качество обслуживания и создаёт новые возможности для взаимодействия с клиентами. Наиболее значимый эффект достигается при использовании искусственного интеллекта, больших данных, облачных систем и автоматизации, которые позволяют компаниям работать быстрее и точнее. Однако успешная цифровизация требует не только технических решений, но и организационных изменений: развития цифровых компетенций персонала, адаптации бизнес-процессов и обеспечения высокого уровня информационной безопасности. В итоге цифровые инновации формируют основу устойчивого развития сферы услуг и повышают её конкурентоспособность.

Предложения: Учитывая выявленные проблемы и перспективы цифровизации, представляется целесообразным предложить следующие направления совершенствования деятельности организаций.

1. **Активизировать внедрение цифровых технологий** в организациях, уделяя приоритетное внимание автоматизации ключевых процессов, использованию искусственного интеллекта и интеграции облачных платформ для повышения скорости и качества предоставляемых услуг.

2. **Развивать цифровые компетенции сотрудников**, внедряя системное обучение, профессиональные курсы и внутренние тренинговые программы, что позволит персоналу эффективно работать с инновационными инструментами и адаптироваться к изменениям.

3. **Усилить меры по обеспечению кибербезопасности**, включая защиту персональных данных, регулярную модернизацию систем безопасности и мониторинг угроз, поскольку доверие клиентов напрямую зависит от защищённости информационной среды.

Список литературы:

1. Портер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. — М.: Альпина Паблишер, 2020.
2. Котлер Ф., Картайя Х. Маркетинг услуг. — М.: Вильямс, 2019.
3. Друкер П. Практика менеджмента: управление в условиях изменений. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2021.
4. Laudon K., Laudon J. Management Information Systems: Managing the Digital Firm. — Pearson, 2022.
5. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. — New York: W. W. Norton, 2016.
6. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2017.



РЫНОК И РИСК

Ишонкулова Феруза Асатовна

*Самаркандский институт экономика
и сервиса. PhD и.о.доцента*

Джуманазарова Э.С

*Самаркандский институт экономика и сервиса,
студентка 2-го курса БИ-224*

Шарибаева Х.Дж.

*Самаркандский институт экономика и сервиса,
студентка 2-го курса БИ-224*

Аннотация: Рыночный риск является неотъемлемым элементом современной экономической системы, оказывающим непосредственное влияние на инвестиционный климат и финансовую стабильность. В данной статье анализируется взаимосвязь между эффективностью рынка и уровнем неопределенности, рассматриваются ключевые методы управления рисками на примере развивающихся экономик, в частности Республики Узбекистан. Актуальность исследования определяется необходимостью адаптации национальных финансовых институтов к глобальной нестабильности и реализации стратегических целей развития страны до 2030 года. Раскрываются вопросы макроэкономической стабильности, финансовой диверсификации и роли цифровизации в формировании нового ландшафта рисков.

Ключевые слова: Рыночный риск, экономика Узбекистана, инвестиционный климат, волатильность, диверсификация, Стратегия 2030, фондовый рынок, управление рисками, финансовая стабильность, киберриски.

Annotatsiya: Bozor xavfi zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas elementi bo'lib, investitsiya muhiti va moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada bozor samaradorligi va noaniqlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi misolida asosiy xavflarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi milliy moliya institutlarining global beqarorlikka moslashishi va 2030 yilgacha mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish zarurati bilan belgilanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy diversifikatsiya va yangi xavf landshaftini shakllantirishda raqamlashtirishning roli masalalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Bozor xavfi, O'zbekiston iqtisodiyoti, investitsiya muhiti, o'zgaruvchanlik, diversifikatsiya, 2030-yil strategiyasi, fond bozori, xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, kiberxavflar.

Abstract: Market risk is an integral element of the modern economic system, directly impacting the investment climate and financial stability. This article analyzes the relationship between market efficiency and uncertainty and examines key risk management methods using emerging economies, particularly the Republic



of Uzbekistan, as an example. The relevance of this research is determined by the need for national financial institutions to adapt to global instability and implement the country's strategic development goals through 2030. Issues of macroeconomic stability, financial diversification, and the role of digitalization in shaping the new risk landscape are explored.

Keywords: Market risk, economy of Uzbekistan, investment climate, volatility, diversification, Strategy 2030, stock market, risk management, financial stability, cyber risks.

Современная мировая экономика характеризуется беспрецедентным уровнем неопределенности, что подтверждается отчетами Международного валютного фонда (МВФ), которые последовательно фиксируют рост глобальной волатильности, вызванный геополитической напряженностью и реструктуризацией глобальных производственно-сбытовых цепочек в течение 2022-2024 годов. В этом контексте риск, который ранее рассматривался как локальная проблема отдельного предприятия, превратился в системный вызов для национальных экономик. Любая экономическая деятельность, направленная на получение прибыли, неизбежно сопряжена с вероятностью потерь, и успех государства определяется не отсутствием рисков, а эффективностью их выявления, измерения и управления. Для стран, которые проводят глубокие структурные реформы и интегрируются в мировое сообщество, таких как Республика Узбекистан, проблема управления рыночными рисками имеет стратегическое значение. Согласно Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, приоритетными задачами являются обеспечение макроэкономической стабильности, снижение инфляционного давления и улучшение инвестиционного климата, что требует внедрения передовых зарубежных стандартов управления рисками.

Макроэкономические и финансовые риски в контексте интеграции. Основой стабильности рынка является макроэкономическая стабильность. В Узбекистане после либерализации валютного рынка финансовый сектор стал более восприимчивым к внешним шокам, что потребовало решительных действий со стороны Центрального банка (ЦБ). В основных направлениях денежно-кредитной политики на 2024 год и период 2025-2026 годов Центральный банк Республики Узбекистан подтверждает свою приверженность режиму инфляционного таргетирования.

Такой подход, заимствованный из практики развитых стран, направлен на снижение инфляционных и валютных рисков, повышение предсказуемости курса национальной валюты (сум) и, тем самым, стабилизацию инвестиционного планирования бизнеса. Опыт стран Юго-Восточной Азии показывает, что диверсификация экспорта является ключевым элементом снижения зависимости от волатильности.

Узбекистан активно переходит от сырьевой модели (экспорт хлопка и газа) к увеличению экспорта готовой продукции и услуг, что, по мнению экспертов Всемирного банка в отчетах за 2021 год, является правильным способом снижения товарных рисков.



Управление корпоративными и инвестиционными рисками. Фондовый рынок является наиболее чувствительным барометром рыночных рисков, а его развитие - показателем зрелости финансовой системы. В Узбекистане Тошкентская региональная фондовая биржа играет ключевую роль в привлечении капитала. Реализация программ "Народного IPO" и приватизация государственных активов, хотя и оживляют рынок, в то же время интегрируют его в мировую финансовую систему, делая его чувствительным к внешним потрясениям. Для защиты капитала инвесторам нужны инструменты, аналогичные тем, которые используются на развитых рынках. В зарубежной практике производные финансовые инструменты (деривативы) широко используются для хеджирования рисков.

Внедрение данных инструментов в Узбекистане является приоритетной задачей финансового регулятора. Кроме того, важное место занимает стратегический риск, связанный с неправильным выбором направления развития. Исследование KPMG, проведенное в 2022 году, показывает, что стратегические и операционные риски занимают лидирующие позиции среди угроз для корпораций.

Цифровизация как источник новых рисков и инструмент управления. Глобальная цифровизация, которая лежит в основе Стратегии Digital Uzbekistan 2030, является мощным инструментом снижения традиционных операционных рисков (коррупция, бумажная волокита, низкая скорость транзакций). Финтех-решения и системы электронного правительства значительно повышают прозрачность и эффективность экономики.

Однако, как отмечают зарубежные и узбекские авторы в научных статьях, в 2023 году цифровизация порождает новые, чрезвычайно опасные киберриски. Ущерб, причиняемый киберпреступлениями, ежегодно составляет триллионы долларов США. Инфраструктура развивающегося финансового рынка Узбекистана, включая банковский сектор и платежные системы, становится потенциальной мишенью для киберугроз.

Рынок и риск являются неотъемлемыми составляющими современного экономического прогресса. Как показывает анализ, полностью устранить риски невозможно, но эффективное управление превращает потенциальные угрозы в просчитанные возможности. Для Республики Узбекистан устойчивость экономического роста напрямую зависит от способности институтов быстро адаптироваться к глобальной нестабильности.

Ключевыми направлениями остаются: продолжение политики таргетирования инфляции для снижения валютных и ценовых рисков; активное развитие фондового рынка и внедрение инструментов хеджирования.; а также укрепление кибербезопасности в рамках цифровой трансформации. Последовательная реализация реформ, направленных на защиту прав частной собственности и поддержку предпринимательства, в сочетании с изучением и адаптацией лучших международных практик, является основой для минимизации рыночных угроз и обеспечения



стабильного экономического будущего страны в соответствии со стратегическими целями до 2030 года.

Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы. — Ташкент: Узбекистан, 2022.
2. Абдуллаев А. М., Алимов Б. Б. Финансовые риски и управление ими в условиях трансформации экономики Узбекистана. Монография. — Ташкент: Yangi Nashr, 2023.
3. Tukhtabaev S. S., Karimova D. I. Digital Transformation and Risk Management in Uzbekistan's Banking Sector. // Eurasian Economic Review. — Vol. 13, Issue 4, 2023.
4. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 21.02.2023 г. «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030».
5. World Bank. Uzbekistan: Country Economic Memorandum – Priorities for Sustained and Inclusive Growth. — Washington, D.C., 2021.
6. Центральный банк Республики Узбекистан. Основные направления денежно-кредитной политики на 2024 год и период 2025–2026 годов. — Ташкент, 2023.



ЗАМОНАВИЙ МОЛИЯ БОЗОРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ БЎЙИЧА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ

Умрзакова Зарнигора Дилмурот кизи,
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Бизнес
ва тадбиркорлик олий мактаби” Андижон
вилояти ҳудудий филиали бош мутатахассиси
Хакимова Феруза Абдуллажоновна,
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Бизнес
ва тадбиркорлик олий мактаби” Агробизнес
мутахассислиги магистранти
Hurshid-ergashev@rambler.ru

АННОТАЦИЯ: Ҳар қандай мамлакатларнинг ривожланиш жараёнида молия бозорларининг ҳолати ва уларнинг ривожланганлик даражаси муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатда молия бозорларини ривожлантиришда жаҳон тажрибасини ўрганиш ва уларни ҳудудга мос жиҳатларини қўллаш иқтисодий жараёнларнинг самарадорлигини кучайтириб беради. Мазкур мақолада замонавий молия бозорини ривожлантириш тенденциялари бўйича жаҳон тажрибаси ва уни қўллаш имкониятлари ёритилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Молия бозори, корпоратив бошқарув, акциядорлик жамияти, менежмент, молиявий капитал, инвестор, банклар.

Иқтисодиёт соҳасидаги олимлар ва мутахассисларнинг тарихий-тадрижий таҳлил хулосаларига кўра жаҳон иқтисодиётида иқтисодий муносабатлар эволюциясида IXX асрда иқтисодий ривожланишнинг тадбиркорлик бўлган бўлса ва XX асрда – менежмент, XXI асрда эса ушбу муҳим ижтимоий-иқтисодий функция корпоратив бошқарувга ўтади. Бунда бошқарувнинг барча бошқа шаклларига нисбатан юқори рақобатдошликни таъминлайдиган саноат ва молиявий капиталнинг энг муваффақиятли интеграцияси намоён бўлади. Акциядорлик компаниялари даражасида корпоратив бошқарувни амалга оширишнинг назарий асосларига эътибор қаратадиган бўлсак, ҳозирги вақтда жаҳон амалиётида корпоратив бошқарувнинг турли хил таърифлари мавжуд ва уларнинг асосийлари куйидагича изоҳланади:

- тижорат ташкилотлари фаолиятини бошқарувчи ва назорат қилувчи бошқарув тизим;
- компания ўз акциядорлари манфаатларини ҳимоя қиладиган ташкилий модел;
- корпоратив корхона ёки компания фаолиятига раҳбарлик қилувчи бошқарув тизимлари;



- менежерларнинг акциядорлик жамиятлари акциядорлари олдида ҳисобот беришнинг ўзига хос тизими;

- компания, унинг акциядорлари ва бошқа манфаатдор томонларнинг манфаатлари ўртасидаги мувозанатни таъминлайдиган бошқарув шакли;

- давлат, хўжалик юритувчи субъектлар ва умуман жамиятнинг ижтимоий ва иқтисодий мақсадлари ўртасидаги мувозанатни таъминловчи бошқарув шакллари;

- акциядорлик жамиятида ёки бошқарувнинг бошқа шаклларида амалга оширилган инвестицияларнинг даромадлилигини таъминлаш учун инвесторларнинг қўлидаги самарали восита;

- акциядорлик жамиятининг фаолияти самарадорлигини оширишнинг самарали усуллари ва бошқалар²⁰. Таниқли рус олими Константиновнинг фикрича, "корпоратив бошқарув - бу иқтисодий ва ижтимоий мақсадлар, шахсий ва ижтимоий манфаатлар ўртасида мувозанат ўрнатиладиган жараён²¹. Дунёнинг ривожланган мамлакатларидаги корпоратив ҳамжамиятнинг барча иштирокчилари манфаатлари мувозанатини таъминлаш учун менежмент ва бухгалтерия стандартлари, шунингдек, ички ва ташқи аудит стандартлари доимий равишда такомиллаштирилмоқда, бу эса акциядорлик жамиятларининг шаффофлик даражасини оширишга ёрдам беради. Бундан ташқари, корпоратив хатти-ҳаракатларнинг илғор меъёрларини амалга оширишга ва корпоратив ҳамжамиятнинг турли иштирокчиларининг манфаатларини уйғунлаштиришга катта эътибор қаратилмоқда, бу ўз навбатида самарали корпоратив муносабатларни яратадиган акциядорлик корхоналари эгалари, раҳбарлари ва ходимлари ўртасидаги ишонч даражасини оширади.

Замонавий молия бозорини ривожлантириш тенденциялари бўйича жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики бошқарувни ўз вақтида такомиллаштириш инвесторларга акциядорлик жамиятларидаги вазият тўғрисида ишончли маълумотларни тезда олиш имкониятини беради. Бундан ташқари, корпоратив бошқарувнинг самарали шакллариининг жорий этилиши, улар ўзларининг бўш молиявий маблағларини инвестиция қиладиган мамлакатларда давлат уларнинг манфаатларини ҳимоя қилишига, акциядорлик жамиятлари барча акциядорлар манфаатлари олдида жавобгарлик ишончини кучайтиради. Шундай қилиб, жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида асосий корхоналар даражасида самарали корпоратив бошқарув механизмнинг ўз вақтида шакллантирилиши самарали бизнес тизимини яратиш ва қонун устуворлигига асосланган ҳар қандай миллий иқтисодиётнинг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашнинг асосий шартига айланди. Бундай шароитда корпоратив бошқарув муаммолари давлат аҳамиятига эга бўлиб, миллий устуворлик даражасига кўтарилмоқда, бу эса иқтисодиёт тармоқлари ва молия бозорларини тартибга солувчи ташкилотлар,

²⁰ Байшалова З.Б. Принципы корпоративного управления промышленной организацией. Вестник КАСУ №4 – 2007.

²¹ Горев И., Козлов Р., Дубовицкая Е. Система корпоративного управления в холдингах //Журнал для акционеров. – 2003. – № 12.



шунингдек ҳудудий давлат органларининг жиддий эътиборини талаб қилади. Бироқ, миллий иқтисодиётнинг реал сектори даражасида самарали корпоратив бошқарувни шакллантиришда асосий ролни акционерлик жамиятларининг ўзлари, турли тоифадаги маҳаллий ва хорижий сармоядорлар, шунингдек, уларнинг кредит берувчилари, шериклари ва фонд бозорининг профессионал иштирокчилари бўлиб, улар капиталнинг иқтисодиётнинг энг самарали тармоқларига қуйилишини таъминлайдилар. Мамлакатимизда бугунги кунда замонавий молия бозорини ривожлантиришида ўсиб бораётган ролининг асосий шarti - бу корпоратив корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш ва экспорт салоҳиятини ошириш билан боғлиқ бўлган модернизация қилиш учун зарур бўлган инвестиция манбаларининг тақчиллиги билан тавсифланади. Корпоратив бошқарувни жорий этишнинг яна бир муҳим шarti маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш ва ишлаб чиқаришнинг ҳақиқий эгаларининг ўрта қатламини шакллантиришдир. Амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг асосий маъноси бу мулкни реал эгаларига топширилиши, уларга тадбиркорлик учун катта имкониятларни беришдир.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, критик шароитда банкнинг "омон қолиши" бошқаришнинг самарали механизмига асосланади. Бироқ, ҳатто юқори малакали менежмент доимий ва мунтазам равишда ўзгаришни талаб қилади. Замонавий шароитда кўпинча банк бошқаруви воситалари ва механизмларини ўзгартириш керак бўлади, шунинг учун тижорат банклари фаолиятини оптималлаштириш ва хатарларнинг ҳар хил турларини камайтириш мақсадида мутлақо янги воситалар жорий этилмоқда.

Адабиётлар:

1. Байшалова З.Б. Принципы корпоративного управления промышленной организацией. Вестник КАСУ №4 – 2007.
2. Горев И., Козлов Р., Дубовицкая Е. Система корпоративного управления в холдингах //Журнал для акционеров. – 2003. – № 12.
3. Суёнов, Д.Х, Хошимов Э.А. "Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари." *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*” илмий электрон журнали 2 (2018).



MINTAQANING TADBIRKORLIK SALOHİYATI MEZONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Madaminov Damir Abduraxmanovich

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tuman bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu tezisda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishda tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanish mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, tadbirkorlik, salohiyat, tadbirkorlik salohiyati, mezon.

Bugungi kunda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishda tadbirkorlik faolligini oshirish muhim. Mintaqa va uning hududlarida tadbirkorlik bozor mexanizmlarini faollashtirish hamda aholi ish bilan bandligini oshirishda tobora ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa tadbirkorlik sub’ektlarining mavjud imkoniyatlari va rivojlanish zaxiralarini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sohaning imkoniyat va zaxirlari esa umumiy holda uning salohiyatini aks ettiradi. Shu sababli tadbirkorlik salohiyatini baholash mezon va usullarini takomillashtirish, ularni mintaqa iqtisodiyoti xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadbirkorlik salohiyatini ifodalovchi mezonlarni o‘rganish bilan bog‘liq izlanishlarda ushbu tushunchaning resursli, ishlab chiqarish va natijaviy xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan. Shuni alohida ta’kidlaymizki, tadbirkorlik salohiyatini baholash maqsadi mintaqa barqaror rivojlanishi va o‘sishini ta’minlash imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Demak, tadbirkorlik salohiyatini ifodalovchi mezon va ko‘rsatkichlar, ular o‘zgarishlarini baholash usullarini tizimli ravishda ko‘rib o‘tamiz. Jumladan, tadqiqotchilar mintaqa tadbirkorlik salohiyatini baholash uchun uning tarkibiy elementlari uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini taklif qilganlar [1]. Ya’ni, ular fikricha baholashda resurs va bozor turlari bo‘yicha tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda, resursli baholash usulida ishlab chiqarish, infratuzilma va tashkiliy salohiyat, uning mezonlari tahlil etiladi va ular quyidagi mezonlarni o‘z ichiga oladi:

1.1. Tadbirkorning ishlab chiqarish salohiyati texnologiya va asbob-uskunaga ajratilgan.

1.1.1. Texnologiya omilini belgilovchi mezonlari: foydalanilgan texnologiyalarning ishlash muddati; innovatsion texnologiyalar ulushi.

1.1.2. Asbob-uskunalar omili ko‘rsatkichlari: amortizatsiya darajasi;
yuqori samarali uskunalarning ulushi.



1.2. Tadbirkorning infratuzilma salohiyatiga energiya resurslari hamda logistika tizimi kiritilgan.

1.2.1. Energiya resurslari omili ko'rsatkichlari: energiya resurslarining yetarliligi; energiya resurslarining mavjudligi va uzluksizligi.

1.2.2. Logistika omili mezonlari: transport resurslarining yetarliligi; transport resurslarining mavjudligi.

1.3. Tadbirkorlikning tashkiliy salohiyati inson resurslari va menejment tizimidan iborat.

1.3.1. Inson resurslari omili mezonlari: xodimlarning o'rtacha yoshi; pensiya yoshidagi xodimlarning ulushi.

1.3.2. Funktsional boshqaruv tizimi omilining ko'rsatkichlari: zamonaviy funktsional boshqaruv tizimlarini qo'llash darajasi.

Shuningdek, bozorni baholash usulida raqobatbardoshlik, iqtisodiy va innovatsion salohiyat turlari tadqiq qilingan. Jumladan, ular o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab oladi:

2.1. Raqobatbardoshlik salohiyati mahsulot va talab hisobiga shakllanadi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

2.1.1. Mahsulotlar omili mezonlari: mahsulot assortimenti; sifat.

2.1.2. Talab omili ko'rsatkichlari: savdo hajmi; talabning o'zgarish tendensiyalari.

2.2. Iqtisodiy salohiyat natijadorlik va samaradorlik orqali belgilanadi.

2.2.1. Natijadorlik omili mezonlari: daromad; daromadlilik

2.2.2. Samaradorlik omili mezonlari: mahsuldorlik; aktivlarning daromadlilik.

2.3. Innovatsion salohiyat intellektual faollik va innovatsion tizimdan iborat.

2.3.1. Intellektual aktivlar omili quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi: nomoddiy aktivlarning ulushi; yuqori malakali xodimlarning ulushi.

2.3.2. Innovatsion tizim omili mezonlari: ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan band xodimlarning ulushi; innovatsiya xarajatlarining ulushi [2].

Fikrimizcha, yuqoridagi kabi mintaqa tadbirkorlik salohiyati mezonlarini tasniflash amaliyotda foydalanish uchun yirik axborot hamda statistik bazani talab etadi. Bu esa, mintaqa va hududlar darajasida tegishli mezonlarning statistik ko'rsatkichlarini topish katta mehnat talab qilishi, barchasi ham birdek mavjud emasligi bois ushbu usuldan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bilan birga, bir guruh tadqiqotchilar mintaqa iqtisodiy salohiyatini ishlab chiqarishga muvofiq baholashni ilgari surgan bo'lib, ular tadbirkorlik salohiyatining quyidagi mezonlarini tahlil qilishga asosiy e'tiborini qaratganlar:



- moddiy-texnik salohiyat;
- innovatsion-investitsion salohiyat;
- moliyaviy salohiyat;
- mehnat salohiyati;
- infratuzilma salohiyati [3].

Shuningdek, A.O.Larionov tadqiqotlarida ham mintaqaning tadbirkorlik salohiyati mezonlariga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Muallif ularni moddiy-texnik, innovatsion, moliyaviy, mehnat, infratuzilma, investitsiya mezonlariga ajratib o'rganishni ilgari surgan. Shuningdek, uning tadqiqotlariga ko'ra 19 ta ko'rsatkichlarni baholash nazarda tutiladi. Mazkur ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish asosida yuqoridagi 6 ta mezonlar aniqlanadi.

Fikrimizcha, mazkur mezonlarni hisob-kitob qilish asosida mintaqalarning joriy holati baholanadi. Shu bilan birga, ustuvor manbalar, ularning ta'sirini ochib berish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bilan birga, baholangan ijobiy natijalarni kengaytirish hisobiga tadbirkorlik salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish imkoni yaratiladi.

Boshqa bir guruh olimlar izlanishlarida mintaqaning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish ilgari surilgan:

mintaqaning tabiiy resurs salohiyati: foydalanilgan tabiiy resurslar zaxiralarining ulushi; topilgan, lekin foydalanilmagan tabiiy resurslar soni;

mintaqaning intellektual salohiyati: joriy etilgan innovatsiyalar soni; tijoratlashtirilmagan ilmiy ishlanmalar soni; mintaqada ro'yxatdan o'tgan intellektual mulk obektlari soni; tadqiqot va ishlanmalar (ITI) sohasidagi tashkilotlarning mavjudligi va soni; tadqiqot sohasidagi mutaxassislar soni;

mintaqaning innovatsion va investitsion salohiyati: mintaqaning barcha turdagi innovatsiyalarini amalga oshirishdagi ulushi; jalb qilingan investitsiyalar ulushi, mintaqaviy innovatsiya tizimining mavjudligi (venchur fondlari, innovatsion biznesni rivojlantirish tizimlari, innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy dasturlar); innovatsion faol korxonalar soni; innovatsion mahsulotlar ulushi;

mintaqaning axborot texnologiyalari salohiyati: mintaqaviy texnoparklar, texnologiyalarni rivojlantirish markazlari, mintaqaviy axborot portallari, tadbirkorlarning texnologik forumlarda ishtirokini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan mablag'lar;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning mintaqaviy me'yoriy-huquqiy bazasi: tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning mintaqaviy me'yoriy-huquqiy bazasini baholash, uning keng qamrovliligi va dolzarbligi;



mintaqaning tarmoq rivojlanishi istiqbollari: tarmoq rivojlanish dasturlarini qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi, muayyan faoliyat turlari va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar uchun tarmoq va tarmoqlararo bozorlar, hududiy tarmoq klasterlarini rivojlantirish uchun investitsiya hududlarini mavjudligi [5].

Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotda mintaqa tadbirkorlik salohiyatini baholash mezonlari masalaning deyarli barcha jihatlarini qamrab olgan. Shunday bo‘lsada, ushbu mezonlardan foydalanishda mos baholash usullarini ishlab chiqish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, tegishli mezonlar ichida miqdoriy jihatdan baholash imkoniyati cheklangan manbalar ham mavjud. Masalan, “tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning mintaqaviy me‘yoriy-huquqiy bazasi: tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning mintaqaviy me‘yoriy-huquqiy bazasini baholash, uning keng qamrovliligi va dolzarbligi” mezonni miqdoriy baholash imkoniyati cheklangan hisoblanadi. Shu bois, mazkur mezonlarni optimallashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bu o‘rinda, BMT tadqiqotlariga ko‘ra, tadbirkorlik salohiyati indeksi sakkizta mezondan iborat bo‘lib, nisbatan sodda va tushunarli hisoblanadi. Ya‘ni: a) inson kapitali; b) tabiiy kapital; c) energiya; d) transport; e) AKT; f) institutlar; g) xususiy sektor; h) strukturaviy o‘zgarish [6].

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida xulosa qilsak, mintaqada tadbirkorlik salohiyatini baholashda 3 ta mezonga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda, tadbirkorlik salohiyatining resurs salohiyati, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati hamda natijaviy holati tarzida o‘rganamiz.

Birinchi mezon tadbirkorlikning resurs salohiyatini o‘z ichiga olib, uni ham uch qismga tasniflaymiz:

1. Tabiiy-geografik hamda xom ashyo salohiyati.
2. Ishchi kuchi salohiyati.
3. Mehnat salohiyati.

Ikkichni mezonda ya‘ni, ishlab chiqarish salohiyati zamirida tadbirkorlik asosida yaratilgan mahsulotlarning hajmi va qiymatini baholashimiz maqsadga muvofiq. Ularni esa quyidagilar orqali aniqlaymiz:

1. Tadbirkorlik asosida yaratilgan mahsulotlarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi.
2. Tadbirkorlikning eksportdagi ulushi.
3. Tadbirkorlik asosida yaratilgan mahsulotning tarmoqlardagi ulushi.

Uchinchi – natijaviy mezon zamirida samaradorlik salohiyatini baholaymiz. Bunda, tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga oid mezonlarni tadqiq qilamiz.

1. Tadbirkorlikning mehnat samaradorligi.



2. Tadbirkorlikning kapital samaradorligi.

Umumiy holda xulosa qilsak, mazkur mezonlar mintaq va uning hududlarini tadbirkorlik salohiyatini aniqlash, uning ustuvor jihatlarini ochib berish hamda shu asosda tuman va shaharlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беломестнов В. Г., Ябжанова Т. Г. Потенциал развития экономики региона// ВЕСТНИК БУРЯТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. 2015. Вып., 2а. с.75-81.

2. Беломестнов В. Г., Ябжанова Т. Г. Потенциал развития экономики региона// ВЕСТНИК БУРЯТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. 2015. Вып., 2а. с.75-81.

3. Козлова Т.М., Бойко О.Г., Пальцева Г.Н. Оценка промышленного потенциала регионов центрального федерального округа // Вестник Тверского государственного университета. Серия: Экономика и управление. 2018. №3 С. 132–142.

4. Ларионов А.О. Оценка промышленного потенциала региона // ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИИ. №2(76), 2015. С. 45-61.

5. Леонтьева Л.С., Воронов А.С., Доронина И.Э. Управление ресурсами при развитии предпринимательского потенциала региона // Государственное управление. Электронный вестник. Выпуск № 67. Апрель 2018 г. С. 203-222.

6. UNCTAD. Индекс производственного потенциала для проведения обоснованной политики (издание Организации Объединенных Наций, Женева). Женева, 19–30 июня 2023 года.



MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATINI BAHOLASH USULLARI

Madaminov Damir Abduraxmanovich

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tuman bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu tezisda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik salohiyatini baholash usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Mintaqa, tadbirkorlik, tadbirkorlik salohiyati, mezon.

Mintaqa tadbirkorlik salohiyatini baholash tadbirkorning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, boshqaruv qobiliyati, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasi, riskka nisbatan munosabati hamda tashqi iqtisodiy muhitga moslashuvchanligini kompleks tarzda aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tadbirkorlik salohiyatini baholash bilan bog'liq keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazilgan. Shunday bo'lsada, yagona uslubiy yondashuv mavjud emasligi, ishlab chiqilgan metodikalarning ko'p hollarda alohida omillarini qamrab olishi hamda mintaqalarning xususiy jihatlariga moslab ishlab chiqilganligi mazkur masalaning dolzarbligini aks ettiradi. Jumladan, bir guruh mualliflar tadqiqotlarida resurs hamda bozori mezonlariga asoslangan holda baholash tizimi taklif qilingan. Mualliflar fikricha, mintaqa salohiyatini baholash ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich ishlab chiqarish sektori bo'yicha alohida tadbirkorlik subektlarining salohiyatini baholashni o'z ichiga oladi[1]. Baholash miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha ularni o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali, ekspert xulosalaridan foydalangan holda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. O'rganilgan ko'rsatkichlarni mezon va o'rtacha mintaqaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orqali salohiyatning ayrim qismlaridagi tafovutlarni baholash imkoni yaratiladi va bunda quyidagi modeldan foydalanilgan:

$$P_i = (R_n - R_s) / R_s \quad (1)$$

Bunda: P_i - ma'lum bir j -ko'rsatkich uchun salohiyatning ma'lum bir i-qismining bahosi; R_n - tanlangan mintaqa (korxonalar) uchun ko'rsatkichning qiymati; R_s - ko'rsatkichning o'rtacha mamlakatdagi qiymati. O'rtacha mamlakat ko'rsatkichi o'rniga, belgilangan global yoki ekspert usulida aniqlangan mezon ko'rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin.

Fikrimizcha, mazkur usul nisbatan umumlashgan usul bo'lib, uning imkoniyatlari hududlarni baholash uchun nisbatan cheklangandir. Shuning uchun mintaqa tadbirkorlik salohiyatini baholashda integral usuldan foydalanishimiz zarur hisoblanadi. Bunda, mintaqa yoki hududlardagi salohiyatning mezonlari bo'yicha o'rtacha, maksimal va minimal ko'rsatkichlarni aniqlab olishimiz va ularga nisbatan o'zgarishlarni baholashimiz maqsadga muvofiqdir.



Shu bois, umumiy tadbirkorlik salohiyatini baholashda salohiyatning barcha komponentlarini alohida tahlil qilish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq va u quyidagi tenglik orqali aniqlanadi[2]:

$$R_o = \sum P_{ij} \quad (2)$$

Shuningdek, mintaqalarning tadbirkorlik faolligi va salohiyatini baholashda reyting usuli ham keng qo'llaniladi. Jumladan, ushbu usul orqali mintaq va uning hududlaridagi holat monitoring qilinib, ustuvor jihatlarini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Odatda, reyting usuli mintaqaviy masalalarni yechishning qulay yondashuvi hisoblanadi.

Mazkur usullardan hozirgi vaqtda tadbirkorlik faoliyati hamda salohiyatini baholashning bir qator usullari mavjud. Jumladan, xalqaro amaliyotda "Tadbirkorlik global monitoringi" hamda Rossiya davlatida reyting agentligining "Ekspert RA" usullari keng qo'llaniladi[3].

Shu bilan birga, R.Rahmonov tadqiqotlarida mintaq salohiyatini reyting bo'yicha tahlil qilishning metodik yondashuvi taklif qilingan[4]. Unda, mavjud mintaqalar soni va ularning tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha natijalari asosida baholash ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, quyidagi metodik yondashuv taklif qilingan:

$$K_i^m = 14 (n - 1) \quad (3)$$

Bunda: K_i^m - m-mintaqaning i-ko'rsatkich bo'yicha olgan bali;

n - i-ko'rsatkich bo'yicha m-mintaqaning taqqoslaganda egallagan o'rni;

i-ko'rsatkich tartib raqami (soni);

m-mintaqa nomi.

Shuningdek, mintaqaning tegishli salohiyat turi bo'yicha maksimal balini (B_{max}) quyidagi usul orqali aniqlash ilgari surilgan:

$$B_{max} = n * i \quad (4)$$

E.T.Yakubova tadqiqotlarida mintaq sanoat tadbirkorligi salohiyatini oshirish bilan bog'liq izlanishlarida konsentratsiya, ixtisoslashuv, diversifikatsiya koeffitsientlari hamda eksportga yo'naltirilgan faoliyat mezonlarini baholash ilgari surilgan. Jumladan, muallif quyidagi metodik ishlanmalarni ilgari surgan[5]:

$$C_i = V_i / \sum V_i \quad (5)$$

Bunda: C_i - i-chi tumanning mintaq ishlab chiqarishidagi ulushi; V_i - i-chi tuman ishlab chiqarish hajmi, million so'm; $\sum V_i$ - mintaq tumanlarining umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi, million so'm.

$$S_{ij} = (V_i / V) / (v_{ij} / v_i) \quad (6)$$



Bunda: S_{ij} - j -tumandagi i -turdagi faoliyatning ixtisoslashuv indeksi; V_i - mamlakatdagi i -turdagi faoliyat ishlab chiqarish hajmi, million so'm; V - mamlakatdagi tovarlar/xizmatlar ishlab chiqarishning umumiy hajmi, million so'm; v_{ij} - j -tumandagi i -turdagi faoliyat ishlab chiqarish hajmi, million so'm; v_j - j -tumandagi tovarlar/xizmatlar ishlab chiqarishning umumiy hajmi, million so'm.

$$E_i = V_{Ei} / V_i \quad (7)$$

Bunda: E_i - i -mintaqadagi sanoat eksportining ulushi; V_{Ei} - i -mintaqadagi eksport hajmi, million so'm; V_i - i -mintaqadagi ishlab chiqarish hajmi, million so'm.

Yuqoridagi tadqiqot ishi tadbirkorlik salohiyatini hududiy xususiyatlarini baholashda qulay hisoblanadi. Lekin, tadbirkorlik salohiyatining ixtisoslashuv, diversifikatsiya kabi mezonlari o'zgarishini tushuntirish imkoniyati cheklangan. Bu esa, mazkur usullardan faqat tegishli mezonlar holatini tahlil qilishda, ular natijasiga muvofiq hududlar reytingini aniqlashda foydalanishimiz mumkinligini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu ko'rsatkichlarning ijobiy yoki salbiy tendensiyalarini tushuntirish imkonini, sabab va omillarini aniqlashda baholash imkoniyatlari cheklangan.

Shu bilan birga, bir guruh tadqiqotchilar mintaqa tadbirkorlik salohiyatini integral usulda baholashni ilgari surganlar[6]. Ular fikricha, mintaqaning tadbirkorlik salohiyatini baholashda 7 ta mezondan iborat integral ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Shunga muvofiq mualliflar quyidagi ayniyatni ilgari surganlar:

$$Y_i \text{ int} = F(D_i, P_i, G_i, F_i, C_i, S_i, I_i) \quad (8)$$

Bunda: $Y_i \text{ int}$ - i -mintaqada tadbirkorlikning rivojlanish darajasi; D_i - hududning demografik va mehnat salohiyati; P_i - hududning ishlab chiqarish salohiyati; G_i - tabiiy va geografik (resurs) salohiyat; F_i - moliyaviy salohiyat; C_i - iste'mol salohiyati; S_i - ijtimoiy salohiyat; I_i - hududning infratuzilma salohiyati. Mualliflar yuqoridagi tadqiqotlar asosida mintaqa va uning hududlarini tadbirkorlik salohiyatini hamda tadbirkorlik rivojlanish darajasini o'zaro uyg'unlikda tahlil qilganlar. Ularning mavjud koeffitsientlari asosida hududlarning tadbirkorlik salohiyatini turg'un, samarasiz, barqaror, taraqqiy etgan turlarga ajratib, xulosa va takliflar ishlab chiqqanlar.

$$X_{\text{sred}} = (X_{\text{maks}} + X_{\text{min}})/2 \quad (9)$$

$$Y_{\text{sred}} = (Y_{\text{maks}} + Y_{\text{min}})/2 \quad (10)$$

Bunda: X_{sred} – mintaqa tadbirkorlik salohiyatining o'rtacha qiymati; X_{maks} – tadbirkorlik salohiyatining maksimal qiymati; X_{min} – tadbirkorlik salohiyatining minimal qiymati; Y_{sred} – tadbirkorlik rivojlanish darajasining o'rtacha qiymati; Y_{maks} – tadbirkorlik rivojlanish darajasining maksimal qiymati; Y_{min} – tadbirkorlik rivojlanish darajasining minimal qiymati.

Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan tadbirkorlik salohiyatini baholash yondashuvi mintaqa va uning hududlarida tadbirkorlikni



atroflicha tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu yondashuv mintaqa barqaror rivojlanishi bilan uning tadbirkorlik salohiyati mutanosibligini ham tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatli sanaladi. Shunday bo'lsada, ushbu usulda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar yirik hajmda statistik ma'lumotlar talab qilishi uning kamchiligini ifodalaydi. Doim ham tegishli ko'rsatkichlarni barcha mintaq va hududlar uchun topish imkoni mavjud emas. Ayrim ko'rsatkichlarni esa hududlar darajasida statistik ma'lumotlari mavjud emas, hatto ular mintaq va viloyat darajasida ham yuritilmaydi. Shu bois, mintaq tadbirkorlik salohiyatini baholashda yuqoridagi tadqiqotchilarning integral usulidan foydalanishimiz mumkin. Faqat, ularni respublika mintaqalari xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashtiramiz.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib mintaq tadbirkorlik salohiyatini baholashda integral usuldan foydalanishni ilgari suramiz. Jumladan, ularni baholashda hududlarni bir-biri bilan qiyoslash maqsadida, aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshiramiz.

Bunda biz quyidagicha, mualliflik yondashuvini ishlab chiqdik:

$$TS_i^{umum} = TS_i^{res} + TS_i^{ish\ jar} + TS_i^{nat} \quad (11)$$

Bunda: TS_i^{umum} – i-mintaqa (hudud)ning tadbirkorlik salohiyati;

TS_i^{res} – i-mintaqa (hudud) tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati;

$TS_i^{ish\ jar}$ – i-mintaqa (hudud) tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish salohiyati;

TS_i^{nat} – i-mintaqa (hudud) tadbirkorlik faoliyatining natijaviy (samaradorlik) salohiyati.

Mazkur mezonlarni aniqlashda esa, yuqorida sanab o'tgan tegishli ko'rsatkichlarning hududlar bo'yicha darajasini integral usul orqali aniqlaymiz. Ya'ni, quyidagi tenglikdan foydalanishni ilgari suramiz.

$$TS_i^j = \frac{Kreal_i^j}{(Kshart\ max_t^j + Kshart\ min_t^j)/2} \quad (12)$$

Bunda: TS_i^j – i-hududning t davrdagi j-ko'rsatkich bo'yicha salohiyati;

$Kreal_i^j$ – i-hududning t davrdagi j-ko'rsatkichining real qiymati;

$Kshart\ max_t^j$ – t davrdagi j-ko'rsatkichining shartli belgilangan maksimal qiymati;

$Kshart\ min_t^j$ – t davrdagi j-ko'rsatkichining shartli belgilangan minimal qiymati.

Yuqoridagi usul asosida olingan hisob-kitob natijalarimizni har bir mezon bo'yicha o'rta arifmetikasini aniqlab, umumiy mezon bo'yicha salohiyatini aniqlaymiz. Shuningdek, oxirgi tenglikdagi shartli maksimum va minimum



qiymatlarni ekspert usulida aniqlaymiz. Ya'ni, bunda tegishli ko'rsatkich bo'yicha mintaqa hududlaridagi holat, ularning yillar davomidagi o'zgarishlari, xususiyatlari asosida belgilaymiz.

Shuningdek, yuqorida ishlab chiqqan metodik yondashuvimiz asosida mintaqa tadbirkorlik salohiyatining hududlar bo'yicha o'rnini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bilan birga, tadbirkorlikning uch mezonidan qay biri ustuvor ekanligini ochib beramiz. Shunday bo'lsada, mintaqa tadbirkorlik salohiyatini oshirishda ustuvor omilni aniqlash uchun korrelyatsion-regression tahlillarni o'tkazamiz. Bunda biz quyidagi regressiya tenglamasini ishlab chiqdik:

$$TS_i^{umum} = f(TS_i^{res}, TS_i^{ish\ jar}, TS_i^{nat}, e) \quad (13)$$

Umumiy holda xulosa qilsak, yuqorida ishlab chiqqan metodik yondashuvimiz hamda ekonometrik modelimiz asosida mintaqa tadbirkorlik salohiyatini ustuvor omillarini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Olingan natijalarga muvofiq kelgusida tadbirkorlikni kengaytirish, uning salohiyatini oshirish va shu asosda mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish imkoniga ega bo'lamiz.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Цыренов Д. Д. Оценка уровня развития производительных сил в рейтинге субъектов Сибирского федерального округа // Вестник ВСГУТУ. 2014. № 6(51). С. 147–151.
2. Беломестнов В. Г., Ябжанова Т. Г. Потенциал развития экономики региона// ВЕСТНИК БУРЯТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. 2015. Вып., 2а. с.75-81.
3. Беликова С.В. Предпринимательская активность в Ростовской области: оценка и факторы активизации // Интернет-журнал «Науковедение». – 2013. – № 3.
4. Раҳмонов Р.Н. Минтақаларни экспорт салоҳияти бўйича рейтинглаш // Иқтисод ва молия. №7, 2010. 22-30 б.
5. Якубова Э.Т. Повышение промышленного потенциала как драйвера экономического развития регионов Узбекистана / ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2021, 1(137). 23-29 б.
6. Шайхутдинова Г.Ф., Жидкова Э.В. Оценка уровня развития предпринимательского потенциала муниципальных образований Республики Башкортостан // ВЕСТНИК ИРГТУ. №12(95), 2014. С. 386-391.



MINTAQADA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Tog'aynazarov Akbar Ibragim o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Registrator ofisi menejeri

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada yoshlar bandligini ta'minlash masalalari, o'ziga xos xususiyatlari va amalga oshirish yo'llari keltirilgan. Shuningdek, mintaqani iqtisodiy rivojlantirish sharoitida yoshlar bandligini samarali ta'minlash yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения занятости молодежи в регионе, их специфика и способы реализации. Также делаются выводы об эффективном обеспечении занятости молодежи в контексте экономического развития региона.

Abstract. This article presents the issues of ensuring youth employment in the region, its specific features and ways of implementation. Also, conclusions are made on the effective provision of youth employment in the context of the economic development of the region.

Kalit so'zlar. Mintaqa, bandlik, yoshlar, yoshlar bandligi, mehnat bozori, tadbirkorlik, dastur, ish.

Ключевые слова. Регион, занятость, молодежь, занятость молодежи, рынок труда, предпринимательство, программа, работа.

Key words. Region, employment, youth, youth employment, labor market, entrepreneurship, program, work.

Bugungi kunda yoshlar bandligini ta'minlash har qanday mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Yoshlar aholining eng faol, tashabbuskor va innovatsion qatlami sifatida ularning mehnat bozorida munosib o'rin egallashi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va kambag'allikni kamaytirishda qatnashadi. Bu borada mamlakatimizda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko'maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-61-son Farmoni [1] qabul qilindi. Natijada, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ular bandligini ta'minlashga erishiladi. Yoshlar bilan ishlash masalasi davlatning ustuvor siyosati bo'lib hisoblanali. Bu borada yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida doimo ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelgan [2]. Agar yoshlar bandligi muammosi yetarli darajada hal etilmasa, ishsizlik, migratsiya, ijtimoiy tushkunlik va turli salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat faol ish qidirish va o'z sohasi bo'yicha ish topa olmasligi bilan bog'liq. Unga asosan, yosh mutaxassislar uchun bu dolzarb bandlik muammosi universal bo'lib, deyarli barcha mintaqalaridagi mehnat bozorlarida mavjud bo'ladi [3]. Shu bois, mintaqada yoshlar



bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi.

Yoshlar bandligi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Band yoshlar jamiyatda faol ishtirok etadi, oilaviy barqarorlikka erishadi, soliq to'lovchi sifatida budget daromadlarini oshiradi. Bu holatda mintaqaviy darajada yoshlar bandligini oshirish ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish va mahalliy bozorni faollashtirish uchun zarur bo'ladi. Ammo, yoshlar ishsizligiga olib kelayotgan omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- mehnat bozori va ta'lim o'rtasidagi nomutanosiblik. Ko'p hollarda ta'lim muassasalarida olinayotgan bilim va ko'nikmalar mehnat bozori talablariga mos kelmaydi. Bu esa yosh mutaxassislarni ishga joylashishida qiyinchilik tug'diradi.

- ish tajribasining yetishmasligi. Ish beruvchilar ko'pincha tajribali kadrlarni afzal ko'radi. Bu esa yangi bitiruvchilar uchun to'siq bo'ladi.

- mintaqaviy iqtisodiy cheklovlar. Ayrim hududlarda sanoat va xizmatlar sohasining yetarlicha rivojlanmagani ish o'rinlari kamligiga sabab bo'ladi.

- axborot tanqisligi. Yoshlar mavjud bo'sh ish o'rinlari, kasbga qayta tayyorlash dasturlari yoki davlat grantlari haqida to'liq ma'lumotga ega emas.

Shularga asosan, yoshlar bandligini ta'minlashning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ta'lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish. Bu kasbiy va texnik ta'limni rivojlantirish, dual ta'lim tizimini joriy etish hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini yangilashga asoslanadi. Ushbu choralar yoshlarni aniq kasb va amaliyotga tayyor holda mehnat bozoriga olib chiqishga imkon beradi.

- yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash. Bu hollarda yoshlarni o'z biznesini boshlashga rag'batlantirish bandlikni ta'minlashning samarali yo'llaridan biridir. Buning uchun imtiyozli kreditlar, grantlar, biznes-inkubatorlar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi lozim.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Shunga asosan, mintaqada kichik biznes sub'ektlari soni oshgan sari, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sohalarida yoshlar bandligini oshirish imkoniyati katta.

- kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish. Bu borada ishsiz yoshlar uchun qisqa muddatli kurslar, zamonaviy kasblar (IT, dizayn va raqamli marketing) hamda hunarmandchilik va amaliy kasblar bo'yicha o'quv dasturlari tashkil etish zarur.

Shuningdek, mintaqada yoshlar bandligini ta'minlashda davlat va mahalliy hokimiyat organlari ham alohida o'rin egallaydi. Bu holatda davlat tomonidan qabul qilinayotgan yoshlar bandligiga qaratilgan dasturlar subsidiyalar, ish beruvchilarga soliq imtiyozlari hamda jamoat ishlarini tashkil etish orqali yoshlarni vaqtinchalik ish bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Mahalla darajasida esa yoshlarni ro'yxatga olish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda manzilli ishga joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Ulardan tashqari, raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Ularni tarkibiga masofaviy ish, frilans, onlayn xizmatlar va elektron tijorat kabilar kiradi. Natijada, mintaqada internet infratuzilmasini rivojlantirish orqali yoshlarni mehnat bozoriga chiqarish mumkin.



Fikrimizcha, mintaqada yoshlar bandligini ta'minlash ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Bu borada eng avvalo ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish ustuvor vazifa bo'lib, yoshlarni zamonaviy kasblar va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash zarur. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali ularning o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim ustuvorlik esa mintaqada kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishga asoslanadi. Bunda mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ish beruvchilarni yosh kadrlarni ishga qabul qilishga rag'batlantirish zarurdir. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy ish, frilans va IT sohasida bandlikni kengaytirish yoshlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa shuki, yoshlar bandligini ta'minlashda davlat, mahalliy hokimiyat va xususiy sektorning hamkorligi ustuvor ahamiyatga ega. Bu kelajakda barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. Hamda mintaqada yoshlar bandligini ta'minlash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Ta'lim tizimini isloh qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish va raqamli imkoniyatlardan foydalanish orqali yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshirish mumkin. Yoshlar bandligi ta'minlangan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va kelajakka ishonch mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-61-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/6442039>

2. Imomova N.A., Toxirova D.A. O'zbekistonda yoshlarni bandligini ta'minlash masalalari. // "Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari", Volume2, Special issue23, April 2022. - 741-742 b.

3. Ярашева А.В. Региональные аспекты трудовой занятости молодежи. // Научный вестник ЮИМ, №4, 2018. - 46 б.



MINTAQADA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH ORQALI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH MASALALARI

Tog'aynazarov Akbar Ibragim o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Registrar ofisi menejeri

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada yoshlar bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, mintaqa sharoitida yoshlar bandligini ta'minlash orqali iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения экономического потенциала за счет трудоустройства молодежи в регионе. Также представлены выводы о повышении экономического потенциала за счет трудоустройства молодежи в региональном контексте.

Abstract. This article describes the issues of increasing economic potential through youth employment in the region. It also presents conclusions on increasing economic potential through youth employment in the regional context.

Kalit so'zlar. Mintaqa, bandlik, yoshlar, yoshlar bandligi, salohiyat, iqtisodiy salohiyat.

Ключевые слова. Регион, занятость, молодежь, занятость молодежи, потенциал, экономический потенциал.

Key words. Region, employment, youth, youth employment, potential, economic potential.

professional communication - such as examining a patient, taking a medical history in English, discussing various issues related to the provision of appropriate medical care. In order to form an effective system of training, retraining and advanced training of medical and pharmaceutical personnel, as well as the development of medical science, it is planned to increase the percentage of educational programs for higher, secondary medical education, as well as for the training of pharmaceutical workers. It also points to the need to optimize the timing of training highly qualified medical personnel in the magistracy and in clinical residency (residency), based on the complexity of mastering a clinical specialty for a period of 1 to 5 years according to international standards. The new 21st century requires a specialist who must possess not only professional knowledge and skills, but also have the ability and readiness for intercultural dialogue. In the era of globalization, intercultural dialogue makes new demands on a professional in mastering professional intercultural competencies. The problem of the formation of intercultural competence, considered throughout the world as relevant, consists in the preparation of an employee who is ready to “act as a participant in professionally significant situations of intercultural interaction” [2]. With the opening of borders between states, the mobility of people increases, their motivation to learn foreign languages, the desire to establish and develop contacts with foreign countries. In this regard, one of the emerging trends in the world educational paradigm is the promotion of communicative educational disciplines, including foreign languages, as a priority. A medical student, in accordance with the program requirements, must be ready to use a foreign language in his future professional activity. Under these conditions, the goal of learning English is to master students' general ideas about linguistic phenomena in English, to increase the initial level of foreign language proficiency in order to solve social and communicative problems in the field of professional and scientific activities. It also prepares students situations in their professional communication - such as examining a patient, taking a medical history in English, discussing various issues related to the provision of appropriate medical care. Supreme task is to prepare the future specialist for active creative activity in the constantly developing world of scientific medical research [3].

In the process of teaching, developing effective ESP courses, educational and methodological complexes, traditional and electronic teaching aids, first of all, it is necessary to take into account situations of real professional communication with patients and colleagues using the "industry lexicon" containing medical terms, professionalism and jargon. The task of mastering various areas of application of professional English by students - future doctors should be solved in accordance with the general modern requirements and the requirements of the State Standard.

The results and discussion. State educational standards for the training of various specialists in various fields suggest that a graduate of a higher medical educational institution must:

- be familiar with the basic teachings in the field of the humanities and socio-economic sciences, be able to scientifically analyze socially significant problems



and processes, be able to use the methods of these sciences in various types of professional and social activities;

- be able to conduct professional medical activities in a foreign language environment;
- have scientific knowledge about a healthy lifestyle; possess the skills and abilities of physical self-improvement;
- be able to organize their work on a scientific basis, master computer methods for collecting, storing and processing information used in the field of their professional activity;
- to understand the essence and social significance of one's future profession, the main problems of the disciplines that determine the specific area of one's activity, to see their interconnection in an integral system of knowledge;
- be able to build and use models in the professional field based on a systematic approach to describe and program various phenomena, to carry out their qualitative and quantitative analysis;
- be methodically and psychologically prepared to change the type and nature of their professional activities, work on interdisciplinary projects.

Conclusion

Teaching English for Specific Purposes (ESP) in higher education is a complex and dynamic process that must respond to the academic, professional, and personal needs of learners. In the context of globalization and increasing professional mobility, ESP has become an essential component of university education, requiring more than traditional language instruction. It demands pedagogical approaches that integrate linguistic competence with professional communication skills and learner autonomy. A medical university graduate must have the following general cultural competencies: the ability to communicate in oral and written forms in native and foreign languages to solve the problems of interpersonal and intercultural interaction, the ability to work in a team, the ability to self-organize and self-educate, readiness for professional activities in accordance with regulatory and legal acts of the sphere of education, the ability to use modern methods and technologies of training and diagnostics. The graduate must also be capable of professional self-education, speak a foreign language and apply modern technologies in their future profession.

References

1. The concept of development of the health care system of the Republic of Uzbekistan for 2019-2025 (Appendix N 1 to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 07.12.2018 N UP-5590)
2. Kostikova L. P. Formation of intercultural competence of future historians by means of a foreign language // Modernization of modern vocational



- education in the conditions of bachelor's and master's programs: materials of the Intern. scientific-practical. Conf., October 24–25, 2013 / Ryaz. state University named after S. A. Yesenin; resp. ed. N. V. Martishina. - Ryazan, 2014. - pp. 271-274.
3. Chernetsova O. V. Formation of the teacher's intercultural competence in the conditions of the modern English system of higher pedagogical education (master's degree) [Text] // Theory and practice of education in the modern world: materials of the V Intern. scientific conf. (St. Petersburg, July 2014). - St. Petersburg: Satis, 2014. - pp. 269-271.
 4. Lutfullaeva, Kh.A. (2020), “Self-education as an important component in the professional study of the English language at a medical university”, Foreign languages in Uzbekistan, No. 2 (31), pp. 205–215.
 5. Markovina I.Yu. Foreign language in a medical university: needs and prospects // Medical education and university science. 2013. No. 1 (3). P. 53.



ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI YO‘LLARI VA METODIK YONDASHUVLAR

Raxmataliyev Sherzod

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarini samarali tashkil etishning zamonaviy yo‘llari va metodik yondashuvlari yoritilgan. Unda ona tili ta‘limining nazariy-metodik asoslari, o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘qitish tamoyillari, kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati hamda matn asosida o‘qitishning ustun jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va savodxonligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqolada ona tili darslari samaradorligini ta‘minlovchi omillar hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan bo‘lib, ular o‘qituvchilarning metodik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta‘limi, dars samaradorligi, metodik yondashuv, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, matn asosida o‘qitish, nutqiy faoliyat, axborot texnologiyalari, pedagogik mahorat.

Abstract. This article examines modern and effective ways of organizing mother tongue lessons and methodological approaches in the educational process. It analyzes the theoretical and methodological foundations of mother tongue teaching, principles of learner-centered instruction, the essence of the competency-based approach, and the advantages of text-based teaching. Special attention is given to the use of interactive methods and information and communication technologies in the classroom, which contribute to the development of students' communicative competence, independent thinking, and literacy skills. The article also identifies key factors influencing the effectiveness of mother tongue lessons and offers practical recommendations aimed at improving teachers' methodological practice.

Keywords: mother tongue education, lesson effectiveness, methodological approach, interactive methods, competency-based approach, text-based teaching, communicative skills, information technologies, pedagogical mastery.

Bugungi ta‘lim jarayonida ona tili fanining o‘rni alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish, savodxonligini oshirish va tilni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish-o‘qituvchi zimmasidagi eng muhim vazifalardir. Ona tili o‘qitish metodikasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyiyotgani tufayli darslarni tashkil etishda yangicha yondashuvlar talab etiladi. Mazkur maqolada ona tili darslarini samarador tashkil etish bo‘yicha ilmiy-nazariy mulohazalar hamda metodik tavsiyalar bayon etilgan.



Ona tili ta'limi faqat grammatik qoidalarni o'rgatishdan iborat emas; u o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga va muloqot madaniyatiga o'rgatadi. Metodikaning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchi faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish;
- nutqiy faoliyat turlarini uyg'un o'rgatish;
- mavzuni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash;
- amaliy mashqlarni ko'paytirish;
- tahlil, solishtirish va umumlashtirish jarayonlariga e'tibor qaratish.

Til o'rgatish jarayonida psixologik yondashuv, lingvistik tushunchalarni izchil berish hamda yoshga mos metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Samarali o'qitish metodlari

1 Faollikka asoslangan metodlar

Zamonaviy ta'limda interfaol usullar o'quvchilarni darsga jalb qiladi va mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan: "Tahliliy savollar" "G'oya xaritasi" "Juftlikda ishlash" "Qiyosiy tahlil" "Rolga kirish orqali o'rganish".

Bu metodlar o'quvchini fikrlashga, o'z fikrini asoslab berishga o'rgatadi.

3. Kompetensiyaviy yondashuv

4. asosiy talabi - o'quvchida bilimni amalda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish. Ona tili fanida quyidagi kompetensiyalar rivojlantiriladi: tilni to'g'ri qo'llash; matn bilan ishlay olish; kommunikativ malaka; o'z fikrini mantiqan bayon etish. Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchini faqat bilim egasi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi.

3. Matn asosida o'qitishning ustunligi

Hozirgi xalqaro baholash tizimlarida (PISA, PIRLS va boshqalar) matn ustida ishlash alohida e'tiborga ega. Shuning uchun ona tili darslarida: matn mazmunini anglash, g'oyaviy yo'nalishni topish, qahramonlar xarakterini baholash, matndan xulosa chiqarish, mazmuniy savollarga javob berish kabi topshiriqlarni takror va takror qo'llash tavsiya etiladi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

AKT vositalari darsning sifatini oshiradi va o'quvchilarda motivatsiya uyg'otadi. Multimedia, elektron darsliklar, onlayn platformalar, test dasturlari orqali mashqlar berish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ona tili darslarining samaradorligini ta'minlovchi omillar

Dars natijasi avvalo o'qituvchining metodik yondashuviga bog'liq. Quyidagi jihatlar yuqori natija beradi:

- Dars jarayonini oldindan puxta rejalash.
- O'quvchilar yoshiga mos misol va topshiriqlar tanlash.
- Nutqiy mashqlarni muntazam o'tkazish.
- Darsning har bir bosqichida o'quvchilarning faolligini ta'minlash.
- Xatolar ustida tahliliy ishlash.

Shu bilan birga, mavzuni hayotiy holatlar bilan bog'lash o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Amaliy tavsiyalar

1. Har bir darsni kichik muammo savoli bilan boshlash.



2. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, hamkorlikda ishlashga o'rgatish.
3. Matn asosida yaratilgan topshiriqlar ulushi 50% dan kam bo'lmasligi.
4. Yozma mashqlarni muntazam baholab borish.
5. O'quvchilar yaratgan matnlarni sinfda muhokama qilish.
6. Har bir mavzuga mos interfaol metodni qo'llash.

Xulosa. Ona tili o'qitish metodikasi uzluksiz rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Yangi texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar, matn asosida ishlash usullari va kompetensiyaga tayangan ta'lim - darsning asosiy samaradorlik omilidir. O'qituvchidan pedagogik mahorat, ijodkorlik va yangilikka ochiqlik talab etiladi. Ana shundagina ona tili faniga bo'lgan qiziqish ortadi, o'quvchilarda nutqiy malaka kuchayadi va savodxonlik darajasi yuksaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov A., Asqarova M. "Ona tili o'qitish metodikasi". -Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Mamatov A., Xoshimov K. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat". -Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Rasulov R., Qodirov M. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy metodlar". -Toshkent: Tafakkur, 2020.
4. Yo'ldosheva D., Teshaboyeva M. "Ona tili fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar". -Toshkent: Zamin nashriyoti, 2021.
5. Xoliqulova D. "Matn ustida ishlash metodikasi". -Toshkent: O'qituvchi, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti (DTS). -Toshkent: 2020.
7. PISA International Framework. "Reading Literacy Assessment Guidelines". - OECD, 2018.
8. Xoshimov K., Nurmonova M. "Nutq o'stirish metodikasi". -Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING REFLEKTIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Salixova Muhayyo Shakirovna
muhayyoshakirovna@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti "Axborot ta'lim texnologiyalar"
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning reflektiv faoliyatini rivojlantirish masalalari pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda refleksiya tushunchasining ta'lim jarayonidagi o'rni, raqamli refleksiyaning mazmuni hamda uni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy raqamli platformalar, elektron portfoliolar va interaktiv xizmatlarning talabalarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, baholash va ongli boshqarishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli reflektiv faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan didaktik shart-sharoitlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv hamda o'qituvchining yo'naltiruvchi roli ochib berilgan. Tezis materiallari oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim jarayonini takomillashtirish va talabalarning mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, refleksiya, raqamli refleksiya, reflektiv faoliyat, oliy ta'lim, talabalarning o'quv faoliyati, reflektiv kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar, pedagogik shart-sharoitlar.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning faol joriy etilishi o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda talaba faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki o'z ta'lim faoliyatini tahlil qila oladigan, natijalarini baholaydigan va kelgusidagi rivojlanish yo'nalishini mustaqil belgilay oladigan subyekt sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, refleksiya ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti sharoitida refleksiya an'anaviy shakllardan farqli ravishda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Talaba o'z fikrlari va tajribasini raqamli vositalar orqali qayd etadi, tahlil qiladi va baholaydi. Mazkur tezisdagi raqamli ta'lim muhiti reflektiv faoliyatni rivojlantirish masalalari pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.

Refleksiya tushunchasining pedagogik mazmuni shaxsning o'z faoliyatiga ongli ravishda murojaat qilishi, uni tahlil qilishi va baholashi jarayoni sifatida izohlanadi. V.V. Davydov refleksiyani fikrlash jarayonining muhim tarkibiy qismi, ya'ni shaxsning o'z bilish faoliyatini anglash mexanizmi sifatida ta'riflaydi [3]. Ta'lim jarayonida refleksiya talabaning qanday o'rganayotganini tushunishiga, xatolarini ko'rishiga va o'z faoliyatini takomillashtirishiga yordam beradi.



Raqamli ta'lim sharoitida refleksiya raqamli refleksiya shaklida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda talaba elektron platformalar, onlayn kundaliklar, portfoliolar va boshqa raqamli vositalar orqali o'z o'quv tajribasini qayd etadi va tahlil qiladi. E.S. Polat ta'kidlaganidek, raqamli ta'lim muhiti o'quv faoliyati natijalarini ochiq va ko'rinadigan holga keltiradi, bu esa reflektiv tahlilni osonlashtiradi.

Raqamli ta'lim muhitining reflektiv imkoniyatlari zamonaviy raqamli platformalar reflektiv faoliyatni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi. Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams kabi tizimlar orqali talaba o'z topshiriqlarini, baholarini va o'qituvchi fikr-mulohazalarini muntazam kuzatib borishi mumkin. Bu esa o'quv jarayonini tushunarli va boshqariladigan qiladi. Elektron portfolio raqamli refleksiyaning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. O.A. Kraevskiy tadqiqotlarida portfoliodan foydalanish talabalarda o'z faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishini ko'rsatadi [1]. Portfolio orqali talaba o'z yutuqlari va muammolarini solishtiradi, rivojlanish dinamikasini anglaydi.

Bundan tashqari, elektron kundaliklar, bloglar va forumlar refleksiyaning shaxsiy va ijtimoiy jihatlarini birlashtiradi. Talaba nafaqat o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydi, balki boshqalarning tajribasi bilan solishtirish imkoniga ham ega bo'ladi. Bu holat reflektiv fikrlashni chuqurlashtiradi.

Raqamli reflektiv faoliyatni rivojlantirish shartlari talabalarda raqamli reflektiv faoliyatni rivojlantirish maqsadli pedagogik ishni talab etadi. Eng avvalo, ta'lim jarayoni ochiq va interaktiv raqamli muhitda tashkil etilishi zarur. V.A. Slastenin fikriga ko'ra, shunday muhit talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish va tahlil qilish ehtiyojini shakllantiradi.

Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. E.V. Bondarevskaya ta'kidlaganidek, refleksiya talaba uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgandagina samarali bo'ladi [6]. Raqamli texnologiyalar esa individual o'rganish yo'nalishlarini yaratish orqali bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. Muntazam va mazmunli qayta aloqa ham reflektiv faoliyatni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. A.A. Verbitskiy o'z ishlarida o'z vaqtida berilgan fikr-mulohaza talabaning ichki reflektiv faolligini kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Raqamli reflektiv faoliyatni rivojlantirishda o'qituvchi muhim yo'naltiruvchi rolni bajaradi. M.V. Klarinning fikricha, ta'lim jarayonining dialogik xarakteri reflektiv fikrlashni shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir [2]. O'qituvchi savollar, muammoli vaziyatlar va tahlilga undovchi topshiriqlar orqali talabaning reflektiv faolligini rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitida reflektiv faoliyatni rivojlantirish oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Raqamli platformalar va vositalar talabalarga o'z o'quv tajribasini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonning samaradorligi esa pedagogik shart-sharoitlar va o'qituvchining ongli metodik yondashuviga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kraevskiy V.V. Metodologiya pedagogicheskogo issledovaniya. Samara, 1994.



2. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya v sovremennoy pedagogike. Pedagogika, 1994, №5.
3. Davydov V.V. Teoriya razvivayushchego obucheniya. Moskva, 1996.
4. Serikov V.V. Obrazovanie i lichnost. Moskva: Logos, 2010.
5. Stepanov S.Yu. Refleksiya: teoriya i praktika. Moskva: Academia, 2017.
6. Bondarevskaya E.V. Pedagogika: lichnostno-orientirovannyy podkhod. Rostov-na-Donu, 2000.



TARBIYA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA GLOBAL VA MILLIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Najmiddinova Madina Abduraxim qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiya darslarida Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali o'quvchilarda global va milliy dunyoqarashni shakllantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini dars jarayoniga integratsiyalash, muammoli vaziyatlar va xalqaro baholash mezonlari asosida o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda Sharq allomalari merosining samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tarbiya darsi, Sharq allomalari merosi, global dunyoqarash, milliy dunyoqarash, xalqaro baholash mezonlari, metodika.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ГЛОБАЛЬНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются методические основы формирования у учащихся глобального и национального мировоззрения посредством использования наследия восточных ученых на уроках воспитания. В данной статье анализируются методические основы формирования у учащихся глобального и национального мировоззрения посредством использования наследия восточных ученых на уроках воспитания. В данной статье анализируются методические основы формирования у учащихся глобального и национального мировоззрения посредством использования наследия восточных ученых на уроках воспитания.

Ключевые слова: урок воспитания, наследие восточных ученых, глобальное мировоззрение, национальное мировоззрение, международные критерии оценки, методология.

METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF A GLOBAL AND NATIONAL WORLDVIEW IN STUDENTS THROUGH THE USE OF THE HERITAGE OF ORIENTAL ALLOMAS IN EDUCATIONAL CLASSES

Annotation. This article analyzes the methodological foundations of the formation of a global and national worldview in students through the use of the heritage of Eastern allomas in educational classes. This article analyzes the methodological foundations of the formation of a global and national worldview in students through the use of the heritage of Eastern allomas in educational classes. The article examines the methodological foundations of the formation of a global and national worldview in students through the use of the heritage of Eastern allomas in educational classes.



of the formation of a global and national worldview in students through the use of the heritages.

Key words: upbringing lesson, heritage of eastern allomas, global worldview, national Worldview, International Assessment Criteria, methodology.

Bugungi kunda global va milliy dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Dunyoqarash — bu shaxsning atrof-muhit va jamiyat hodisalariga nisbatan bilim, qarash va qadriyatlar majmuasi bo'lib, o'quvchining ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omildir.

Sharq allomalari ilmiy-ma'naviy merosi esa o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, adolat, hurmat, sabr-toqat va halollik kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya darslarida mazkur merosdan foydalanish o'quvchilarda milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga global madaniy qarashlarni rivojlantirishga ham imkon beradi.

1. Dars mazmuniga integratsiya. Tarbiya darslarida Sharq allomalari merosini qo'llashning birinchi va eng muhim yo'li – bu ularning asarlari va hayotiy tajribasini dars mazmuniga tizimli ravishda kiritishdir. Allomalarning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qarashlari darsning mavzulariga moslab tanlanadi va o'quvchilarga taqdim etiladi. Masalan, hazrat Alisher Navoiy asarlarida yuksak axloqiy qadriyatlar, odob-axloq va insoniylik tamoyillari bayon qilingan bo'lsa, Al-Farobiy va Imom Buxoriy asarlarida esa ilm-fan, ma'naviyat va jamiyatdagi mas'uliyat masalalari o'rganiladi. Dars jarayonida allomalarning hayotiy tajribalari bilan bog'langan misollar o'quvchilarda nafaqat ma'lumotlarni yodlash, balki ularni amaliy hayotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tarzda, o'quvchilar o'z milliy madaniy merosini anglab, uni hayotiy qarashlari bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Muammoli vaziyatlar yaratish. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarda tanqidiy va reflektiv fikrlashni rivojlantirish mumkin. Tarbiya darslarida o'quvchilarga hayotiy va axloqiy muammolarni tahlil qilish, ularning yechimlarini topish va baholash vazifalari beriladi. Masalan, o'quvchilarga “Do'stlik va halollik vaziyati” yoki “Adolatli qaror qabul qilish” kabi vaziyatlar taqdim etilib, ular Allomalarning qarashlari asosida yechim topishga chaqiriladi. Bu yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni analiz qilish va turli yechimlarni solishtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'z qarashlarini asoslash va jamoa muhokamasida ishtirok etish orqali ijtimoiy kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi.

3. Xalqaro baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish. Tarbiya darslarida Sharq allomalari merosidan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun xalqaro baholash mezonlarini (PISA, ICCS, PIRLS) hisobga olish muhimdir. Ushbu mezonlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish va jamiyat bilan bog'liq masalalarni hal qilish kompetensiyalarini baholashga imkon beradi. Misol uchun, o'quvchilarga Allomalarning qadriyatlar tizimi asosida berilgan vazifalarni yechish jarayonida, ularning fikrlarini mantiqan asoslash va turli nuqtai nazarlarni solishtirish ko'nikmalari baholanadi. Shu tarzda, xalqaro baholash tizimlari yordamida pedagoglar o'quvchilarning dunyoqarash darajasini aniq



aniqlay oladi va dars jarayonini individual va jamoaviy rivojlanish uchun optimallashtiradi.

4. Refleksiv faoliyatni tashkil etish. Dars oxirida o'quvchilarda refleksiv faoliyatni rag'batlantirish muhim metodik qadam hisoblanadi. Refleksiv faoliyat orqali o'quvchilar Allomalarning merosini hayotiy vaziyatlarga tatbiq etadi, o'z qarashlarini bayon qiladi va baholaydi. Masalan, dars yakunida o'quvchilardan "Bugun darsda o'rganilgan qadriyatlarni kundalik hayotimda qanday qo'llashim mumkin?" degan savolga javob berishlari talab qilinadi. Refleksiv mashqlar o'quvchilarda o'z fikrini mantiqan asoslash, o'z xulq-atvori va qadriyatlarini baholash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ular o'z dunyoqarashini milliy va global nuqtai nazar bilan bog'lashni o'rganadi.

1-jadval

Tarbiya darslarida Sharq allomalari merosidan foydalanishning metodik asoslari va kutiladigan pedagogik natijalar

№	Metodik asoslar	Amalga oshirish usullari / vositalar	Kutiladigan pedagogik natija
1	Dars mazmuniga integratsiya	Allomalarning asarlari va hayotiy tajribalarini dars mavzulariga moslab kiritish (Navoiy, Al-Farobiy, Imom Buxoriy)	O'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, madaniy merosni qadrlash va uni hayotiy qarashlar bilan bog'lash
2	Muammoli vaziyatlar yaratish	Hayotiy va axloqiy muammolarni tahlil qilish, Allomalarning qarashlarini qo'llash orqali yechim topish	Tanqidiy va refleksiv fikrlash, muammolarni analiz qilish va yechim ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanadi
3	Xalqaro baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish	PISA, ICCS, PIRLS kabi xalqaro kompetensiyalar asosida vazifalarni baholash	O'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash malakalari aniqlanadi, dunyoqarash darajasi oshadi
4	Refleksiv faoliyatni tashkil etish	Dars yakunida o'quvchilardan qadriyatlarni hayotiy vaziyatga tatbiq etish, o'z fikrlarini bayon qilish talab qilinadi	O'z fikrini mantiqan asoslash, o'z xulq-atvori va qadriyatlarini baholash ko'nikmalari shakllanadi
5	Muammoli topshiriqlarni interfaol metodlar bilan boyitish	Guruh muhokamasi, loyiha ishlari, interaktiv testlar, multimedia vositalari	Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi, darsga bo'lgan qiziqish oshadi



6	Milliy va global dunyoqarashni uyg'unlashtirish	Tarbiyaviy vaziyatlar, allomalarning qadriyat tizimi, xalqaro kompetensiya mezonlari	O'quvchilar o'z milliy qadriyatlarini anglab, global nuqtai nazardan voqelikni baholashga o'rganadi
---	---	--	---

Tarbiya darslarida allomalarning merosi asosida dunyoqarashni shakllantirishda quyidagi natijalarga erishiladi:

- milliy dunyoqarash: O'quvchilar o'z milliy qadriyatlarini, tarixiy va madaniy merosini tanib, hurmat qilishga o'rgatiladi;
- global dunyoqarash: O'quvchilar boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan tanishib, dunyoqarashining kengayishi, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarining oshishi kuzatiladi;
- axloqiy va madaniy kompetensiyalar: Halollik, adolat, sabr-toqat, hurmat va hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi;
- tanqidiy va reflektiv fikrlash: Muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar fikrlarni tahlil qilish va asoslab bayon etish malakasini rivojlantiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tarbiya darslarida Sharq allomalari merosidan foydalanish orqali o'quvchilarda global va milliy dunyoqarashni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali bo'lib, o'quvchilarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlar, xalqaro baholash mezonlari va reflektiv faoliyatni uyg'unlashtirish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini va ijtimoiy-madaniy bilimlarini yanada boyitadi. Shu sababli, mazkur yondashuv pedagogik amaliyotning ustuvor metodik yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonov A.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularni o'quv jarayonida qo'llash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. 45-52-betlar.
2. Askarov B.B. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent: O'qituvchi, 2020. 88-94-betlar.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2022. 101-109-betlar.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol ta'lim metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. 56-63-betlar.
5. Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2019. 112-120-betlar.



O‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Abdullayev Zafarbek G‘aybullayevich
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek milliy qadriyatlarini ta’lim jarayonida o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Interaktiv yondashuv orqali talabalarda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, “Aqliy hujum”, “Bahsmunozara”, “Klaster”, “Rol o‘ynash” kabi metodlarning samaradorligi misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, interaktiv metod, ma’naviy tarbiya, ta’lim samaradorligi, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКИМ НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ

Аннотация. В данной статье будут освещены теоретические и практические основы использования интерактивных методов обучения узбекским национальным ценностям в образовательном процессе. Посредством интерактивного подхода анализируются возможности развития у учащихся национальной идентичности, формирования духовно-нравственных качеств, навыков самостоятельного мышления. Также эффективность таких методов, как “мозговой штурм”, “дебаты”, “кластер”, “ролевая игра” раскрывается на примерах.

Ключевые слова: национальная ценность, интерактивный метод, духовное воспитание, образовательная эффективность, инновационный подход, педагогическая технология.

USE OF INTERACTIVE TECHNIQUES IN TEACHING UZBEK NATIONAL VALUES

Annotation. This article will cover the theoretical and practical foundations of the use of interactive methods in teaching Uzbek national values in the educational process. Through an interactive approach, students will analyze the possibilities of understanding the national self, the formation of spiritual and moral qualities, and the development of independent thinking skills. Also, the effectiveness of methods such as “mental attack”, “controversy”, “cluster”, “role-playing” is revealed on the basis of examples.



Key words: national value, interactive method, spiritual education, educational effectiveness, innovative approach, pedagogical technology.

Kirish. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, urf-odat va an‘analari yoshlar ma‘naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Xususan, Alisher Navoiy, Amir Temur, Ahmad Yassaviy kabi buyuk ajdodlarimiz merosi milliy qadriyatlarning yorqin namunasi sifatida ta‘lim jarayonida keng o‘rganiladi.

Milliy qadriyatlarni o‘qitishda an‘anaviy metodlar bilan bir qatorda interaktiv metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, talabalarning faolligini kuchaytiradi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, avlodlardan avlodga o‘tib kelayotgan ma‘naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy boyliklar majmuasidir. Ular jamiyatning ichki ma‘naviy poydevorini tashkil etib, shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va hayotiy pozitsiyasini belgilab beradi. Milliy qadriyatlar har bir xalqning o‘ziga xosligini, tarixiy xotirasini va madaniy mustaqilligini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari asrlar davomida shakllanib, boy tarixiy tajriba va ma‘naviy meros asosida takomillashib kelgan. Bu qadriyatlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Milliy an‘ana va urf-odatlar. Navro‘z bayrami, to‘y marosimlari, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi an‘analar xalqimizning ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Masalan, Navro‘z nafaqat fasllar almashinuvi bayrami, balki yangilanish, ezgulik va mehr-oqibat timsoli sifatida qadrlanadi. Urf-odatlar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Oila va mahalla qadriyatlari. Oila — jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida milliy tarbiyaning birlamchi muhitidir. O‘zaro hurmat, sadoqat, mehr-oqibat, mas‘uliyat kabi fazilatlar oilada shakllanadi. Mahalla esa ijtimoiy hamjihatlik, qo‘shnichilik va hamkorlik tamoyillarini mustahkamlaydi. Oila va mahalla tizimi yoshlarning ijtimoiylashuvi, fuqarolik ongining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari. Yurtga sadoqat, millat ravnaqi uchun xizmat qilish, tinchlik va totuvlikni qadrlash milliy qadriyatlarimizning asosiy mazmunini tashkil etadi. Tarixiy shaxslar faoliyati va merosi bu borada ibrat maktabi vazifasini bajaradi. Xususan, Amir Temurning davlat boshqaruvidagi adolat tamoyillari yoki Alisher Navoiyning insonparvarlik g‘oyalari yoshlar tarbiyasida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ajdodlar merosi va tarixiy xotira. Milliy o‘zlikni anglash ajdodlar qoldirgan ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosni chuqur o‘rganish orqali shakllanadi. Tarixiy xotira xalqning o‘zligini saqlash, mustaqil tafakkurni rivojlantirish va kelajak avlodni ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim omildir.




Milliy qadriyatlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta‘lim jarayonida har bir o‘quvchining individual qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi milliy qadriyatlarni shunchaki nazariy bilim sifatida emas, balki shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog‘liq holda anglaydi.

Kompetensiyaviy ta‘lim tamoyillari esa o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki uni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga qaratilgan. Masalan, milliy qadriyatlar asosida kommunikativ, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Shuningdek, interaktiv metodlar - bahs-munozara, rol o‘ynash, klaster, loyihaviy ta‘lim kabi usullar — o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga va milliy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishga undaydi. Bunday metodlar orqali ta‘lim jarayoni jonlanadi, o‘quvchilar mavzuga nisbatan befarq kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Shu tariqa, milliy qadriyatlarni chuqur va tizimli o‘qitish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish yosh avlodning ma‘naviy barkamolligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Interaktiv metodlarning pedagogik samaradorligi

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlikda qo‘llanilganda ta‘lim sifati yanada oshadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek milliy qadriyatlarini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning ma‘naviy dunyoqarashini boyitadi hamda ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllantiradi. Milliy merosni o‘rganish jarayonida



interaktiv yondashuvni tizimli ravishda qo‘llash bugungi kun ta’limining muhim talabi hisoblanadi.

Kelgusida milliy qadriyatlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish va amaliy tajribalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – Milliy axloq va qadriyatlar tarixi bo‘yicha manba.
2. Musurmonova O. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – Ta’lim-tarbiya jarayonida qadriyatlar pedagogikasi.
3. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – Pedagogika nazariyasi bo‘yicha umumiy manba.
4. Dilbar Karshiyeva (2025). Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi. – Milliy qadriyatlarni tarbiyalash bo‘yicha ilmiy maqola.
5. Qoraboyev A.H. & Jo‘raqoziyeva M.O. (2025). Milliy tarbiya va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. TADQIQOTLAR jurnali – Milliy va umuminsoniy qadriyatlar pedagogik uyg‘unligi ta’riflari.
6. Zilola Yakubova (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali – Maktabgacha ta’limda qadriyatlar.



RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Yakubova Nafisa Odiljanovna

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)

Email: nafisaodiljonovna@gmail.com

Alisherov Ozodbek Abdurashid o‘g‘li

Guliston davlat universiteti Interyer dizayn yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Email: alisherovozodbek681@gmail.com

Annotatsiya: *Voqiylikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir–biriga ta‘sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg‘unligi asosida tasvirlamoq zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to‘g‘ri topilgan ranglar uyg‘unligi, go‘zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go‘zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.*

Kalit so‘zi: *tasviriy san‘at, rassom, madaniyat, qobiliyat, mehnat, muloqat, tabiat, gozallik.*

Odatda yorqinligi va tusi bir–biriga yaqin bo‘lgan ranglar o‘zaro birlashadilar. Ranglar o‘zaro tuslar orqali birlashganda, ular alohida jaragdorlik kasb etib sifat o‘zgarishlariga yuz tutishi ko‘zga tashlanadi. Umumiy “kolorit” dan ajralib qolgan rang nomuvofiq–begona bo‘lib ko‘rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o‘zaro bog‘liqligi asosida quruladi. Kolorit (italyancha Colonio, lotincha color–rang, bo‘yoq) – tasviriy va amaliy san‘at asarlarida voqiylikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o‘zaro munosibligi. Tasvirdagi turli ranglarning garmonik, go‘zal tus birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi “kolorit” deb ataladi.

Voqiylikni ta‘sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo‘lgan kolorit asarning g‘oyasi, mazmuni, davri uslubi hamda muallifning shahsiga bog‘liq. Tarixda voqiylik tasvirida mahalliy ranglar ozmi – ko‘pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko‘proq foydalanish (o‘rta asrlar san‘atida) va voqelikni barchsa bo‘yoqlarda (uning rang, tus, nur soya va boshqalardan foydalanib) rangdor ifodalash an‘anasi shakillangan. Kolorit ranglar uyg‘unligiga ko‘ra, iliq (qizil, sariq, zarg‘aldoq) yoki sovuq (ko‘k, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki to‘q, rangdorligiga ko‘ra, yorqin hira va boshqa bo‘lishi mumkin. Kolorit bizga olamning boy, rang – barang va go‘zalligini ochib beradi. U musavvirga tasir holitini ifoda qilishida yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantruvchi, havotirli, mayus bo‘lishi mumkin, shuningdek illiq va sovuq, yorqin va bo‘g‘liq bo‘ladi. Rangtasvir san‘ati – rang va nur uyg‘unligi san‘atidir.

Voqiylikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir – biriga ta‘sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg‘unligi asosida tasvirlamoq zarur.



Shunisi muhimki, tasvirda to'g'ri topilgan ranglar uyg'unligi, go'zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go'zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi. Amaliy san'at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zargarlik, zardo'zlik, chitgarlik va boshqalarda kolorit muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa naqqoshlik san'atida kolorit muhim o'rin tutadi. Naqqoshlik maktablarida har bir usullarning o'ziga hos koloritlariga ega.

Xorazm naqqoshlik maktablarida va me'moray naqishlaridagi umumiy rang ya'ni koloriti moviy bo'lib, kishiga salqinlik, tinglantruvchi ya'ni simmetrik ranglardan foydalaniladi. Ayniqsa me'moriy naqishlarini kuzatar ekanmiz havo rang koloritda bezalgan naqshlar o'ziga hos joziba beradi. Xiva naqqoshlik maktabida asosiy kolorit sovuq ya'ni moviy rangni egallaydi.

Toshkentlik naqqoshlik maktabida asosini yashil, jigarrang, va havo rang koloritda bezaladi. Asosan yashil koloritda Jalil Hakimov ko'p ishlagan. Naqish Kompozitsiyalari ranglari bir – biriga nafis, yaqin va juda aniqlikda bajarilgan. Toshkentlik naqqoshlik maktabining hozirdagi vakili Mahmud Turaev pushti, havo rang binafsha, yashil, jigarrang kabi koloritlarda bajaradi. Har bir koloritda bajarilgan naqishlari o'ziga hos joziba va ko'rinishga ega. Ham to'q, ham och rang koloritda bajarilgan. Tayir To'htaho'jaev o'ziga hos jigarrang oltisimon rang koloritda binolar va buyumlarni mohirona bezagan. Naqish kompozitsiyalariga nazar solib qarasangiz iliq koloritdagi ranglar kishiga ko'tarinki ruh, bayramona kayfiyat uyg'atadi. Farg'ona naqqoshlik maktabining namoyondasi Saidahmad Mahmudovni naqsh kompozitsiyalarida koloritga umuman bo'ysinilgan bo'lsada, lekin ko'pgina naqishlarda zamini iliq rang bilan sovuq ranglar kontrasti o'yini orqali bajarilgan. Ushbu nomoyonda iliq va sovuq ranglar zaminida contrast berilib, har bir zamin ranglari o'ziga hos jozibaga ega. Ushbu naqishlar Farg'ona vodiysi tabiatga hos koloritda bajarilgan. Burglar, gullar ham ilik ham sovuq rangda bo'yilib pardoiz berilgan.

Anvar Ilhomov ustozlari Jilil Hakimovning an'ana asosida davom ettirib yashil va boshqa koloritlarda naqshu – nigoralar ishlab kelmoqdalar. Ama'liy san'at turlari naqqoshchilik, kulolchilik, kashtachilik va boshqalarda kolorit birorta rang masalan zangori, yashil, qizil, jigarrang, binafsha, pushti kabilarning xukumronligiga asoslanadi, qolgan ranglar unga bo'ysundiriladi.

Chunonchi jigarrang muhitida qolgan hamma rang tuslari jigarrang bo'ysindiriladi. Kolorit biror narsa yoki binolarning o'ziga hos tomonlari mazmuini ham ataladi. Badiiy asarning o'ziga hos xususiyatlari ya'ni davr, milliylik, psixologik holatni xullas voqiylik va boshqalarni o'ziga hos tomonlari yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda kolorit asar mazmunini va g'oyasini musiqadagi dirijor vazifasini bajaradi. Kolorit tushunchasini qiyomiga chiqarib o'rgatish tayyorlayotgan kadrlarimizni kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakillantrishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'imi konsepsiyasi. - Toshkent.1995.



2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. R. Hasanov. Toshkent -2006.
3. Rangtasvir Toshkent "Innovsiya- Ziyo", 2019yil. S. Abdurasulov. N. Tolipov.
4. Alimjanovna Y. S. The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev) //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 9-9.



TASVIRIY SAN'ATDA NUSXA KO'CHIRISH FANINING MUAMMO VA YECHIMLARI

Boyqulova Noila Qurbonali qizi

Guliston davlat universiteti

Amaliy san'at: badiy kulolchilik yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Email: noilaboyqulova1@gmail.com

Annotatsiya: *Inson ko'rib turgan, kuzatayotgan atrofdagi ranglarni tekislik yuzasiga to'g'ri tadbiiq eta olish, Rang tasvir ustozlarning bilim va ko'nikmalarini amalda va nazariy qo'llash hamda olingan bilimlarni o'sib kelayotgan yosh rassom ishtiyoqmandlariga ulashishdan iborat. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning rangshunoslik malakalarini qalam tasvir va rang tasvirda rivojlantirishga qaratilgan.*

Kalit so'zi: *Rangshunoslik, natura, fazoviy ranglar, nusxa ko'chirish bilimlari, qalamtasvir asoslari, buyuk ustozlar.*

Insonlarning ongi, fikri shiddat bilan rivojlanayotgan bir davirda yashayotganimiz, badiiy ta'lim tizimida zamonaviy bilimlarni qo'llash, komillikka tomon yo'naltirilgan bilvosita "Tasviriy san'at" ning o'rni beqiyos desak adashmaymiz. Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'risida so'z borganda prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning "bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilm fan va texnika namoyondalari, madaniyat, adabiyot, san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadirlaymiz. Ana shu zaxmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab- quvvatlash, ular uchun zarur shart – sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor."²² O'quvchilarning va yosh rassomlarning rang tasvir fanidagi fazoviy kenglikni va shakillarni bilvosita kompazitsion konikmalar asosida o'qituvchi tomonidan o'rgatilishi hammamizga ma'lum zero, hech bir o'quv ko'nikmalar fazoviy ranglarni rang tasvir bo'limlarini "nusxa ko'chirish" dek bir asarni yetuk bir san'at darajasiga chiqarishga yordam berolmaydi. O'rta osiyada bubilimlarni biz qadimda devorlardagi freska, pannolar bilan ishlash orqali ba'zi san'at turlari rivojlanib kelgan, va bu devoriy san'atlarga rang bilan ko'zga yaqqol chiqarish zarurligini sezishgan va shu asosida ranglar bilan ishlash, bir chiziqni ikkinchi bir chiziqdan ajratish orqali yuzaga sekinlik bilan ko'rinib kelgan. Chunki rassomlik rang bilishlikni talab qilgan, shuning uchun har bir yosh san'at bilimini o'rganayotgan rassomlarga ranglar bilan ishlash suv va havodek zarur.

²² Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish. O'. Nurtayev, S. Mahkamova. 2021



Atrofimizdagi tabiat ranglarini o'rganishdan oldin yana bir ko'nikmasiz yangi bir asarni yuzaga chiqarish mushkul ya'ni bu- "Qalamtasvir" dir. Ustozlarimiz "qalamtasvir barcha san'atning otasi "hisoblanadi deb bejiz ta'kidlashmagan. Qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining asos hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi.²³ Tasviriy san'at turlari zamon bilan hamnafas rivojlanib kelmoqda hamda tasviriy san'atni o'rganish ham qaysidir manoda tez shiddat bilan yangilanib bormoqda. Oliy o'quv yurtlarida "Nusxa" ko'chirish fani mavjud bo'lib asosan uyg'onish davrida ijod qilgan bir qancha rassom ustozlarning asarlaridan nusxalar ko'chirila boshladi. Albatta bu yosh ijodkorlarning bilimlarini yanada rivojlanishiga olib keladi hamda uyg'onish davri ustozlarining amaliy ishlaridan o'zlariga san'at asari yaratishda yetarlicha konikma hosil qilishadi. O'zbekistonda rassomlik, o'quv mashg'ulotlari boshlang'ich sinflardan boshlangan va talaba birinchi marta hunarmandchilik asoslarini o'rgangan hamda o'zlashtirgan. Shakilni qayta ishlashning zarur yo'llari, foydalanish qobiliyati, soya, yorug' qonuniyatlarini o'rgangan. Shuning uchun talaba O'zbekiston san'at muzeylariga kirib devorlaridan, dastlabki bosqichlaridan boshlab ustalarning rasmlarini nusxa ko'chirib o'rganish bilan shug'ullanadi.²⁴ Shuningdek nusxa ko'chirish darslari asosan rus maktablarida juda ham keng kollamda foydalanilgan. Ayni damda O'zbekiston oily o'quv yurtlarida tasviriy san'atni chuqur o'rganishni istagida bo'lgan talabalarga ko'plab san'at asarlari majburiy tarzda ko'chirilishi yani nusxa olinishi tadbiiq etilgan, bu bilan talabalarning fazoviy ongida chuqur ildiz otgan buyuklikkacha ko'tarilgan asarlarni yanada yaxshiroq o'rganish mujjasamlanadi.

Tasviriy san'atda nusxa ko'chirishning bir qancha uslublari mavjud:

- ✓ *Tekislik yuzasiga aniq o'lcham bo'yicha nusxa ko'chirish.*
- ✓ *San'at asarining asosiy harakterli tayanch nuqtalaricha belgilab nusxa ko'chirish.*
- ✓ *Biron bir san'at asarining biron bir qismini ko'chirish ya'ni parcha (Fragment)*

Nusxa ko'chirish biron dastgohda yoki turli na'munali san'at muzeylariga borgan holda amalga oshiriladi. Buning uchun oldindan muzaylarni va o'zini tartibli ravishda, qurol- aslahalar bilan taminlashi kerak. Shuni ta'kidlash joizki yetarli malakali ustozlarsiz bu nusxa ko'chirish san'atini mukammal o'rganish mushkuldir. O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasining akademigi O'rol Tansiqboevning "Jonajon o'lkam" "Qayroq suv ombori" "Mening qo'shig'im" va bir qancha asarlari biz yosh avlodlarga juda ham katta maktab bo'ladi.²⁵

Nusxa ko'chirish fanida ko'chiralayotgan asarning ish razmeriga va uning texnikalari, foydalanilgan sovuq-issiq ranglariga e'tibor qaratilishi zarur. Hamda juda ham yaxshi holst tortilib asarni hajmini kataklarga bo'lib chiqiladi va

²³ Qalamtasvir. Botir BOYMETOV 9-bet

²⁴ ²⁴ Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish. O'. Nurtayev, S. Mahkamova. 2021 43-bet

²⁵ «Qayroq suv ombori»



tayyorlagan padravnigimizni huddi shu kataklarni anniq o'lchamini olib sanoq sonlarni joylab olamiz. Sifatli rasm qo'limizda chiqarilgan bo'lishi kerak. Asta sekinlik bilan qo'limizdagi nusxani tekislik yuzasiga ya'ni holstga raqamlar asosida joylashtirib olamiz. Bu sm chiziqlar nimaga kerak? Nusxa olayotganimizda birga bir asar ko'chirishimizda va kampanovkalarini tog'ri olishimizga yordam berdi.

Hech bir rassom borki nusxa ko'chirmasdan o'zining ma'lum texnika san'atini chiqarolmagan. Ustozlarimiz biz yosh rassomlarga qoldirgan ko'plab asarlar orqali biz borliqni, fazoviy kenglikni, bir-biridan serjilo ranglar texnikasini, qalam san'atlarini hamda turli xil texnikalarni o'rganamiz va o'rganib kelmoqdamiz. O'zbekistonimizda ham huddi shunday ustoz rassomlarimiz bor va ularning san'at asarlari bizga yuqorida takidlanganidek biz uchun bir bamisoli maktab. Ulardan biri "Rahim Axmedov" u o'zining "Surxandaryolik ayol" "Ona o'ylari" "Cho'pon" kabi portretlarida insonning ichki kechinmalarini, his tuyg'ularini, o'rzularini va go'zal qalbini ochib bergan.²⁶ Bu asarlarni o'rganishdan oldin rassom texnikasini o'rganib, amalda qo'llash darkor. Uning ranglar olami, kompanovkalarini, his – tuyg'ularini, go'zal qalbidan ishlangan asarlarini qayta –qayta eskiz qilish orqali ham biz o'zimizga yetarlicha bilim olamiz va shundagina rassomning ishlaridan nusxa olaolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behzod Xadjimetov Miniatyura ashyolarida ishlash [Matn] darslik /Behzod Xadjimetov. – Toshkent, "Poytaxt exculusive" nashriyoti, 2024. – 176 b.
2. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 2001, –384 b.
3. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san'at. –T.: Ilm ziyo, 2010, –176 b.
4. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O'qituvchi, 2012, –126 b.
5. Goncharova P.A. Buxoro zardo'zlik san'ati. Albom. –T.: O'zbekiston, 2003, –112 b.
6. Bulatov S.S., Shobaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod– Moliya, 2010, –368 b.
7. Alimjanovna, Yusupova Shoxista. "The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.

²⁶ ²⁶ Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish. O'. Nurtayev, S. Mahkamova. 2021



NATYURMORT JANRIDA ISHLASH

Po'latova Xumora G'ulom qizi

Guliston davlat universiteti

Amaliy san'at: badiy kulolchilik yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Email: nozifulruziyeva99@gmail.com

Annotatsiya: *Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar; asbob-uskunalar kabilarga o'xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos.*

Kalit so'zlar: *natyurmort san'at, rang turlari, natyurmort janrlar, yorug' soya.*


Natyurmort tasviriy sanatning mustaqil, asosiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktab tasviriy sant darslarida ham, kollej va oily talim darslarida ham eng ko'p chizganimiz bu–natyurmort va uning elementlaridir. Men yana natyurmortlarga murojaat qildim. Buning boisi esa, oddiy natyurmortni juda yoqtiraman. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar, asbob - uskunalar kabilarga o'xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Malumki, har bir rassom tasviriy sanat sirlarini o'rganishni natyurmort chizishdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o'zlashtirish sanatning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlardir. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fel atvorini, qiziqishlarini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik holatlarni ko'rsatishga qaratilgan.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'liqroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini taminlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan berkitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar esa ravshanroq ko'rinadi.

Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa natyurmortning yon tomoniga suniy yoritkich qo'yiladi. Shunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirlari yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Bazi sirlarga yorug'lik nurlari ko'proq tushganligi sababli ravshan, bazilari esa qoramtir bo'lib ko'rinadi. Narsa sirtlarining ravshanlik darajasi u bilan yorug'lik manbai sirtidan qanchalik uzoqda bo'lsa, sirt shunchalik nursiz bo'ladi, aksincha manba yaqin joylashsa yoritishi kuchli bo'ladi. Yorug'lik nurlari sirtga to'g'ri burchak ostiga, yani tik



yonalsa, bu sirt eng yorug' bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik nurlari qiyalab, sirtning yonidan o'tsa, unga yorug'lik ham tushadi va natijada u holiroq bo'lib ko'rinadi.



Rasm ishlashning yakunlovchi bosqichida natura bilan tasvirni yana yaxshilab taqqoslab, umumlashtirib chiqish lozim. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta(planshet) ni naturaga yaqinroq yerga qo'yib, o'tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko'z yuritib qarasa ham bo'ladi. Bunda bazi soyalar qorayib ketgan bo'lsa yoki natyurmortning bir qismi ajralib ko'rinib qolgan bo'lsa, ularni tuzatib, reflekslar juda ravshan bo'lib qolgan bo'lsa bir oz xiralashtirib, natura bilan uning tasviri o'rtasida to'la o'xshashlikka harakat qilinadi. Shunday qilib, tasvirni natura bilan muttasil solishtirib borish, rasm chizishda ma'lum izchillikka amal qilish, asta-sekin umumiy tasvirdan qismlar tasviriga o'tish tartibida olib borish va oxirida yana yaxlitlashtirib natyurmortning haqqoniy tasvirini hosil qilinadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 2001, –384 b.
2. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san'at. –T.: Ilm ziyo, 2010, –176 b.
3. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O'qituvchi, 2012, –126 b.
4. Goncharova P.A. Buxoro zardo'zlik san'ati. Albom. –T.: O'zbekiston, 2003, –112 b.
5. Bulatov S.S., Shobaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod–Moliya, 2010, –368 b.
6. Alimjanovna, Yusupova Shoxista. "The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
7. A.S.Puchkov - Natyurmort ustida ishlash usullari: Talabalar uchun darslik pedagogika institutlarining rassomlik va grafika fakultetlari / A.S. Puchkov. - M.: Ma'rifat, 1982 yil. - 160 s.



O'ZBEK MINIATYURA SAN'ATI.

Tursunboyev Lochinbek Umirqul o'g'li

Guliston davlat universiteti

Amaliy san'at: badiy kulolchilik yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Email: lochintursinboyev407@gmail.com

Annotatsiya: *Insoniyat o'z tarixiy rivojlanish jarayonida ma'lumotlarni yozuv, tasvir shaklida saqlash, jamlash, almashish maqsadida turli ashyolardan foydalandi. Miniatyura san'ati asosan qog'oz va toshqog'oz (pape-mashe) sathlariga ishlangan. Mumtoz asarlarni ishlashda qadimdan tuproq, tosh, metall kabi tabiiy ashyolardan turli yo'llar bilan pigmentlar olingan va shular yordamida miniatyuralar ishlangan.*

Kalit so'zlari: *Tosh, sopol, yog'och, suyak, metall, papirus, pergament, mato va qog'oz edi. Bu ashyolarning har biri ma'lum bir davrda, mamlakatda yozish, tasvir ishlash uchun xizmat qilib vaqti bilan boshqasiga o'z o'rnini bo'shatib bergan.*

Bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo miqyosida ham mumtoz Sharq miniatyura rangtasvirining milliy an'analarni tiklash, saqlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pgina davlatlarda miniatyura rangtasvirini mumtoz an'analarni tiklash bilan bir qatorda zamonaviy turlari, yo'nalishlari, uslublari, sujetlari vujudga kelmoqda. Turli davlatlarda shu soha bilan shug'ullanuvchi rassomlarning ijodiy ishlarini o'rganish, ularning turli ashyolarni qo'llashni tadqiq etish orqali ushbu mo'jaz san'at turi yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon va Eron kabi davlatlarning hamkorligidagi harakatlari natijasida, 2020-yilning 16-dekabrida YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi XV sessiyasida ko'p millatli "Miniatyura san'ati"ni YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi Rerezentativ ro'yxatiga kiritilgani muhim voqea bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Murod Samarqandiy, Musavvir Abdulla kabi buyuk musavvirlar ijodiy an'analarni tiklash, zamonaviy miniatyura rassomlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, sohani rivojlantirish, targ'ib qilish maqsadida xalqaro va respublika miqyosida tanlovlar va ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda miniatyura san'ati zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik, so'zanachilik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, mahobatli devoriy surat san'ati kabi tasviriy va amaliy san'atning milliy yo'nalishlariga ta'sir etib o'z asl qadriyatlarini va shaklini o'zgartirayotgani ham sir emas. Bu san'at turlari bilan miniatyura kompozitsiyalarining uyg'unlashuvi, milliy mumtoz san'atimizga jamoatchilikning qiziqishini uyg'otish kabi ijobiy tomonlari va noprofessional rassomlar tomonidan



miniatyura maktablari an'analariga e'tibor qaratmay ko'r-ko'rona ko'chirishlari asarlarning sifati pasayib ketishi kabi salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin.

Yurtimizda miniatyura san'atiga milliy san'atning turi sifatida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Yaratilgan qulay shartsharoitlar miniatyura rassomlarini erkin ijod qilib, jahonda o'z asarlarini namoyish etish bilan san'atimizni yuqori pog'onaga olib chiqdi. Tasviriy san'atning yo'nalishlaridan bo'lmish miniatyura san'ati ham o'zining turli ashyolarda ishlanishi bilan alohida o'rin tutadi. Ta'lim tizimida bu san'atni zamon talablari asosida o'rgatish dunyo san'at bozoriga raqobatbardosh musavvirlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni o'rganish va targ'ib qilishda "Miniatyura ashyolarida ishlash" fanining o'rni beqiyos. Shu sabab "Miniatyura ashyolarida ishlash" fani, asosan, miniatyura ashyolarini o'rganishda, amaliyotga tadbiiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda miniatyura san'atining ashyolari zamon talablari asosida turli sathlar va bo'yoqlar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda. Fan vazifalarini o'rganishda milliy san'atimiz an'alarini o'rganish, targ'ib qilish bilan bir qatorda zamonaviy ashyolardan keng foydalanishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu qo'llanmadagi vazifalarni belgilashda oddiylikdan murakkablikka qarab asta-sekin o'tib borilishiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Miniatyura maktablarini o'rganishda "Miniatyura ashyolarida ishlash" fani milliy qadriyatlarimizni aks ettirgan Sharq kitobot san'atining yorqin namunasi bo'lmish "Buxoro", "Samarqand" miniatyura maktabi asarlaridan tortib, boburiylar sulolasi, tarixi aks etgan "Hind" miniatyura maktabining murakkab kompozitsion tuzilishi, turli ashyolarini o'rganish va amalda tadbiiq qilishni o'z ichiga qamrab oladi. Soha egasi bo'lishda hozirgi kunga qadar takomillashib, yangilanib borayotgan barcha an'anaviy va zamonaviy ashyolarni o'rganib, amalda o'z qo'li bilan yasab, chizib, bezatib, san'at asari darajasiga keltirib hayotga tadbiiq qilish talab etilmoqda.

O'zbekiston zamonaviy miniatyura rangtasvir san'atini o'rganib, rassomlar asarlariga tavsif berib, tahlil asosida ijobiy va salbiy fikrlarni bildirgan Sh.Shoyoqubovning muallifligida albomlari muhim o'rin tutadi. Z.Raximova muallifligida ikkita albom va eng oxirgi zamonaviy miniatyurachi rassom va xattotlar asarlaridan tashkil topgan A. Hakimov, K. Akilova muallifligidagi albomlar ham O'zbekiston zamonaviy miniatyura sohasining targ'iboti borasidagi katta yutuqlardan hisoblanadi.

Miniatyura rangtasvir san'atining ashyolarini o'rganish, ularda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish va asl asarlardan nusxa olish bosqichlarini mukammal egallash kelajakda talabalarga o'z ijodiy asarlarini yaratishda an'analarni yo'qotmagan holda ishlash imkoniyatini beradi. Mashg'ulotlar mobaynida talabalar nusxa olish ashyolari, suvli bo'yoqlar, shaffof qog'ozdan foydalanish, kataklar vositasida nusxa masshtabini kattalashtirish, qog'ozni kraxmal vositasida grunt qilish kabi ko'nikmalarni hosil qilishadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behzod Xadjimetov Miniatyura ashyolarida ishlash [Matn] darslik /Behzod Xadjimetov. – Toshkent, “Poytaxt exculsive” nashriyoti, 2024. – 176 b.
2. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: Mehnat, 2001, –384 b.
3. Abdirasilov S.F., Boymetov B.B., Tolipov N.X. Tasviriy san’at. –T.: Ilm ziyo, 2010, –176 b.
4. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. –T.: O‘qituvchi, 2012, –126 b.
5. Goncharova P.A. Buxoro zardo‘zlik san’ati. Albom. –T.: O‘zbekiston, 2003, –112 b.
6. Bulatov S.S., Shobaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod– Moliya, 2010, –368 b.
7. Alimjanovna, Yusupova Shoxista. "The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.



KIЧIK TEZLIKLI SHAMOL ELEKTR QURILMASI GENERATORI

Toshev Sherzod Ergashevich

“TQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti
tshe100679@gmail.com

Tosheva Shaxnoza Nosir qizi


“Uzenergyengineering” AJ etakchi ingineri

Annotatsiya. Tezida, kichik tezlikli shamol elektr qurilmalari uchun generator tuzilishini takomillashtirilib, kichik tezlikda ham samarali ishlaydigan qilish masalalari ko‘rilgan. Kichik tezliklarda samarali elektr energiya olishga mo‘ljallangan kichik tezlikli generatorning matematik tenglamalari keltirilgan. Ilmiy izlanishlar natijasida, kichik tezlikga mo‘ljallangan takomillashgan generator ishlab chiqilgan va tadqiqot o‘tkazilib natijalari tahlil qilingan.


Kalit so‘zlar: kichik tezlikli generator, shamol elektr qurilmasi, differensiyal tenglama, kichik tezlikli generator, elektr energiya, samaradorlik. Ushbu tezida ko‘rilayotgan, kichik tezlikli generatorning asosiy magnit maydonini neodimoviy doimiy magnitlar yordamida hosil qilamiz, shu bilan birga zarur vaqtda qo‘shimcha o‘rnatilgan qo‘zg‘atish chulg‘amlaridan ham foydalaniladi [1]. Bu chulg‘am kerakli vaqtda generator quvvatini oshirish hamda nosimmetrik yuklama, qisqa tutashish rejimlarida generatoridagi elektromagnit jarayonlarni tinchlantirib, generatorni yuz beradigan nosozliklardan himoya qiladi [2-4]. Generator tezligini o‘zgartirishda doimiy magnitlar va qo‘shimcha qo‘zgatish chulg‘amlaridan birgalikda foydalaniladi, shu tufayli ham kichik quvvatli shamol elektr qurilmalarida foydalanish imkonini beradi.

Kichik tezlikli generator bitta val, ikkita disk ko‘rinishidagi rotor, bitta disk ko‘rinishidagi stator, podshipnik va korpusdan iborat. Rotori ikkita disk ko‘rinishida po‘latdan yasilib, ularning bir-biriga qaragan ichki tarafida neodimoviy doimiy magnitlar qarama-qarshi qutblarda joylashtiriladi. Magnitlar bilan yonma-yon qo‘shimcha qo‘zg‘atish chulg‘amlari joylashtiriladi. Rotor disklari val bilan birga aylanadigan qilib mahkamlanadi. Val esa podshipniklar otqali korpusga mahkamlanadi. Aylanuvchi rotor disklari (1) o‘rtasida disk ko‘rinishidagi stator (5) joylashtiriladi va u korpusga qo‘zg‘almas qilib mahkamlanadi.


Keng miqyosda ishlatiladigan elektr mashinalari masalalarini zamonaviy yondoshib yechishda, bevosita havo oralig‘idagi magnit maydonining tarqalishini magnit o‘tkazgich to‘yinishini e‘tiborga olgan holda hisoblash kiradi.



1-rasm. Rotor: 1- rotor diski, 2- neodimoviy doimiy magnit, 3- ko'ndalang o'q bo'yicha qo'shimcha chulg'am, 4-akkumulyator



2-rasm. Stator: 5-stator diski, 6-stator chulg'ami, 7- mahkamlash joyi



3-rasm. Generatorning umumiy ko'rinishi. 8-val, 9-korpus

Sinxron generatorning tuzilishi takomillashtirilganligi yani doimiy magnit bilan birgalikda qo'shimcha chulg'amning qo'llanilishi natijasida kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali elektr energiya ishlab chiqarish imkonini beradi.

Generatorning asosiy magnit maydonini boshqarish orqali quvvatini oshirish mumkinligi, zarur vaqtda qo'shimcha qo'zg'atish chulg'ami yordamida nosimmetrik yuklama, qisqa tutashish vaqtlarida generatordagi elektromagnit jarayonlarni tinchlantirib, generatorda yuz beradigan nosozliklardan himoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Пирматов Н.Б., Тошев Ш.Э., Тошева Ш.Н., Эгамов А. Низкооборотный генератор нового типа, используемый для выработки электроэнергии на основе возобновляемых источников энергии. // Международная научная конференция. - Ташкент, 2018, С. 123-124.
- [2] Pirmatov N., Tosheva Sh., Toshev Sh., Best overall dimensions of synchronous generator with permanent magnets for small power wind plants and micro hydropower plants. E3S Web of Conferences 139 10 (2 019) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913901027> RSES 2019



- [3] Pirmatov N., Toshev Sh., Overvoltage in the free phase of the stator winding in case of asymmetric short circuit implicit pole synchronous generator biaxial excitation. E3S Web of Conferences **139**, 0 10 (2 019) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913901030> *RSES 2019*
- [4] Pirmatov N., Toshev Sh., Tosheva Sh., Mustafakulova G. Magnitlanish o‘qi buriladigan kichik tezlikli sinxron generator. Foydali modelga patent. № FAP 01558. 2020yil.
- [5] Aner, Mohamed, “Improved MPPT Dynamics for Starting and Power Extraction of a Small Wind Turbine Employing a PMSG and a VSMC,” Ph.D Dissertation University of Calgary, April 2014. P.175.



МУРАККАБ ҚАТЛАМЛИ ГРУНТЛАРДА ПАСТ НАПОРЛИ ГИДРОТЕХНИКА ИНШООТЛАРИ ЗАМИНИДАГИ ФИЛЬТРАЦИЯ МУСТАҲКАМЛИГИНИ АНИҚЛАШ ТАДҚИҚОТЛАРИ

Палуанов Данияр Танирбергенович
Тошкент давлат техника университети
профессори, т.ф.д.
doni_pol@mail.ru

Аблатова Айсанем Мажитовна
Ирригация ва сув муаммолари
илмий-тадқиқот институти таянч докторанти

АННОТАЦИЯ. Мазкур ишда геологик жиҳатдан мураккаб шароитда жойлашган сув чиқариш иншооти заминидаги фильтрация жараёни ва унинг таъсири натижасида вужудга келадиган деформация ходисаларини тадқиқ қилиш масалалари кўриб чиқилган. Ўтказилган лаборатория тадқиқотлари йўналишда материалларнинг тўпланишига, услубиятларнинг пайдо бўлишига ва олинган натижалар бўйича зарур хулосалар чиқаришга замин яратилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: гидротехника иншоотлари, грунт, сув, фильтрация, замин, мураккаб шароит, сув олиш иншооти, штамп, юқори ва куйи бьеф.

Республикада ирригация соҳасини сув ресурслари билан таъминлаш мақсадида кўплаб гидротехника иншоотлари қурилган. Уларнинг заминида фильтрация оқимининг ўтиши аниқ ифодаланган фазовий характерга эга, шунинг учун текисликда фильтрация масалаларининг одатий ечимларини қўллаш сезиларли ўзгаришларга олиб келади. Сўнгги йилларда амалиётда фильтрация масалаларини ечишнинг тақрибий усуллари қўлланилмоқда, бу эса ҳақиқий шартлардан янада каттароқ оғишларга олиб келмоқда.

Ўтган асрнинг ўрталарида САНИИРИ (ҳозирги ИСМИТИ)нинг фильтрация лабораторияси базасида босимли ва босимсиз фильтрация масалалари бўйича қатор тадқиқотлар олиб борилган. Лаборатория базасида асосан текислик ва фазовий моделлаштириш учун электрогидродинамик ўхшашликлар, грунтли новлар ва фильтрация қувурлари қурилмалари фойдаланилган, филтрлар таркибини танлаш бўйича тажрибалар олиб борилган. Ўтказилган тадқиқот услубияти эса бошқа шунга ўхшаш лаборатория базасига эга ташкилотлари каби қабул қилинган. Лабораторияда Марказий Осиёда лойиҳаланадиган ва қуриладиган қатор йирик ва тоифаланган ГТИ учун тадқиқотлар олиб борилган.

Биз томонидан ўтказилган лаборатория тадқиқотларида мураккаб шароитда жойлашган сув олиш иншооти заминидаги босимли фильтрация масалалари учун олиб борилди. Тадқиқотнинг асосий талаби замин грунтининг суффозиясига йўл қўймаслиги ҳисобланиб унинг узок муддат ишлашини таъминлашдир. Маълумки, лаборатория тадқиқотлари иншоотлар



ва уларнинг заминларини турғунлигини ва мустаҳкамлигини ҳисоблаш назарияси ва ривожланишининг камчилигини тўлдирадиган муҳим воситадир.

Ҳозирги кунда дарё дельтасига хос бўлган мураккаб кўп қатламли грунтлар бўйича аниқ тавсиялар мавжуд эмас. Шу билан биргаликда, мураккаб кўп қатламли грунтлар учун босимли фильтрация оқими таъсирида вужудга келадиган деформация жараёнлари ва ҳисоблари бўйича чоп этилган маълумотлар адабиётларда жуда кам учрайди. Ушбу масала юзасидан ўтказиладиган эксперимент тадқиқотлари йўналишда материалларнинг тўпланишига, услубиятларнинг пайдо бўлишига ва олинган натижалар бўйича зарур хулосалар чиқаришга замин яратади.

Эксперимент қурилмаси Тошкент давлат техника университети лабораторияси базасида жойлашган. Қурилма ойнали нов, замини мураккаб қатламли грунтлар ва бетонли иншоот конструкциясини тавсифлайдиган штампдан иборат. Қурилма кенлиги 100 см, узунлиги 120 см ва баландлиги 50 см бўлган пластик ойнадан тайёрланган гидравлик новдан иборат. Нов маркасида баландлиги 4 см ва туби бўйлаб узунлиги 50 см бўлган бетонли штамп лойихалаштирилган, новнинг юқори бьефида сувнинг барқарор текис ҳаракатига эришиш учун баландлиги 15 см бўлган тешикли девор ўрнатилган. Новнинг қуйи бьефи сув димланиб қолмаслиги учун сувни олиб кетиш вазифасини бажарадиган тешиклар билан жиҳозланган. Гидравлик новга сув бериш учун кичик насосдан фойдаланилган. Иншоот заминида бўладиган жараёнларни кузатишни осонлаштириш учун ойнали нов ташқарисига томонлари 1 см бўлган панжара чизиб чиқилди.

Тадқиқотларни ўтказишда иншоот заминидаги қатламларда сувнинг фильтрацияси жараёнларини кузатиш, таҳлил қилиш ва хулосалар чиқариш, чиқиш градиентини аниқлаш режалаштирилди.

Дастлаб қурилмасининг ичкари тубига суглинок солиниб у 3 см бўлгунга қадар яхшилаб зичланди, кейин унинг устига худди шундай қилиб қум қатлами 3 см қилиб жойлаштирилди, унинг устига эса юқоридаги каби суглинок 3 см қилиб солинди ва зичланди. Ушбу қатламлар устига бетон қоришмаси тайёрланиб, узунлиги 50 см ва баландлиги 4 см бўлган томонлари тўғри бурчакли штамп шаклида бетонли иншоот барпо этилди.

Тажрибани ўтказишда юқори бьефдаги сувнинг сатҳи барча ҳолларда 3 см этиб қабул қилинди. Чунки, гидротехника ҳисобларини амалга оширишда максимал сув сатҳи учун олиб борилиши белгиланган. Иншоотнинг юқори бьефидаги сув оқимининг барқарор ҳолатини таъминлаш учун сув сатҳи тажрибани тугатгунга қадар доимо ушлаб турилди. Иншоот заминидаги ҳаракатланаётган фильтрация оқими тасвири ҳар 5 минутда ойнали нов ташқарисидаги панжаралар ёрдамида ҳар бир қатлам учун қоғозга туширилиб борилди.

Иншоот замини грунтларининг фильтрация деформациялари пайдо бўлишининг энг хавфли зоналари фильтрация оқимининг грунт юзасига чиқиш жойлари ва турли хусусиятларга эга бўлган грунтларнинг контактлари ҳисобланади.



Тажриба учун ишлатиладиган грунтларнинг фильтрация коэффициенти лаборатория шароитида аниқланмади, чунки грунтлар айнан тадқиқот объекти худудидан олиб келингани учун аҳамиятсиз қолдирилди. Грунтларнинг фильтрация коэффициенти асосида қийматлари айнан шундай қабул қилинди, яъни супесь ва суглинок учун мос равишда $2,76 \cdot 10^{-4}$ м/сут ва $7,34 \cdot 10^{-5}$ м/сут оралиғида, қум учун эса 0,56 м/сут.

Тадқиқот натижаларини умумлаштириш фильтрация оқимининг чиқиш градиентини аниқлашга имкон берди. Эксперимент тадқиқотлари бир хил услубда уч марта ва барча ҳолларда қуйи бьефда сув мавжуд бўлмаган ҳолат учун ўтказилди.

Иншоот замини қатламлардаги фильтрация оқими ҳаракати 3 соат 45 минутгача давом этди. Тажрибанинг биринчи 5 минутда фильтрация оқими 1,2 см ни ташкил этди ва кейинги ўлчаш вақтларида ҳам тахминан $1,1 \div 1,3$ см оралиғида ўзгариб турди. Фильтрация оқимининг штамп узунлиги бўйича ўзгариши табиий ҳолатдаги ўзгаришидан фарқ қилади, бунга сабаб кўп қатламли грунтларнинг сунъий зичланиши билан боғлиқлиги бўлиши мумкин деб изоҳланди.

Ўтказилган вақт давомида фильтрация оқимининг қум қатламида иншоотнинг охириги нуқтасига етиб борди ва фильтрация оқимининг ушбу қатламдан қисман давом этиб, кейин секин-аста юқори қатлам орасидан юқори ҳаракатланди. Қум қатламидаги фильтрация оқими юқори ва пастки қатламларга қараганда тез ҳаракатланиши амалиётда ҳам маълум. Юқори қатламдаги фильтрация оқими пастки қатламга нисбатан тез ҳаракатланиши кузатилди.

Фильтрация оқимининг қуйи бьеф томонга чиқишини назорат қилинганида суглинок билан қумнинг биргаликда чиқиш ҳолати қисман кузатилди. Бундай ҳолда қуйи бьефдаги ҳодиса бўйича хулоса чиқариш ёки бундай ҳолат бўйича табиий шароитда кузатилишини олдиндан башорат қилиб ёки изоҳлаб бўлмайди. Шунинг учун ушбу ҳолат бўйича хулоса чиқариш жуда мураккаб ҳисобланади. Бунинг учун габарити катта бўлган лаборатория курилмаларида серияли тажрибаларни ўтказиш мумкин бўлади.

Умумий ҳолда, лаборатория тадқиқотларини ўтказиш мураккаб кўп қатламли грунтларда сув чиқариш иншоотлари заминидаги фильтрация деформацияларини кузатиш бўйича услубиятнинг пайдо бўлишига, хулосаларга асосланиб материалларнинг тўпланишига замин яратди.



ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

О՛RTA SINIF O՛QUVCHILARIG A MATEMATIKANI O՛RGATISHDA
KO՛RGAZMA, O՛YINLI METOD LARDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Safarova Zulfiya Muxiddinovna

*Buxoro shahar 24-umumiy o՛rta ta՛lim maktabi
matematika fani o՛qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab tizimida, xususan, o՛rta sinf o՛quvchilariga matematikani o՛qitish va o՛rgatishda ko՛rgazmali qurollar, noan՛naviy metodlar, ta՛limiy o՛yinlardan foydalanishning qiziqarli va samarali usullari bayon etilgan. Ushbu usullar orqali o՛quvchilarning fanga bo՛lgan ijobiy munosabatini yuksaltirish, ularning bilimni oshirishda ko՛maklashish bilan bir qatorda, hayotiy vaziyatlarda matematik bilimlarni amaliy qo՛llash ko՛nikmalari, hamda davr talabi bo՛lmish texnologiyalardan oqilona ilm-fan yo՛lida bilim olish uchun foydalanish, ularning ta՛lim jarayonidagi ahamiyati keng va atroflicha yoritib berildi. Shuningdek, olimlarning qarashlari va olib borilgan izlanishlar natijasida matematika sohasida - darslar davomida foydalanish uchun ba՛zi metodlar taklif berilgan, o՛yinli metodlarning ta՛lim samaradorligini oshirishdagi o՛rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so՛zlar: matematika ta՛limi, o՛rta sinf, o՛yinlar, metodlar, didaktika, pedagogik texnologiya, keys-stadi(Case-study), veb sayt, ilova

Abstract: This article describes interesting and effective methods of using visual aids, non-traditional methods, and educational games in the school system, in particular, in teaching and learning mathematics to middle school students. Through these methods, in addition to increasing students' positive attitude towards science and helping to increase their knowledge, the skills of practical application of mathematical knowledge in real life situations, as well as the use of modern technologies for obtaining knowledge in a rational scientific way, and their importance in the educational process are widely and comprehensively covered. Also, based on the views of scientists and the research conducted, some methods for use in mathematics during lessons are proposed, and the role of game methods in increasing educational efficiency is scientifically substantiated.

Keywords: mathematics education, middle school, games, methods, didactics, pedagogical technology, case study, website, application.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal sur՛atlarda rivojlanib borayotgan ma՛lum sharoitda ta՛lim tizimi va o՛qituvchilar oldiga qo՛yilgan asosiy maqsad va vazifalardan biri bu o՛quvchilarning fanga nisbatan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash doirasini shakllantirish va ijodiy yondashuvi, bilimlarning hayotga amaliy tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishdir. Xususan, matematika fan sohasida an՛naviy tushuntirish-takrorlashga asoslangan ta՛lim berish jarayoni doim ham




kutilganidek natija bermayotgani zamonaviy pedagogika tomonidan amaliyotda kuzatilmoqda. O'rta sinf, ya'ni, 5-8-sinflar o'quvchilarning abstrakt tafakkuri shakllana boshlaydigan, psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladigan, shu bilan bir qatorda, matematik tushunchalar murakkablashadigan bosqich sanaladi. Aynan shu bosqichda noan'anaviy didaktik o'yinlar, rangli ko'rgazmali qurollar hamda texnologik ta'limiy ilovalar va o'yinlar darslarda to'g'ri integratsiya qilinsa, o'quvchilar tomonidan matematika "quruq son va formulalar fani" emas, balki, zamonaviy, qiziqarli hayotiy fan sifatida qabul qilinadi. Ta'kidlash joizki, qiziqish va ko'rish orqali egallangan bilimlar xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Zero Y.A.Komenskiy: "ko'rish orqali o'rganilgan bilim eng mustahkam bilimdir," - deya ta'riflaydi. Shuningdek, olimlar tomonidan bir qancha nazariy va amaliy tadqiqot va o'rganishlar olib borilgan bo'lib, ilmiy risolalarda 2018–2022 yillarda chop etilgan tadqiqotlarning sistematik tahlili natijalarida o'yinli ta'lim metodlari matematika fanini o'zlashtirishda asosan ijobiy natijalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi, biroq tadqiqotlar metodologiyasi va kontekstiga qarab farqlar mavjudligi aytib o'tiladi. (Hui et al., 2023)

Bugungi kunda o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, xulq-atvor shakllarini shakllantirish, o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishga ko'maklashish, yuqori motivatsiya, kuch, bilim, jamoaviy birdamlik ruhi hamda so'z erkinligini ta'minlash o'qituvchidan yuksak mahorat va e'tiborni talab qiladi. Ayniqsa, matematika singari murakkab fanni o'rganishda bolalarga ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, metodlar va matematik o'yinlar yaqin ko'makchi bo'ladi. Olimlar kuzatishlari asosida boshlang'ich va o'rta ta'lim sharoitida o'yinli metodlardan foydalanish o'quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilishini kuchaytirib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi haqida xulosaga kelishgan. (Debrenti & Hamza, 2024). Hayotiy tajribalarga tayanadigan bo'lsak, turli ko'rgazma, metod va o'yinlar o'quvchilar uchun murakkab tuyilgan matnli masalalar bilan ishlash yoki butn qismga doir masalalar hamda kasrlar mavzularini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ushbu mavzularni zerikarli dars jarayoni sifatida emas, balkim hayotga tatbiq etiladigan amaliy bilim sifatida o'rganilishiga ko'makdosh bo'ladi. Bu olimlar tomonidan ham isbotlanilgan, misol tariqasida aytish mumkinki, o'zbek matematika metodisti Sh. Abdullayevning fikricha, "faol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni o'zi kashf etadi" (Abdullayev, 2018).

Dars davomida foydalaniladigan bir qancha metodlar, masalan, "Quvnoq puzzle" metodi orqali matnli masalalarni ishlash qiziqarliroq amalga oshadi. Chunki o'qituvchi masala yechish amallar ketma-ketligi yoki har bir yechish ishidan so'ng to'g'ri javob topan jamoaga suratning bir bo'lagi beriladi, to'liq to'g'ri yechim topgan jamoa rasmning barcha qismlariga ega bo'lib, ushbu rasmni shakllantiradi. Rasm matnli masala mazmuniga mos bo'lib, bu bolalarda jamoaviylik ruhi, tezkorlik, tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Quyidagi misolda keltirilgan rasmlar oshpaz, tikuvchi yoki ferma haqidagi matnli masala mazmuniga mos tushishi va ushbu metod uchun qo'llanilishi mumkin.



Kasrlar, butun va qism mazmunidagi masalalar uchun hayotiy real narsa va ob'ektlarni namunaviy ko'rgazma sifatida keltirish ushbu bilimlarni hayotga amaliy tatbiq qilishga yordamlashadi. Masalan, "Bir bo'lak pitsa" o'yini orqali bolalarga ushbu mavzuni qiziqarli tarzda yoritib berish, tushuntirish mumkin.



Shuningdek, tezlik harakatga doir masalalarni ishlashda hayotiy vaziyatni yuzaga keltirish maqsadida "Role play" ya'ni masala mazmunini sahnada shakllantirish yoxud "Keys-stadi" metodidan foydalanish samarali yordam beradi.

Jadal rivojlanish va texnologik davr ekanini inobatga olsak, bir qancha onlayn veb-saytlar va mobil ilovalar ham darsni noan'anaviy tarzda shakllantirishda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "Kahoot!", "Quizlet", "Baamboozle" kabi saytlar turli o'yinlarni shakllantirishda ko'maklashsa, "Canva", "PI" kabi online sayt hamda ilovaga ega bo'lgan dasturlar takrorlanmas taqdimotlar, ko'rgazma materiallarini yaratishda yordamchi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan barcha metod, o'yin va ilovalar bola ongida matematik bilimning yaxshi singishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Zero, o'zbek olimi N.Azizxo'jayeva o'z tadqiqotlarida ko'rgazmali ta'lim o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishini alohida ta'kidlaydi (Azizxo'jayeva, 2016). Demakki, bugungi ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda, ayniqsa, matematik bilimlarni o'rta sinf o'quvchilariga mukammal tarzda tushuntirish samaradorligini oshirishda ko'rgazmali va o'yinli metodlar, turli ta'limiy ilova hamda saytlar yaqin ko'makdosh bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, Sh. (2018). Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.



2. Azizxo'jayeva, N. N. (2016). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). Milliy o'quv dasturi. Toshkent.
4. Komenskiy, Ya. A. (1997). Buyuk didaktika. (M. W. Keatinge, tarj.). Nyu-York: Dover Publications. (Asl nashr 1657 yilda chop etilgan)
5. Debrenti, E., & Hamza, A. (2024). Game-Based Learning experiences in primary and secondary education. *Frontiers in Education*.
6. Hui, H. B., & colleagues. (2023). Influence of game-based learning in mathematics: A systematic review (2018–2022). *Frontiers in Psychology*.

**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

УДК: 616.98:578.834.1:577.12:612.017.1

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МУТАЦИОННОГО ПРОФИЛЯ ВИЧ
ИНИФИЦИРОВАННЫХ ПАЦИЕНТОВ НА ВТОРОЙ ЛИНИИ
ТЕРАПИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ДАННЫМИ****Рахимова Висола Шавкатовна***К.м.н., доцент, Центр развития профессиональной квалификации
медицинских работников, г. Ташкент, Узбекистан*visolasitora@gmail.com

Аннотация. Целью исследования было провести сравнительный анализ частоты мутаций, ассоциированных с устойчивостью к АРВП, у пациентов на второй линии терапии с международными базами (Stanford HIV Drug Resistance Database, IAS–USA Mutation List). Результаты показали, что в группе НИОТ частота мутаций M184V (67,6%) и K65R (23,0%) была статистически значимо выше. В группе ННИОТ структура мутаций в целом соответствовала международным данным. Для ИП частоты ключевых мутаций (M46I, I54V, V82F/A, I84V) оказались сопоставимыми с мировыми данными.

Ключевые слова. ВИЧ, АРВП, НИОТ, ННИОТ, ИП, мутации, лекарственная резистентность, базы Stanford HIV Drug Resistance Database, IAS–USA Mutation List

ВВЕДЕНИЕ. Число выявленных мутаций устойчивости ВИЧ растёт: их уже описано более 200, и они охватывают все шесть классов АРВП - от нуклеозидных ингибиторов обратной транскриптазы до ингибиторов интегразы [3,4,5]. Сравнительный анализ частоты мутаций в конкретной популяции с международными базами данных позволяет выявить наиболее уязвимые классы препаратов и предложить практические рекомендации для оптимизации схем терапии. Такой подход является важным инструментом для разработки национальных клинических стратегий и повышения эффективности ведения пациентов с ВИЧ-инфекцией [6,7,10].

Актуальность. В условиях широкого применения антиретровирусной терапии проблема развития лекарственной устойчивости ВИЧ приобретает возрастающую клиническую и эпидемиологическую значимость. Несмотря на внедрение современных высокоактивных схем лечения, генетическая вариабельность вируса остаётся ключевым фактором, снижающим долгосрочную эффективность терапии [1,2,9].

Наибольший научный и практический интерес представляет анализ мутационного спектра ВИЧ у пациентов на второй линии АРВ-терапии. Данная группа характеризуется наличием предшествующего терапевтического неуспеха, что обуславливает более высокий риск формирования и накопления мутаций лекарственной резистентности [5,7,8].



Сравнительная оценка выявленного мутационного профиля с данными международных базами резистентности (Stanford HIV Drug Resistance Database, IAS–USA Mutation List) позволяет не только оптимизировать индивидуальный подбор схем терапии, но и служит основой для разработки рациональных стратегий организации помощи ВИС инфицированным пациентам.

Цель исследования. Провести сравнительный анализ частоты мутаций, ассоциированных с устойчивостью с международными базами данных.

Результаты. Для проведения сравнительного анализа частоты мутаций, ассоциированных с устойчивостью, были использованы сведения из ведущих международных баз данных и справочников, включая **Stanford HIV Drug Resistance Database, IAS–USA Mutation List** [6], а также результаты крупных эпидемиологических и молекулярно-генетических исследований, выполненных в странах и регионах с высоким бременем ВИЧ-инфекции.

Сравнительный анализ мутаций, ассоциированных с устойчивостью к **НИОТ**, с учетом сведений из международных баз (Таблица №1).

Таблица №1
Сравнительная таблица частоты мутаций к НИОТ с международными данными

Мутация	Частота n 74 (%)	Международные данные	p
M184V	67,6	50–60	p < 0,05
K65R	23,0	5–15	p < 0,01
L74V/I	17,6	10–20	p > 0,05
Y115F	13,5	5–10	p = 0,05
T215Y/F/C/I/S	13,5	15–25	p > 0,05
M41L	8,1	10–20	p > 0,05
D67N/G	6,8	8–12	p > 0,05
K70R/E	6,8	5–15	p > 0,05
L210W	4,1	5–10	p > 0,05
K219E/Q/N	8,1	10–20	p > 0,05
V75M	1,4	2–5	p > 0,05

Как видно из таблицы №1 в группе мутаций к НИОТ преобладание мутации M184V в нашей выборке статистически значимо превышает международные показатели (50–60%, p < 0,05). Наличие данной мутации указывает на ранее активное и длительное использование ламивудина или эмтрицитабина в первой линии терапии. Эта мутация остаётся **ключевым маркером устойчивости к ламивудину и эмтрицитабину**, значительно снижая их эффективность.

Мутация K65R (17,6%) в нашей популяции пациентов встречается значительно чаще, чем в международных наблюдениях (5–15%, p < 0,01). Эта



мутация снижает чувствительность к тенофовиру (TDF), абакавиру (ABC), диданозину (ddI) и ставудину (d4T). Высокая частота K65R может отражать ранее широкое использование тенофовира, особенно у пациентов с высокой вирусной нагрузкой или с недостаточной приверженностью к терапии

Мутации A62V (16,2%) L74V (4,4%), Y115F (11,7%) и T215Y (8,8%) указывают на наличие развивающейся резистентности к абакавиру, диданозину и зидовудину и указывает на комбинированные механизмы устойчивости, особенно при лечении несколькими НИОТ последовательно.

Сравнительный анализ показал, что в нашей выборке доминируют мутации **M184V** и **K65R**, причём их частота статистически значимо превышает мировые показатели. Это отражает особенности предшествующих схем терапии в регионе и подтверждает, что длительное использование ламивудина, эмтрицитабина и тенофовира приводит к высокой вероятности формирования устойчивости к ним.

Снижение частоты тимидин-ассоциированных мутаций (ТАМ) по сравнению с международными данными указывает на уменьшение применения зидовудина и ставудина в клинической практике.

Практическое значение этих данных заключается в том, что при планировании схем лечения у пациентов на второй линии терапии следует: избегать использования ЗТС, FTC, TDF и ABC при наличии соответствующих мутаций; рассматривать в качестве основы схем препараты с высоким генетическим барьером резистентности (ингибиторы интегразы, усиленные ИП); проводить обязательное генотипическое тестирование перед сменой терапии для предотвращения назначения неэффективных препаратов.

Сравнительный анализ мутаций, ассоциированных с устойчивостью к **ННИОТ**, с учетом сведений из международных баз (Таблица №2).

Частота первичных мутаций к ННИОТ среди обследованных нами пациентов соответствует среднему уровню по странам с аналогичным уровнем охвата ННИОТ-схемами. Так мутация K103N была обнаружена в 37.8% случаев, что соответствует верхней границе международного диапазона (20–35%). Статистическая оценка показала пограничную значимость ($p \approx 0,05$), особенно в сравнении с регионами, где доля ННИОТ-схем была ограничена. Данная мутация существенно снижает эффективность эфавиренца (EFV) и невирапина (NVP), традиционно применяемых в схемах первой линии. Наличие K103N подтверждает широкое использование эфавиренца или невирапина в первой линии терапии в прошлом. Это одна из самых частых мутаций, встречающихся у пациентов с неудачей терапии. Мутация сохраняется долго даже после отмены препарата, что делает ее важным маркером резистентности

Мутация Y181C встречалась у 21,6% пациентов, что значимо выше, чем в международных выборках (обычно 10–15%). Статистически достоверное превышение частоты ($p < 0,05$) указывает на накопленную устойчивость в популяции, вероятно связанную с неадекватной вирусной супрессией на фоне применения невирапина. Мутация Y181C приводит к снижению



2. Evensen A, Anderson JM, Fontaine P. Postpartum hemorrhage: prevention and treatment. Am Fam Physician. 2017;95:7:442-449.
3. Клинические рекомендации (протокол лечения) Министерства здравоохранения Российской Федерации №01-02/366 от 24.05.21. «Послеродовое кровотечение». Ссылка активна на 23.03.22. Clinical



recommendations (treatment protocols) of Ministry of health of Russian Federation №01-02/366 from 24.05.2021 «Postpartum hemorrhage». Accessed March 23, 2022. (In Russ.).

4. Лебеде́нко Е.Ю., Розенберг И.М., Михельсон А.Ф., Михельсон А.А. Отдаленные последствия массивной кровопотери в родах. *Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение*. 2019;25:3:47-54. Lebedenko EYu, Rozenberg IM, Mikhel'son AF, Mikhel'son AA. Long-term consequences of massive blood loss during childbirth. *Akusherstvo i ginekologiya: novosti, mneniya, obuchenie*. 2019;25:3:47-54 (In Russ.).

5. Zaat TR, van Steijn ME, de Haan-Jebbink JM, Olf M, Stramrood CAI, van Pampus MG. Posttraumatic stress disorder related to postpartum haemorrhage: A systematic review. *Eur J Obstet, Gynecol Reprod Biol*. 2018;225:214-220.

6. Mbakwa MR, Tendongfor N, Ngunyi YL, Ngek ESN, Alemkia F, Egbe TO. Indications and outcomes of emergency obstetric hysterectomy; a 5-year review at the Bafoussam Regional Hospital, Cameroon. *BMC Pregn Childbirth*. 2021;1:323.

7. Tahmina S, Daniel M, Gunasegaran P. Emergency peripartum hysterectomy: a 14-year experience at a Tertiary Care Centre in India. *J Clin Diagn Res*. 2017;11:9:8-11.

8. Qatawneh A, Fram KM, Thikerallah F, Mhidat N, Fram FK, Fram RK, Darwish T, Abdal lat T. Emergency peripartum hysterectomy at Jordan University hospital — a teaching hospital experience. *Menopausal Rev*. 2020;19:2:66-71.

9. Gică N, Ragea C, Botezatu R, Peltecu G, Gică C, Panaitescu AM. Incidence of Emergency Peripartum Hysterectomy in a Tertiary Obstetrics Unit in Romania. *Medicina (Kaunas)*. 2022;58:1:111.

10. Еспаева Р.Н. Оценка качества жизни женщин, перенесших неотложную гистерэктомию в связи с массивными акушерскими кровотечениями. *Здоровье матери и ребенка*. 2014;2:25-28. Espaeva RN. Assessment of the quality of life of women who underwent emergency hysterectomy due to massive obstetric bleeding. *Zdorov'e materi i rebenka*. 2014;2:25-28. (In Russ.).

11. Зелюк С.В., Минович Е.Д. Функции яичников после гистерэктомии. *Таврический медико-биологический вестник*. 2012;2:132-135. Zelyuk SV, Mirovich ED. Ovarian function after hysterectomy. *Tavrisheskii mediko-biologicheskii vestnik*. 2012;2:132-135. (In Russ.).



УДК: 618.56-005.1

**ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ АКУШЕРЛИК ҚОН КЕТИШИНING ЭРТА
ДАВРИДА ЎЛИМГА ОЛИБ КЕЛУВЧИ ТАНАТОГЕНЕЗ ЖАРАЁНИ
МОРФОГЕНЕЗИ**

*Шукурова Юлдуз Уткуровна
Махкамов Носиржон Жўраевич
Шодиева Хуршида Тухтасиновна*

*Алфраганус университети ўқитувчиси, PhD
Андижон давлат тиббиёт институти, т.ф.д., профессор
Тошкент давлат тиббиёт университети т.ф.д., доцент*

Аннотация: Туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишида қисқа муддатда ўртача 1,0-1,5 литр дан ортиқ қон кетиши натижасида қоннинг умумий ҳажмини тезкор камайиши энг кўп даражада паренхиматоз аъзоларни шикастланиши дистрофик, некроботик кўринишида юзага келишига олиб келади. Барча паренхиматоз аъзолар ичида биринчилардан шикастланиш буйракларда юз беради, буйрак пўстлоқ қавати коптокчаларини тезкор қонсизланиши натижасида, кортикомедулляр соҳасидаги артериовеноз шунтларни ишга тушиши натижасида, ўртача 2-5 дақиқдан кейин коптокчалар ва проксимал каналчалар эпителийларида ўткир гипоксия ва некробиоз жараёни ривожланади. Бу эса, ўз навбатида ЮГА коптокчаларида юз бериши натижасида, ренин ангиотензин тизимини издан чиқишига ва томирлар коллапсига олиб келади.

Калит сўзлар: акушерлик қон кетиши, буйраклар, танатогенез, оналар ўлими, ҳомиладорлик, туғруқ.

Муаммонинг долзарблиги. Дунёда репродуктив ёшдаги аёлларда туғруқдан кейинги акушерлик патологиялари айнан, қон кетишлар, жами қон кетишларни 50% ни ташкил этиб, ушбу патологиядан ҳар йили 260 мингдан ортиқ оналар ўлими аниқланади. Дунё рейтингда оналар ўлими ЮНИСЕФ ва ЖССТ 2023 йилдаги маълумотларига кўра, айнан, туғруқдан кейинги акушерлик қон кетиши бўйича оналар ўлими 260000 тани, 92% ҳолати асосан, Жанубий Осиё, Африка давлатлари, Жанубий Сахара давлатларига тўғри келса, АҚШ, Буюк Британия, Европа давлатларида бу кўрсаткич 100000 тага 1,3% ни ташкил этган. Россия Федерациясида туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишларидан юзага келадиган оналар ўлими бўйича етакчи ўринда туради.

Акушерлик қон кетиши оналар ўлими кесимда етакчи ўринда бўлиб, 70% ни ташкил этади. МДХ давлатлари орасида акушерлик қон кетиши бўйича ЮНИСЕФ ва ЖССТ 2023 йилдаги маълумоти бўйича, ҳар 100000 та ҳомиладорликка Озарбайжон республикасида 34,7 та, Турманистонда 27,9 та, Тожикистонда 13,86 та, Қирғизистонда 41,9 тани, Ўзбекистонда 26.46 % та,



Қозоғистонда 9,58 тани ташкил этганлиги келтирилган. Акушер гинекологлар ассоциацияси The International Federation of Gynecology and Obstetrics — FIGO жамияти маълумотларига кўра, туғруқдан кейинги қон кетишларни асосий учраши асосан 6 ҳафталик муддатда 2-3 ҳафтасида энг юқори ўлим кўрсаткичи 81,8 % ни ташкил этганлиги келтирилган. АҚШнинг Америка акушер ва гинекологлар коллегияси жамияти (American College of Obstetricians and Gynecologists) берган 2022 йилдаги маълумотлари бўйича, акушерлик қон кетишлари туғруқдан кейинги 12-ҳафтагача бўлган муддатни 1 ва 3 ҳафталигида энг кўп кузатилишини бачадон атонияси билан бевосита боғлиқлигини тасдиқлашган.

Акушерлик қон кетиши бўйича хориж амалиёти бўйича, туғруқдан кейинги даврда реабилитацияни эрта бошлаш бачадон атониясини олдини олишга қаратилган муолажаларни тўлиқ ташкил этилганлиги, қон кетишларни қарийб 70% га қисқаришига олиб келса, МДХ давлатларида туғруқдан кейинги даврда 5-7 суткада оналарда эрта уйга чиқариш бачадон атониясига мойиллик юқори бўлган контингентда турли хил кўринишидаги қон кетишларга олиб келишини тасдиқлайди. Натижада, оналар ўлими кўрсаткичини ўртача 100000 та тирик туғруққа нисбатан, 3,8-12,3% гача ошишига олиб келади.

Муҳокама ва натижалар. Туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишини эрта даврда қон кетиш интенсивлигига қараб танатогенез механизмини ривожланиши бир қанча омиллар билан бевосита боғлиқлиги аниқланади. Жумладан, тезкор қон кетиш асосан буйраклар ва юрак тўқимасида турли хил жавоб реакциясини юзага келтиради. Энг асоратли ва қайтмас жараён буйраклар пўстлоқ соҳасида юзага келган некротик нефроз ва шокли аъзоларни ривожланишини билан намоён бўлади. Эътиборли жиҳатлардан бири юракни бевосита етишмаслиги учун қон ҳажмини 65% дан ҳам камайиш кўрсаткичига эришиш керак. Танада жами 2,2 л қон ҳажмида ҳам юрак қисқарувчанлиги сақланади (эслатиб ўтамиз тинч ҳолатда 75 кг тана вазнига эга бўлган инсонлар уйқу ҳолатида умумий қон айланиш доирасида ўртача 2,2-2,5 литр қон ҳаракатланади, қолган қисми веналарда депо кўринишида сақланади). Бу эса, танатогенезда асосий аъзолар булар буйраклар ҳисобланиб, ўткир қон кетишларида қонни гидростатик босимнинг кескин тушиб кетиши, фильтрацияни тўхташига ва ренин ангиотензин тизимини фаоллашишига олиб келади, шу билан бирга, агар кортикал коптокчаларда қон босимини тушиб кетиши, рефлектор тарзда, кортикомедулляр соҳадаги ёйсимон артериовеноз шунтларни ишга тушиши ва макроскопик жиҳатдан буйраклар мағиз соҳасини тўлақонлигига олиб келади, натижада, кортикал соҳада узоқ вақт давом этаётган ўткир ишемия 20 дақиқадан кейин қайтмас жараёнлар коптокча ва проксимал каналчалар эпителийларини коагуляцион некрозига олиб келади, бу эса, фильтрация жараёнини бўлмаслиги оқибатида, ЮГА коптокчалари томонидан ренин ишлаб чиқишини тормозланишига ва марказий қон томирлар тонусини кескин пасайиши ва вазодилатациясига олиб келади. Натижада қон босимнинг кескин тушиб кетиши натижасида барча аъзоларда ўткир ишемия ва гиповолемиядан азият чекишига олиб келади. Беморларни ўлими асосан



туғруқдан кейинги 4-соат ичида юз бериши юқорида келтирилган жараёнларда субкомпенсация ва тиббий аралашувлар ҳисобига бироз чўзилиши натижасида, буйрак пўстлоқ қаватида макроскопик нотекис тўлақонлик белгиларини ривожланишига олиб келади, буйрак пўстлоқ соҳасида микроскопик жиҳатдан массив кортикал некроз, проксимал ва дистал каналчалар, генли қовузлоғида массив некроз, оралиқ стромада шишларни бўлиши билан намоён бўлади. Бемор ўлимини бевосита сабаби ўткир буйраклар етишмовчилиги бўлса, билвосита сабаби полиорган етишмовчилиги билан намоён бўлади.

Хулоса. Туғруқдан кейинги эрта даврда акушерлик қон кетишида ўлим танатогенезининг асосий механизмида буйраклар кортикал некрози, периферик ва магистрал томирлар тонусининг кескин пасайиши, вазодилатация билан намоён бўлса, билвосита полиорган етишмовчилиги ривожланиши натижасида ўлимга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Owen MD, Cassidy AL, Weeks AD. Why do women still die from obstetric hemorrhage? Descriptive overview of high and low resource perspectives. *Int J Obstet Anesth.* 2021;46:102982.

2. Evensen A, Anderson JM, Fontaine P. Postpartum hemorrhage: prevention and treatment. *Am Fam Physician.* 2017;95:7:442-449.

3. Клинические рекомендации (протокол лечения) Министерства здравоохранения Российской Федерации №01-02/366 от 24.05.21. «Послеродовое кровотечение». Ссылка активна на 23.03.22. Clinical recommendations (treatment protocols) of Ministry of health of Russian Federation №01-02/366 from 24.05.2021 «Postpartum hemorrhage». Accessed March 23, 2022. (In Russ.).

4. Лебеденко Е.Ю., Розенберг И.М., Михельсон А.Ф., Михельсон А.А. Отдаленные последствия массивной кровопотери в родах. *Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение.* 2019;25:3:47-54. Lebedenko EYu, Rozenberg IM, Mikhel'son AF, Mikhel'son AA. Long-term consequences of massive blood loss during childbirth. *Akusherstvo i ginekologiya: novosti, mneniya, obuchenie.* 2019;25:3:47-54 (In Russ.).

5. Zaat TR, van Steijn ME, de Haan-Jebbink JM, Olf M, Stramrood CAI, van Pampus MG. Posttraumatic stress disorder related to postpartum haemorrhage: A systematic review. *Eur J Obstet, Gynecol Reprod Biol.* 2018;225:214-220.

6. Mbakwa MR, Tendongfor N, Ngunyi YL, Ngek ESN, Alemkia F, Egbe TO. Indications and outcomes of emergency obstetric hysterectomy; a 5-year review at the Bafoussam Regional Hospital, Cameroon. *BMC Pregn Childbirth.* 2021;1:323.

7. Tahmina S, Daniel M, Gunasegaran P. Emergency peripartum hysterectomy: a 14-year experience at a Tertiary Care Centre in India. *J Clin Diagn Res.* 2017;11:9:8-11.



8. Qatawneh A, Fram KM, Thikerallah F, Mhidat N, Fram FK, Fram RK, Darwish T, Abdal lat T. Emergency peripartum hysterectomy at Jordan University hospital — a teaching hospital experience. *Menopausal Rev.* 2020;19:2:66-71.
9. Gică N, Ragea C, Botezatu R, Peltecu G, Gică C, Panaitescu AM. Incidence of Emergency Peripartum Hysterectomy in a Tertiary Obstetrics Unit in Romania. *Medicina (Kaunas).* 2022;58:1:111.
10. Еспаева Р.Н. Оценка качества жизни женщин, перенесших неотложную гистерэктомию в связи с массивными акушерскими кровотечениями. Здоровье матери и ребенка. 2014;2:25-28. Espaeva RN. Assessment of the quality of life of women who underwent emergency hysterectomy due to massive obstetric bleeding. *Zdorov'e materi i rebenka.* 2014;2:25-28. (In Russ.).
11. Зелюк С.В., Минович Е.Д. Функции яичников после гистерэктомии. Таврический медико-биологический вестник. 2012;2:132-135. Zelyuk SV, Mirovich ED. Ovarian function after hysterectomy. *Tavrisheskii mediko-biologicheskii vestnik.* 2012;2:132-135. (In Russ.).
12. Радынова С.Б., Кеняйкина А.Г., Лодырева М.С., Горбунова К.А. Обзор патогенетических аспектов формирования постгистерэктомического синдрома. *Colloquium-journal.* 2019;30:53-56. Radynova SB, Kenyaikina AG, Lodyreva MS, Gorbunova KA. Review of pathogenetic aspects of the formation of posthysterectomy syndrome. *Colloquium-journal.* 2019;30:53-56. (In Russ.).
13. Кахиани Е.И., Цыган В.Н., Чаава Л.И., Святлов Д.И., Сафина Н.С., Жулев С.Н. Исследование психофизиологического статуса женщин, перенесших гистерэктомию. Вестник Российской военно-медицинской академии. 2017;1:57:68-71. Kakhiani EI, Tsygan VN, Chaava LI, Svyatov DI, Safina NS, Zhulev SN. Study of the psychophysiological status of women who underwent hysterectomy. *Vestnik Rossiskoi voenno-meditsinskoi akademii.* 2017 ;1:57:68-71. (In Russ.).
14. Pilli P, Sekweyama P, Kayira A. Women's experiences following emergency peripartum hysterectomy at St. Francis hospital Nsambya. A qualitative study. *BMC Pregн Childbirth.* 2020;20:1:729.
15. Zaat TR, van Steijn ME, de Haan-Jebbink JM, Olf M, Stramrood CAI, van Pampus MG. Posttraumatic stress disorder related to postpartum haemorrhage: A systematic review. *Eur J Obstet Gynecol Reprod Biol.* 2018;225:214-220.
16. Martínez-Vazquez S, Rodríguez-Almagro J, Hernández-Martínez A, Delgado-Rodríguez M, Martínez-Galiano JM. Long-term high risk of postpartum post-traumatic stress disorder (PTSD) and associated factors. *Journal of Clinical Medicine.* 2021;10:3:488.
17. Gaudernack LC, Michelsen TM, Egeland T, Voldner N, Lukasse M. Does prolonged labor affect the birth experience and subsequent wish for cesarean section among first-time mothers? A quantitative and qualitative analysis of a survey from Norway. *BMC Pregн Childbirth.* 2020;20:1:605.
18. Vogel TM, Homitsky S. Antepartum and intrapartum risk factors and the impact of PTSD on mother and child. *BJA Education.* 2020;20:3:89-95.



19. Carroll M, Daly D, Begley CM. The prevalence of women's emotional and physical health problems following a postpartum haemorrhage: a systematic review. *BMC Pregn Childbirth*. 2016;16:1:261.

20. Falk M, Nelson M, Blomberg M. The impact of obstetric interventions and complications on women's satisfaction with childbirth a population based cohort study including 16,000 women. *BMC Pregn Childbirth*. 2019;19:1:494.

21. Geller PA, Stasko EC. Effect of previous posttraumatic stress in the perinatal period. *J Obstet, Gynecol Neonatal Nurs*. 2017;46:6:912-922.



УДК: 618.56-005.1

ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ АКУШЕРЛИК ҚОН КЕТИШИНИНГ ЭРТА ДАВРИДА БАЧАДОНДАГИ МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР

*Шукурова Юлдуз Утқуровна
Махкамов Носиржон Жўраевич
Шодиева Хуршида Тухтасиновна*

*Алфраганус университети ўқитувчиси, PhD
Андижон давлат тиббиёт институти, т.ф.д., профессор
Тошкент давлат тиббиёт университети т.ф.д., доцент*

Аннотация: Туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишининг эрта даври бу туғруқдан кейинги 2 соатгача бўлган давр ҳисобланиб, бу даврда йўлдошни хам кўчиб тушиши билан тугалланиши керак. Турли хил патологияларда бу жараён ўзгариши, плацентани бачадон деворига ўсиб кириши натижасида, қон кетишини давом этиши, қонни реологик хусусиятларини издан чиқиши, ивиш тизими етишмаслиги оқибатида, гипокоагуляция ва коагулопатиялар юзага келади. Бачадонни морфологик жиҳатдан ушбу даврдаги ўзгаришлари бачадон танаси томирлари коллапси ва плацентар қолдиқлар орқали қон кетиши билан изоҳланади.

Калит сўзлар: акушерлик қон кетиши, плацента, ҳомиладорлик, туғруқ.

Муаммонинг долзарблиги. Дунёда репродуктив ёшдаги аёлларда туғруқдан кейинги акушерлик патологиялари айнан, қон кетишлар, жами қон кетишларни 50% ни ташкил этиб, ушбу патологиядан ҳар йили 260 мингдан ортиқ оналар ўлими аниқланади. Дунё рейтингда оналар ўлими ЮНИСЕФ ва ЖССТ 2023 йилдаги маълумотларига кўра, айнан, туғруқдан кейинги акушерлик қон кетиши бўйича оналар ўлими 260000 тани, 92% ҳолати асосан, Жанубий Осиё, Африка давлатлари, Жанубий Саҳара давлатларига тўғри келса, АҚШ, Буюк Британия, Европа давлатларида бу кўрсаткич 100000 тага 1,3% ни ташкил этган. Россия Федерациясида туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишларидан юзага келадиган оналар ўлими бўйича етакчи ўринда туради.

Акушерлик қон кетиши оналар ўлими кесимда етакчи ўринда бўлиб, 70% ни ташкил этади. МДХ давлатлари орасида акушерлик қон кетиши бўйича ЮНИСЕФ ва ЖССТ 2023 йилдаги маълумоти бўйича, ҳар 100000 та ҳомиладорликка Озарбайжон республикасида 34,7 та, Туркманистонда 27,9 та, Тожикистонда 13,86 та, Қирғизистонда 41,9 тани, Ўзбекистонда 26.46% та, Қозоғистонда 9,58 тани ташкил этганлиги келтирилган. Акушер гинекологлар ассоциацияси The International Federation of Gynecology and Obstetrics — FIGO жамияти маълумотларига кўра, туғруқдан кейинги қон кетишларнинг асосий учраши асосан 6 ҳафталик муддатда 2-3 ҳафтасида энг юқори ўлим кўрсаткичи 81,8% ни ташкил этганлиги келтирилган. АҚШнинг Америка акушер ва гинекологлар коллегияси жамияти (American College of Obstetricians and



Gynecologists) берган 2022 йилдаги маълумотлари бўйича, акушерлик қон кетишлари туғруқдан кейинги 12-хафтагача бўлган муддатни 1 ва 3 хафталигида энг кўп кузатилишини бачадон атонияси билан бевосита боғлиқлигини тасдиқлашган.

Акушерлик қон кетиши бўйича хориж амалиёти бўйича, туғруқдан кейинги даврда реабилитацияни эрта бошлаш бачадон атониясини олдини олишга қаратилган муолажаларни тўлиқ ташкил этилганлиги, қон кетишларни қарийб 70% га қисқаришига олиб келса, МДХ давлатларида туғруқдан кейинги даврда 5-7 суткада оналарда эрта уйга чиқариш бачадон атониясига мойиллик юқори бўлган контингентда турли хил кўринишидаги қон кетишларга олиб келишини тасдиқлайди, натижада, оналар ўлими кўрсаткичини ўртача 100000 та тирик туғруққа нисбатан, 3,8-12,3% гача ошишига олиб келади.

Муҳокама ва натижалар. Туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишини эрта даври асосан туғруқдан кейинги 2 соатгача бўлган муддат тушунилади. Бу жараён йўлдош тушгандан кейин бошланади. Бачадон ва эндометрийдаги сурункали яллиғланиш жараёнларида юзага келган ҳомиладорлик оқибатида, йўлдошни бирламчи сўрғичларини бачадон деворига турли даражада ўсиб кириши натижасида плацентар юзада очик юзаларни қолиб кетиши ва қон кетишига олиб келади. Эслатиб ўтамиз, хориж манбаларига таянилган ҳолда, бачадон шиллик қаватида қолиб кетган плацентар юзани 1см^2 дан бир соат давомида ўртача 10 мл қон кетиши аниқланган. Ҳомиладорликда бу юза ўртача $200\text{-}250\text{см}^2$ юзани эгаллашини ҳисобга олганда ўртача 1 соатда ушбу юзадан 2,0-2,5 литр қон кетиши бемор ўлимига олиб келарди. Лекин бу жараён ўртача 10-20 дақиқа давом этганлиги учун туғруқ пайтида ўртача 500 мл гача қон кетиши мақсадга мувофиқдир. Агар юқорида келтирилган бачадон ва плацентар патологиялар юз берса, туғруқдан кейинги 2 соат ичида ўртача 2-2,5 л қон кетиши ва бемор ўлимига олиб келади. Бунда асосан бачадон танаси ва барча соҳаси томирлари бўшлиғини коллапси ва мушакларни массив релаксацияси ва оралик стромада шишларни юзага келиши билан намоён бўлади. Бу ўзгаришлар асосан бачадон деворига ўсиб кирган плацентар тўқима қолдиқлари орқали амалга ошади. Морфологик жиҳатдан миометрий ва эндометрийни ўтувчи соҳаларида жуда кўплаб оралик шишлар, диапедез қон қуйилиш юзалари, артериовеноз шунтларни ўзаро туташган соҳалари аниқланади. Клиник морфологик жиҳатдан бу ҳолат бачадон атонияси билан намоён бўлади.

Хулоса.

Туғруқдан кейинги акушерлик қон кетишини асосий сабабларидан бири бу йўлдошни бачадонга чуқур ўсиб кириши, Т -қоидасини бузилиши, кесарча кесиш амалиётидан кейинги бачадон мушаклари фибрилляцияси, коагулопатия, туғруқ йўллари травмаси ва бошқалар сабаб бўлиб, бачадонда морфологик жиҳатдан томирларда коллапс ва миоцитлар тутамида релаксацияга учраган бўшашган соҳалар, оралик стромада шишларни юзага келганлиги билан характерланади.



Фойдаланилган адабиётлар

Owen MD, Cassidy AL, Weeks AD. Why do women still die from obstetric hemorrhage? Descriptive overview of high and low resource perspectives. *Int J Obstet Anesth.* 2021;46:102982.

2. Evensen A, Anderson JM, Fontaine P. Postpartum hemorrhage: prevention and treatment. *Am Fam Physician.* 2017;95:7:442-449.

3. Клинические рекомендации (протокол лечения) Министерства здравоохранения Российской Федерации №01-02/366 от 24.05.21. «Послеродовое кровотечение». Ссылка активна на 23.03.22. Clinical recommendations (treatment protocols) of Ministry of health of Russian Federation №01-02/366 from 24.05.2021 «Postpartum hemorrhage». Accessed March 23, 2022. (In Russ.).

4. Лебедеико Е.Ю., Розенберг И.М., Михельсон А.Ф., Михельсон А.А. Отдаленные последствия массивной кровопотери в родах. *Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение.* 2019;25:3:47-54. Lebedenko EYu, Rozenberg IM, Mikhel'son AF, Mikhel'son AA. Long-term consequences of massive blood loss during childbirth. *Akusherstvo i ginekologiya: novosti, mneniya, obuchenie.* 2019;25:3:47-54 (In Russ.).

5. Zaat TR, van Steijn ME, de Haan-Jebbink JM, Olf M, Stramrood CAI, van Pampus MG. Posttraumatic stress disorder related to postpartum haemorrhage: A systematic review. *Eur J Obstet, Gynecol Reprod Biol.* 2018;225:214-220.

6. Mbakwa MR, Tendongfor N, Ngunyi YL, Ngek ESN, Alemkia F, Egbe TO. Indications and outcomes of emergency obstetric hysterectomy; a 5-year review at the Bafoussam Regional Hospital, Cameroon. *BMC Pregn Childbirth.* 2021;1:323.

7. Tahmina S, Daniel M, Gunasegaran P. Emergency peripartum hysterectomy: a 14-year experience at a Tertiary Care Centre in India. *J Clin Diagn Res.* 2017;11:9:8-11.

8. Qatawneh A, Fram KM, Thikerallah F, Mhidat N, Fram FK, Fram RK, Darwish T, Abdal lat T. Emergency peripartum hysterectomy at Jordan University hospital — a teaching hospital experience. *Menopausal Rev.* 2020;19:2:66-71.

9. Gică N, Ragea C, Botezatu R, Peltecu G, Gică C, Panaitescu AM. Incidence of Emergency Peripartum Hysterectomy in a Tertiary Obstetrics Unit in Romania. *Medicina (Kaunas).* 2022;58:1:111.

10. Еспаева Р.Н. Оценка качества жизни женщин, перенесших неотложную гистерэктомию в связи с массивными акушерскими кровотечениями. *Здоровье матери и ребенка.* 2014;2:25-28. Espaeva RN. Assessment of the quality of life of women who underwent emergency hysterectomy due to massive obstetric bleeding. *Zdorov'e materi i rebenka.* 2014;2:25-28. (In Russ.).

11. Зелюк С.В., Минович Е.Д. Функции яичников после гистерэктомии. *Таврический медико-биологический вестник.* 2012;2:132-135. Zelyuk SV, Mirovich ED. Ovarian function after hysterectomy. *Tavrisheskii mediko-biologicheskii vestnik.* 2012;2:132-135. (In Russ.).



12. Радынова С.Б., Кеняйкина А.Г., Лодырева М.С., Горбунова К.А. Обзор патогенетических аспектов формирования постгистерэктомиического синдрома. *Colloquium-journal*. 2019;30:53-56. Radynova SB, Kenyaikina AG, Lodyreva MS, Gorbunova KA. Review of pathogenetic aspects of the formation of posthysterectomy syndrome. *Colloquium-journal*. 2019;30:53-56. (In Russ.).
13. Кахиани Е.И., Цыган В.Н., Чаава Л.И., Святков Д.И., Сафина Н.С., Жулев С.Н. Исследование психофизиологического статуса женщин, перенесших гистерэктомию. *Вестник Российской военно-медицинской академии*. 2017;1:57:68-71. Kakhiani EI, Tsygan VN, Chaava LI, Svyatov DI, Safina NS, Zhulev SN. Study of the psychophysiological status of women who underwent hysterectomy. *Vestnik Rossiskoi voenno-meditsinskoi akademii*. 2017 ;1:57:68-71. (In Russ.).
14. Pilli P, Sekweyama P, Kayira A. Women's experiences following emergency peripartum hysterectomy at St. Francis hospital Nsambya. A qualitative study. *BMC Pregn Childbirth*. 2020;20:1:729.
15. Zaat TR, van Steijn ME, de Haan-Jebbink JM, Olf M, Stramrood CAI, van Pampus MG. Posttraumatic stress disorder related to postpartum haemorrhage: A systematic review. *Eur J Obstet Gynecol Reprod Biol*. 2018;225:214-220.
16. Martínez-Vazquez S, Rodríguez-Almagro J, Hernández-Martínez A, Delgado-Rodríguez M, Martínez-Galiano JM. Long-term high risk of postpartum post-traumatic stress disorder (PTSD) and associated factors. *Journal of Clinical Medicine*. 2021;10:3:488.
17. Gaudernack LC, Michelsen TM, Egeland T, Voldner N, Lukasse M. Does prolonged labor affect the birth experience and subsequent wish for cesarean section among first-time mothers? A quantitative and qualitative analysis of a survey from Norway. *BMC Pregn Childbirth*. 2020;20:1:605.
18. Vogel TM, Homitsky S. Antepartum and intrapartum risk factors and the impact of PTSD on mother and child. *BJA Education*. 2020;20:3:89-95.
19. Carroll M, Daly D, Begley CM. The prevalence of women's emotional and physical health problems following a postpartum haemorrhage: a systematic review. *BMC Pregn Childbirth*. 2016;16:1:261.
20. Falk M, Nelson M, Blomberg M. The impact of obstetric interventions and complications on women's satisfaction with childbirth a population based cohort study including 16,000 women. *BMC Pregn Childbirth*. 2019;19:1:494.
21. Geller PA, Stasko EC. Effect of previous posttraumatic stress in the perinatal period. *J Obstet, Gynecol Neonatal Nurs*. 2017;46:6:912-922.



УДК: 618.19-002-006-091

**ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА КЕЧГИ РЕПРОДУКТИ ДАВРДА
АНИҚЛАНГАН КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ**

Аллаберганов Д.Ш.

Тошкент давлат тиббиёт университети

Orcid 0009-0003-1558-5101

Урганч давлат тиббиёт институти

Казакова Зайнаб Абдурахимовна

Orcid 0009-0000-3332-3090

Аллаберганов Дилшод Шавкатович

Казакова Зайнаб Абдурахимовна

email:dilshodbek9347225@mail.ru

email:zaynab1242@gmail.com

Аннотация: кўкрак безининг кечги репродуктив даврида энг кўп учрайдиган тубуляр, муциноз, медуляр ва инвазив бўлакчали аденокарциномасида асосий морфологик субстралардан бири бу хужайраларнинг массив пролифератив фаол дифференциаллашмаган тури бўлиб, аксарият, кўриш майдонида тартибсиз гиперхромли хужайраларни нотекис жойлашиши ва дағал толали бирикитрувчи тўқима билан чегаларнган кўринишида бўлиши, кечги даврда ёшга доир 40-50 ёшлиларда морфофункционал кўрсаткичлари кескин камайган кичик цитоплазмали, асосан гиперхром ядроли хужайраларни кўп бўлиши билан хараткерланади. Бу эса, ўз навбатида гормонга қарам бўлган ўсмаларда бу кўринишни энг кўп учраши билан характерланади.

Калит сўзлар: кечги репродуктив давр, кўкрак бези саратони, дуктал карцинома ва дифференциаллашмаган карцинома.

Муаммонинг долзарблиги ва зарурати: Дунёда сўнгги ўн йилликда сут бези саратони аёллар орасида энг кўп учрайдиган хавфли ўсмалар орасида етакчи ўринни эгаллаган. Дунёни нуфузли ташкилоти - GLOBOCAN (Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ва Саратон тадқиқотлари бўйича халқаро агентликнинг қўшма лойиҳаси) ҳисоботида кўра, 2022 йилда дунёда хавфли ўсма касалликлар билан ҳаётида биринчи марта касалланиш ҳолатлари 19,98 млндан юқори бўлган (MAIR, 2023). Жумладан кечги репродуктив даврда 40-50 ёшлилар орасида сут бези саратони улуши 3,15% ни такшил этган бўлиб, ўсма ташхисланган дамдан бошлаб дастлабки 5 йилликда ўлим кўрсаткичи 21,16%ни ташкил этса, 2 нчи 5 йилликда 49,16% ни такшил этиб беморлар ўсма асосрталари ва метастазланишидан нобуд бўлишади. Бу эса, ўз навбатида, юқори леталлиги бўйича, кечги репродуктив даврда аёллар оарсида 159та мамлакатда ўлим кўрсаткичи бўйича биринчи ўринда туради. АҚШ ва Европа давлатлари орасида кечги репродуктив даврда илк бор



аниқланган кўкрак беши саратони барча саратонларни 2,03% ни ташкил этса, кўкрак беши саратонлари орасида 11,9%ни ташкил этган. Демографик кўрсаткичи бўйича ривожланган давлатлар орасида кечги репродуктив дарда кўкрак беши ўсмалари ўртача 6,09% ни ташкил этиб, ривожланаётган давлатларда бу кўрсаткич 9,1% ни ташкил этади. Осиё ва Африка мамлакатларида касалланишнинг паст кўрсаткичи қайд этилган (Wong, S. M., 2018, Расулов С.Р. 2018.).

Мамлакатимизда ҳам сут беши саратони барча хавфли ўсмалар орасида биринчи ўринда туради (Тиллашайхов М.Н, 2023). 2020-2024 йиллар оралиғида кечги репродуктив даврда илк бор аниқланган кўкрак беши саратони ўртача 1715 тани ташкил этиб, 100 мингта аҳолига 6,3 ни ташкил этган. Клиник морфологик жихатдан кечги репродуктив даврда илк бор аниқланган кўкрак беши саратони асосан гормонга қарам бўлиб, таргет терапияга қийин берилиши аниқланган. Бу эса, морфологик жихатдан хориж ва МДХ давлатларида ягона кўринишда келтирилган бўлиб, аниқ бир мезонларни бўлмаслиги ташхислаш ва даволаш тактикасини белгилашда қийинчиликлар туғдиради. Бу эса, айнан аёлларни кечги репродуктив даври бўлган 40-50 ёшлилар орасида дисгормонал бузилишлар устунлиги билан ривожланадиган кўкрак беши саратонларини клиник морфологик, иммуногисокимёвий жихатдан чуқур ўрганишларни ва ташхислашда аниқ мезонлар ишлаб чиқарилишини тақозо этади.

Тадқиқот мақсади: кечги репродуктив даврда 40-50 ёшли аёллар орасида илк бор аниқланган кўкрак беши саратонини морфологик жихатларини ўрганиш.

Тадқиқотни материал ва усуллари: ЎзР РИО ва РИАТМ Хоразм филиали диспансерида руйхатдан ўтган 40-50 ёшли 101 та сут беши хавфли ўсмалари ташхисланган беморлар ташкил этади. Текширишда морфологик усуллардан гематоксилин эозин бўёғидан фойдаланилди.

Натижа ва муҳокама: Кечги репродуктив даврда морфофункционал кўрсаткичлари кескин камайган сут безларининг гиперфункцияси асосан ядроларининг катталашиши, прогестерон ва эстрогенга қарам бўлган дуктал эпителийларни ҳар хил катталиқда бўлиши фақат гормонал фаоллик билан боғлиқлигини бевосита тасдиқлайди. Бу асосан, 2 турдаги эстроген ва прогестерон гормонларига қарам кўринишдаги фаол ўсмалар бўлиб, сут беши эпителийларини ушбу гормонлар гиперпродукциясида барча сохаларида ўсиши, дуктал ва без эпителийларини пролифератив кўрсаткичларини ошиб кетиши билан ифодаланади. Морфологик жихатдан айнан гормонга қарам бўлган кўкрак беши ўсмаларни 2 хил варинатида люминал А типдаги энг кўп учрайдиган кўкрак беши саратони даволаниш кўрсаткичи бўйича ижобий бўлиб, кам агрессивлиги билан харкетрланади. Люминал В типдаги ўсмалар эса агрессив тез ўсадиган, ҳар қандай давога қийин бериладиган айниқса, HER2 манфий тури энг ёмон прогноз билан намоён бўлиб, эрта метастазланиши ва бемор ўлимига олиб келиши билан характерланади.



Айнан, В люминал типдаги кўкрак беши саратонини инвазив ўсиши дифференциаллашмаган эпителийларни қон томирлар тармоғига ўсиши, базал мембранани бутунлигини бузилишига, атрофдаги чегара тўқималарни гистолиз ва ораликда нордон табиатли тўқ пушти ва кшкимтир рангда бўялувчи мукоид бўкиш кўринишидаги метахромазия феноменини устун туриши билан характерланади. Бу эса, ўз навбатида, хавфли кўкрак беши саратонини кечги репродуктив даврда стабил ўсиш омилини кучайиши ва эстроген прогестерон гормонларини гиперпродукцияси оқибатида, атрофдаги тўқима чегараларни кескин бузилши ва бўлакча дуктал ва бўлакча алвеоляр сохаларида тартибсиз нотекис чегараланган кам дифференциаллашган гиперхром бўлган ядроли цитоплазмаси кичик бўлишида тўқ базофил киритмалара бой бўлган хужайраларнинг кўп бўлиши билан характерланади. Айнан, кечги репродуктив даврда ушбу жараёни ривожланиши хайз циклини норегуля кечиши ва беморларда доимий равишда юзага келадиган дисстресс синдроми оқибатида, кортико гипоталамо гипоталамар ва симпатол адренал тизим билан паралел холда ривожланиши оқибатида, гиперэстрогенэмия дуктал без эпителийларини сезувчанлигини кескин ошишига олиб келганлиги билан характерланади. Морфологик жихатдан тубуляр, карцинома, дуктал карцинома, муциноз карцинома, микропапилляр карцинома кўринишида учрайди.

Лобуляр карциноманинг тубуляр вариантыда ёруғ ўсма хужайраларидан иборат шакли ҳам битта беморда кузатилди, беморга дастлаб нотўғри пролифератив фиброаденома диагнози қўйилган. Шунинг учун тубуляр тузилишли ўсма патогистологик текширишда кузатилганда шошма шошарлик қилмасдан микроскопни катталаштиришни турли хил катталаштиргичга қўйиб текшириш лозим. Албатта бунда тўғри диагностика патологоанатомнинг тажрибасига ва билим савиясига бевосита боғлиқ.

Хулоса

Демак, кечги репродуктив даврда илк аниқланган кўкрак беши саратонларининг клиник морфологик турлари жуда кўп бўлиб, келиб чиқишига кўра асосан 82,5% да гормонга қарам бўлган ўсмалар энг кўп учраши аниқланди. Тадқиқотда ўрганилган материлларни 41,3% да тубуляр ва муциноз карциномлар аниқланиб клиник морфологик жихатдан даволанишга яхши берилиши, морфологик жихатдан ўсма хужайраларини базал мембранадан ўта олмаганлиги ва инвазив ўсмаганлиги билан характерланди. Микропапилляр ва медуляр карциномаларда асосан инвазив ўсиш кўкрак беши стромаси ёғ тўқимаси ва майда калибрли томирлар деворига ўсиб кириши, лимфа йўлларида деформацияни юзага келтириши оқибатида, кўплаб метастаз қиз хужайраларини миграцияланиши билан намоён бўлди. Бу эса, ўз навбатида, кечги репродуктив даврда учрган кўкоак беши карциномаларни хавфли ва летал кўрсаткичларга олиб келиш холатларини 11,7% да учрашини тасдиқлади.

Фойдаланилган адабиётлар



1. Staller P, Sulitkova J, Lisztwan J, Moch H, Oakeley EJ, Krek W. Chemokine receptor CXCR4 downregulated by von Hippel-Lindau tumour suppressor pVHL. *Nature* 2003; 425:307-311.
2. Sokolenko A.P., Savonevich E.L., Ivantsov A.O. et al. Rapid selection of BRCA1-proficient tumor cells during neoadjuvant therapy for ovarian cancer in BRCA1 mutation carriers // *Cancer Letters*. – 2017. – Vol. 397. – P. 127–132.
3. Sotiriou C, Wirapati P, Loi S et al. // Gene expression profiling in breast cancer: understanding the molecular basis of histologic grade to improve prognosis.- *J Natl Cancer Inst.*- 2006.- 98(4) p.262–272.
4. Symmans WF, Hatzis C, Liedtke C et al. // Use of genomic grade index (GGI) to predict pathologic response to preoperative chemotherapy in breast cancer.- *J Clin Oncol* 2008.- 26 (Suppl): (Abstr 541).
5. Stacker S.A., Caesar C., Baldwin M.E. et al. Vascular endothelial growth factor-D promotes the metastatic spread of cancer via the lymphatics // *Nature Med.* - 2001. - Vol. 7. - P. 186-191.
6. Schwartz R.S., Erban J.K. Timing of Metastasis in Breast Cancer // *the New England Journal of Medicine*. – 2017. – Vol. 376. – № 25. – P. 2486–2488.
7. Sokolenko A., Imyanitov E. Multigene testing for breast cancer risk assessment: an illusion of added clinical value // *Chinese Clinical Oncology*. – 2017. – Vol. 6. – № 2. – P. 15.
8. Servick K. Breast cancer. Breast cancer: a world of differences // *Science*. – 2014. – Vol. 343. – № 6178. – P. 1452–1453. 11. Nelson E.R., Wardell S.E., Jasper J.S. et al. 27-Hydroxycholesterol links hypercholesterolemia and breast cancer pathophysiology // *Science*. – 2013. – Vol. 342. – № 6162. – P. 1094–1098.
9. Strange R. Apoptosis in mouse mammary gland development / R. Strange // *Experientia*. -1991. -№47.- P.105.



УДК: 618.19-002-006-091

ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА КЕЧГИ РЕПРОДУКТИВ ДАВРДА КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ХАВФ ОМИЛЛАРИ

Аллаберганов Д.Ш.

Тошкент давлат тиббиёт университети

Orcid 0009-0003-1558-5101

Урганч давлат тиббиёт институти

Казакова Зайнаб Абдурахимовна

Orcid 0009-0000-3332-3090

Аллаберганов Дилшод Шавкатович

Казакова Зайнаб Абдурахимовна

email:dilshodbek9347225@mail.ru

email:zaynab1242@gmail.com

Аннотация: кечги репродуктив даврда кўкрак бези саратонини юзага келишида асосий фон бу прогестерон ва эстроген гормонларини гиперпродукцияси бўлиб, асосий сабаблар, менструал циклни издан чиқиши, нерегуляр жинсий ҳаёт тарзи, сурункали дситресс синдроми ва бошқа омиллар ҳисобланади. Асосий жихатларидан бири, бу гиперэстрогенэмияда барча лабил хужайралардан бири бу кўкрак бези эпителийлари бўлиб, функционал фаол ҳолатга келиши хужайраларни кескин пролиферацияси ва цитоархитектоникаси, гистиоархитектоникани издан чиқишига олиб келади. бу эса, ўз навбатида, ушбу эпителий хужайраларни метаплазияси ва дисплазиясига олиб келиши сут бези йўллари деформациясига ва хужайралар миграциясига олиб келади.

Калит сўзлар: кечги репродуктив давр, кўкрак бези саратони, дуктал карцинома ва дифференциаллашмаган карцинома.

Муаммонинг долзарблиги ва зарурати: Дунёда сўнгги ўн йилликда сут бези саратони аёллар орасида энг кўп учрайдиган хавфли ўсмалар орасида етакчи ўринни эгаллаган. Дунёни нуфузли ташкилоти - GLOBOCAN (Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ва Саратон тадқиқотлари бўйича халқаро агентликнинг қўшма лойиҳаси) ҳисоботида кўра, 2022 йилда дунёда хавфли ўсма касалликлар билан ҳаётида биринчи марта касалланиш ҳолатлари 19,98 млндан юқори бўлган (MAIR, 2023). Жумладан кечги репродуктив даврда 40-50 ёшлилар орасида сут бези саратони улуши 3,15% ни такшил этган бўлиб, ўсма ташхисланган дамдан бошлаб дастлабки 5 йилликда ўлим кўрсаткичи 21,16%ни ташкил этса, 2 нчи 5 йилликда 49,16% ни такшил этиб беморлар ўсма асосралари ва метастазланишидан нобуд бўлишади. Бу эса, ўз навбатида, юқори леталиги бўйича, кечги репродуктив даврда аёллар орасида 159та мамлакатда ўлим кўрсаткичи бўйича биринчи ўринда туради. АҚШ ва Европа давлатлари орасида кечги репродуктив даврда илк бор аниқланган кўкрак бези саратони барча саратонларни 2,03%



ни ташкил этса, кўкрак беши саратонлари орасида 11,9%ни ташкил этган. Демографик кўрсаткичи бўйича ривожланган давлатлар орасида кечги репродуктив дарда кўкрак беши ўсмалари ўртача 6,09% ни ташкил этиб, ривожланаётган давлатларда бу кўрсаткич 9,1% ни ташкил этади. Осиё ва Африка мамлакатларида касалланишнинг паст кўрсаткичи қайд этилган (Wong, S. M., 2018, Расулов С.Р. 2018.).

Мамлакатимизда ҳам сут беши саратони барча хавфли ўсмалар орасида биринчи ўринда туради (Тиллашайхов М.Н, 2023). 2020-2024 йиллар оралиғида кечги репродуктив даврда илк бор аниқланган кўкрак беши саратони ўртача 1715 тани ташкил этиб, 100 мингта аҳолига 6,3 ни ташкил этган. Клиник морфологик жихатдан кечги репродуктив даврда илк бор аниқланган кўкрак беши саратони асосан гормонга қарам бўлиб, таргет терапияга қийин берилиши аниқланган. Бу эса, морфологик жихатдан хориж ва МДХ давлатларида ягона кўринишда келтирилган бўлиб, аниқ бир мезонларни бўлмаслиги ташхислаш ва даволаш тактикасини белгилашда қийинчиликлар туғдиради. Бу эса, айнан аёлларни кечги репродуктив даври бўлган 40-50 ёшлилар орасида дисгормонал бузилишлар устунлиги билан ривожланадиган кўкрак беши саратонларини клиник морфологик, иммуногисокимёвий жихатдан чуқур ўрганишларни ва ташхислашда аниқ мезонлар ишлаб чиқарилишини тақозо этади.

Тадқиқот мақсади: кечги репродуктив даврда 40-50 ёшли аёллар орасида илк бор аниқланган кўкрак беши саратони хавф омилларини ўрганиш.

Натижа ва муҳокама: Хоразм вилоятида иқлимнинг кескин континентал бўлиши, юқор ва паст намлик аёлларни кечги репродуктив даврида кескин стрессор омил бўлиб хизмат қилиши ва иссиқ иқлим шароитида гиперметаболизм эстроген гормонларини продукцияси ошишига олиб келади. бу эса, хар қандай лабил хужайралар жумладан репродуктив аъзолар без эпителиларини пролифератив фаоллигини ошишига олиб келади. Жумладан кўкрак беши сегментлари, бўлакчалари, кўкрак беши сут йўли эпителиларининг таъсирланишига олиб келиши аксарият хужайраларда метаплазия жараёни ривожланишига олиб келади. Клиник морфологик жихатдан эпителий хужайраларида метаплазия жараёни ўртача 1,0-1,5 йил давомида метапластик жараёнлар билан ўртача пролифератив фаол кўринишда бўлиб, оарлиқ даврда эстроген ёки прогестерон гормони дефицитини юзага келиши ушбу хужайраларда морфофункционал пасивликни юзага келиши оқибатида, кўкрак бешида турли сегментларида шишилар, оғриқлар, қотиш каби ўзгаришлар юзага келиши нерегуляр даволаш муолажаларини амлага оширилиши метаплазияда турган хужайраларни неопластик трансформациясини юзага келишига олиб келади. айнан, хавф омилларидан бири бу дисстресс синдроми ҳисобланади. Хоразм вилоятида ўртача, 40-50 ёшли аёллар мустақил ҳаётида иштимоий тенглик ва миллий аънаналари бўйича, доимий равишда турли хил муаммоларда бўлиши регуляр жинсий ҳаёт тарзини издан чиқишига олиб келади. бу эса, меёрда эстроген ва прогестерон



гормонларини пролифератив фаоллик даврини G₁₋₂ фазасида туриб қолишига олиб келади.

Хулоса

Демак, кечги репродукти даврда кўкрак беши саратони юзага келиши сурункали тарзда гиперэстрогенэмия ва прогестеронни кам миқдорда ишлаб чиқилиши оқибатида, без эпителий хужайраларини метаплазияси ва пролифератив шаклга келишини асосий хавф омиллари бўлиб, сурункали дистресс синдроми, дисменорея, хайз циклини муттасил равишда издан чиқиши ва стрессор омилларни давомий бўлиши билан бевосита боғлиқлиги очикланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Staller P, Sulitkova J, Lisztwan J, Moch H, Oakeley EJ, Krek W. Chemokine receptor CXCR4 downregulated by von Hippel-Lindau tumour suppressor pVHL. *Nature* 2003; 425:307-311.
2. Sokolenko A.P., Savonevich E.L., Ivantsov A.O. et al. Rapid selection of BRCA1-proficient tumor cells during neoadjuvant therapy for ovarian cancer in BRCA1 mutation carriers // *Cancer Letters*. – 2017. – Vol. 397. – P. 127–132.
3. Sotiriou C, Wirapati P, Loi S et al. // Gene expression profiling in breast cancer: understanding the molecular basis of histologic grade to improve prognosis. - *J Natl Cancer Inst.*- 2006.- 98(4) p.262–272.
4. Symmans WF, Hatzis C, Liedtke C et al. // Use of genomic grade index (GGI) to predict pathologic response to preoperative chemotherapy in breast cancer. - *J Clin Oncol* 2008.- 26 (Suppl): (Abstr 541).
5. Stacker S.A., Caesar C., Baldwin M.E. et al. Vascular endothelial growth factor-D promotes the metastatic spread of cancer via the lymphatics // *Nature Med.* - 2001. - Vol. 7. - P. 186-191.
6. Schwartz R.S., Erban J.K. Timing of Metastasis in Breast Cancer // *the New England Journal of Medicine*. – 2017. – Vol. 376. – № 25. – P. 2486–2488.
7. Sokolenko A., Imyanitov E. Multigene testing for breast cancer risk assessment: an illusion of added clinical value // *Chinese Clinical Oncology*. – 2017. – Vol. 6. – № 2. – P. 15.
8. Servick K. Breast cancer. Breast cancer: a world of differences // *Science*. – 2014. – Vol. 343. – № 6178. – P. 1452–1453. 11. Nelson E.R., Wardell S.E., Jasper J.S. et al. 27-Hydroxycholesterol links hypercholesterolemia and breast cancer pathophysiology // *Science*. – 2013. – Vol. 342. – № 6162. – P. 1094–1098.
9. Strange R. Apoptosis in mouse mammary gland development / R. Strange // *Experientia*. -1991. -№47.- P.105.



LOTIN TILINING TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDAGI AHAMIYATI

Raxmonova Jamila

Tibbiyot fakulteti 1-kurs talabasi
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Tibbiyot fakulteti assistenti **Raximbayeva Sh.B**

Annotatsiya: Mazkur maqolada lotin tilining zamonaviy tibbiyot terminologiyasidagi oʻrni va ahamiyati keng qamrovli ilmiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida lotincha tibbiy terminlarning shakllanishi, ularning morfologik modellari, affiksial tuzilishi hamda semantik barqarorligi oʻrganildi. Lotin tiliga asoslangan terminlarning xalqaro standartlashuvdagi roli va oʻzbek tibbiy terminologiyasini boyitishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning oʻzbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xususan transliteratsiya va semantik tarjima masalalari koʻrib chiqildi. Tadqiqot natijalari tibbiyot taʼlimida lotin tilini oʻqitish zarur ekanini hamda uning amaliy samaradorligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: lotin tili, tibbiy terminologiya, morfologik model, tarjima muammolari, tibbiyot taʼlimi.

Аннотация: В статье на основе комплексного научного анализа рассматривается роль и значение латинского языка в современной медицинской терминологии. Исследуются процессы формирования латинских медицинских терминов, их морфологические модели, аффиксальная структура и семантическая устойчивость. Особое внимание уделяется роли латинского языка в международной стандартизации медицинской терминологии и его значению для развития узбекской медицинской лексики. Анализируются проблемы перевода латинских терминов на узбекский язык, включая transliteratsiyu i semanticheskiy perevod. Rezultaty issledovaniya podtverzhdayut neobkhodimosty izucheniya latinskogo yazyka v sisteme meditsinskogo obrazovaniya.

Ключевые слова: латинский язык, медицинская терминология, морфологические модели, проблемы перевода, медицинское образование.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role and importance of the Latin language in modern medical terminology. The study examines the formation of Latin medical terms, their morphological models, affixal structures, and semantic stability. Particular attention is paid to the role of Latin in the international standardization of medical terminology and its contribution to the development of Uzbek medical terminology. The paper also analyzes translation issues, including transliteration and semantic rendering of Latin-based terms into



Uzbek. The findings demonstrate the necessity and practical effectiveness of teaching Latin in medical education.

Keywords: Latin language, medical terminology, morphological models, translation issues, medical education.

Kirish (Introduction): Zamonaviy tibbiyot fanida terminologiya nafaqat ilmiy tafakkur vositasi, balki klinik amaliyot, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tibbiy atamalarning aniq, lo'nda va yagona mazmunga ega bo'lishi shifokorlar, tadqiqotchilar hamda talabalar o'rtasidagi kasbiy muloqotning to'g'ri tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shu sababli tibbiy terminologiyaning shakllanishi va rivoji doimo ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelgan. Tarixiy jihatdan tibbiyot fanining rivojlanishi lotin tili bilan chambarchas bog'liq. Antik davr va o'rta asrlarda lotin tili Yevropa ilm-fanining asosiy tili bo'lib, tibbiy bilimlar aynan shu til orqali avloddan avlodga yetkazilgan. Bugungi kunda ham anatomik nomenklatura, kasalliklar tasnifi, farmakologik vositalar nomlanishi va klinik tashxislarda lotin tiliga tayangan terminlar ustuvorlik qiladi.

Globalashuv sharoitida tibbiyot fanining xalqaro integratsiyasi kuchayib borar ekan, yagona terminologik tizimga bo'lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Lotin tili bu jarayonda universal ilmiy til sifatida turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun umumiy tushuncha maydonini yaratadi. Shu jihatdan lotin tilining tibbiy terminologiyadagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi lotin tilining tibbiy terminologiyadagi o'rni va ahamiyatini lingvistik hamda amaliy nuqtayi nazardan keng yoritishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: lotincha tibbiy terminlarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash, ularning morfologik modellari va semantik barqarorligini tahlil qilish, shuningdek, o'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirishdagi rolini asoslash.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston–2030 strategiyasi hamda Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ilm-fan va ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash hamda milliy terminologiyani rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi.

Metodlar (Methods): Tadqiqot jarayonida zamonaviy lingvistik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Asosiy metod sifatida tavsifiy-tahliliy usul qo'llanilib, lotincha tibbiy terminlarning tuzilishi, morfologik modeli va semantik xususiyatlari o'rganildi. Qiyosiy usul orqali lotincha terminlarning o'zbek tiliga tarjimasi va moslashuvi tahlil qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro anatomik nomenklatura, klinik tibbiyot va farmakologiya sohalariga oid terminlar tanlab olindi. Shuningdek, zamonaviy tibbiy lug'atlar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar hamda elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tadqiqotda so'nggi besh yil ichida chop etilgan ilmiy manbalarga alohida e'tibor qaratildi.



Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari yordamida ilmiy xulosalar chiqarildi. Metodik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar (Results): Tadqiqot natijasida lotin tilining tibbiy terminologiyadagi asosiy lingvistik manba ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, lotincha terminlar aniq morfologik modellar asosida shakllanib, tibbiy tushunchalarning tizimli va izchil ifodalanishiga xizmat qiladi. Bu holat terminlarning semantik barqarorligini ta'minlab, ilmiy muloqotda aniqlikni oshiradi.

Aniqlanishicha, tibbiy terminlarda eng ko'p uchraydigan affikslar –itis (yallig'lanish), –oma (o'sma), –osis (patologik holat), –algia (og'riq), –logia (fan sohasi) bo'lib, ular orqali kasalliklar, patologik jarayonlar va fan tarmoqlari nomlanadi. Ushbu affikslar yordamida hosil qilingan terminlar xalqaro miqyosda bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Quyidagi jadvalda lotincha tibbiy terminlarning morfologik modeli, ularning ma'nosi va o'zbek tilidagi muqobillari keltiriladi:

1-jadval. Lotincha tibbiy terminlarning morfologik modellari va o'zbekcha muqobillari

Lotincha termin	Morfologik modeli	Termin ma'nosi	O'zbekcha muqobili
Gastritis	gastr- + –itis	Oshqozon yallig'lanishi	Gastrit
Nephrosis	nephr- + –osis	Buyrakning patologik holati	Nefroz
Myoalgia	myo- + –algia	Mushak og'rig'i	Miyalgiya
Carcinoma	carcin- + –oma	O'sma turi	Karsinoma
Cardiologia	cardi- + –logia	Yurak haqidagi fan	Kardiologiya

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, lotincha terminlarning aksariyati o'zbek tilida transliteratsiya asosida qabul qilingan bo'lib, bu ilmiy aniqlikni saqlashga xizmat qiladi. Biroq ayrim hollarda terminlarning ma'nosini ochib beruvchi izohli tarjimalardan foydalanish zarurati ham yuzaga keladi.

Natijalar tibbiyot ta'limida lotin tilini chuqur o'rganish talabalar uchun terminologik savodxonlikni oshirishi, klinik fanlarni o'zlashtirishni yengillashtirishi va xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlash imkoniyatini kengaytirishini ko'rsatdi.

Muhokama va xulosa (Discussion / Conclusion): Tadqiqot natijalari lotin tilining tibbiy terminologiyadagi ahamiyati faqat tarixiy hodisa emas, balki zamonaviy tibbiyot amaliyoti va ta'lim tizimi uchun ham dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Lotincha terminlarning xalqaro standartlashganligi ilmiy muloqotda aniqlikni ta'minlaydi va turli tillarda so'zlashuvchi mutaxassislar o'rtasida tushunmovchiliklarning oldini oladi.



Muhokama jarayonida aniqlanganki, o'zbek tibbiy terminologiyasini rivojlantirishda lotin tiliga tayangan holda terminlarni ilmiy-me'yoriy asosda moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon terminologik bir xillikni ta'minlab, milliy tibbiy tilning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, lotin tilini tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida chuqur va tizimli o'qitish, uni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari tibbiy terminologiyani takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va O'zbekiston tibbiyot fanining xalqaro ilmiy maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ахмедов С. (2020). Лотин тили ва тиббий терминология. Тошкент: «Меҳр-Нури».

Dasturiy lug'at: Latin Medical Terminology for Students, Cambridge University Press, 2019.

Eshbayeva, N. (2023). "Features of the Transfer of Meanings of Latin and Greek Medical Terms into Russian and Uzbek Languages". Academia Science Repository. <https://academiascience.com>

Movlanova, R. (2025). "Typological Problems of Medical Texts and Terms from English into Uzbek". World Bulletin of Social Sciences.



ЭНДОТЕЛИАЛ ДИСФУНКЦИЯ ВА 2-ТУР ҚАНДЛИ ДИАБЕТДА ДИАБЕТИК НЕФРОПАТИЯНИНГ ПАТОГЕНЕЗИГА ТАЪСИРИ

Б.С.Солижонов, Саттаров О.Х.
Андижон давлат тиббиёт институти

Аннотация: 2-тур қандли диабет (2-ТҚД) замонавий тиббиётнинг энг долзарб муаммоларидан бири бўлиб, унинг энг оғир ва кенг тарқалган асоратларидан бири диабетик нефропатия ҳисобланади. Диабетик нефропатия сурункали буйрак етишмовчилигининг асосий сабабларидан бири бўлиб, беморлар ҳаёт сифати ва прогнозини сезиларли даражада ёмонлаштиради. Сўнгги тадқиқотлар диабетик нефропатия ривожланишида нафақат гипергликемия ва метаболик бузилишлар, балки эндотелиал дисфункция муҳим патогенетик омил сифатида иштирок этишини кўрсатмоқда. Эндотелиал дисфункция қон томир деворининг вазорегуляция, яллиғланишга қарши ҳимоя, тромборезистентлик ва қон айланишини таъминлаш функцияларининг бузилиши билан намоён бўлади. Шунингдек, гипергликемия, инсулинрезистентлик, оксидловчи стресс ва яллиғланиш жараёнлари эндотелий хужайраларининг функционал фаоллигини пасайтиради, азот оксиди биосинтезини чеклайди ва вазоконстриктор омиллар фаоллигини оширади. Натижада гломеруляр гиперфилтрация, мезангиал хужайралар пролиферацияси ва фиброз жараёнлари фаоллашади, бу эса диабетик нефропатия ривожланишига олиб келади. Ушбу тезисда 2-ТҚДда диабетик нефропатия ривожланишида эндотелиал дисфункциянинг патогенетик ўрни, унинг клиник-биокимёвий ва молекуляр механизмлари таҳлил қилиниши, шунингдек эндотелиал дисфункция кўрсаткичларининг диабетик нефропатияни эрта ташхислаш ва прогрессиясини баҳолашдаги аҳамияти аниқланади.

Калит сўзлар *диабетик нефропатия, эндотелиал дисфункция, гипергликемия*

Кириш: Диабетик нефропатия (ДН) – қандли диабет асорати сифатида ривожланадиган сурункали буйрак касаллиги. У сурункали буйрак етишмовчилигининг асосий сабабларидан бири ҳисобланиб, беморлар ҳаёт сифатини сезиларли даражада ёмонлаштиради. 2-ТҚДда ДН ривожланиши глобал тиббий ва иқтисодий муаммо бўлиб, унинг профилактикаси ва эрта ташхиси муҳим аҳамиятга эга.

Мавзунинг долзарблиги: 2-ТҚД бутун дунёда юқори тарқалишга эга ва диабетик нефропатия унинг энг оғир асоратларидан бири. ДН беморларнинг ҳаёт сифатини ёмонлаштириб, гемодиализ ва трансплантация эҳтиёжини кўпайтириб, соғлиқни сақлаш тизимида катта иқтисодий юк келтиради. Сўнгги тадқиқотлар ДН ривожланишида эндотелиал дисфункциянинг мустақил ва муҳим патогенетик омил эканлигини кўрсатмоқда. Шу боис,



эндотелиал дисфункцияни ўрганиш ДНни эрта аниқлаш ва профилактика қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Мақсад ва вазифалар: 2-ТҚДда диабетик нефропатия ривожланишида эндотелиал дисфункциянинг патогенетик ўрнини таҳлил қилиш.

1. Диабетик нефропатиянинг этиопатогенезини таҳлил қилиш;
2. Эндотелиал дисфункциянинг клиник ва молекуляр механизмларини ўрганиш;
3. Эндотелиал дисфункция кўрсаткичларининг диабетик нефропатияни эрта ташхислаш ва прогрессиясини баҳолашда аҳамиятини аниқлаш.

ХУЛОСА: Диабетик нефропатия – 2-ТҚДнинг энг оғир асоратларидан бири бўлиб, эндотелиал дисфункция, гипергликемия ва оксидловчи стресс унинг патогенезида муҳим рол ўйнайди. Эрта ташхис ва патогенетик даволаш стратегиялари ДНнинг прогрессиясини секинлаштириш ва сурункали буйрак етишмовчилиги хавфини камайтириш имконини беради.



“МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ УСУЛИДА МУЛЬТИВИТ
ЙИҒМАСИНИНГ ТАРКИБИНИ ТАНЛАШ”

Реипназаров Б.Д., Хайдаров В.Р.

Бердоқ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
Тошкент фармацевтика институти
E-mail: vosiljonxaydarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада итбурн (*Rosa canina L.*), қорақат (*Ribes nigrum L.*), чаканда (*Hippophae rhamnoides L.*), қичитқийт (*Urtica dioica L.*) ва мойчечак (*Calendula officinalis L.*) хомашёлари асосида витаминларга бой фитойиғма таркибини илмий жиҳатдан асослаб танлаш масалалари ўрганилди. Тадқиқот жараёнида адабиётлар таҳлили, экспериментал маълумотлар ва математик моделлаш усулларидан фойдаланилди. Математик моделлаш натижасида фитойиғманинг оптимал таркиби аниқланиб, унинг функционал ва фармакологик жиҳатдан мақбул экани исботланди. Олинган натижалар витаминларга бой фитотерапевтик йиғмаларни яратиш ва уларнинг таркибини илмий асосда танлашда амалий аҳамиятга эга.

КИРИШ (INTRODUCTION)

Амалиётда фитойиғмаларни шакллантириш кўп ҳолларда эмпирик ёндашувларга асосланади, бу эса таркибнинг оптимал эмаслигига олиб келиши мумкин. Шу сабабли фитойиғма компонентларининг улушларини илмий асосда аниқлаш, биологик фаол моддалар миқдорини максималлаштириш ва уларнинг ўзаро таъсирини ҳисобга олиш долзарб ҳисобланади. Бу масалани ҳал этишда математик моделлаш усулларидан фойдаланиш юқори самара беради.

МЕТОД (METHODS)

Фитойиғма таркибини илмий жиҳатдан асослаб танлаш мақсадида тадқиқотда математик моделлаштиришнинг аралашма моделлари (mixture models) қўлланилди. Ушбу ёндашув кўп компонентли тизимларда ҳар бир компонент улушининг умумий самарага таъсирини баҳолаш имконини беради.

Аралашма модели асослари. Фитойиғма бешта компонентдан иборат бўлганлиги сабабли моделлаштиришда қуйидаги шарт қабул қилинди:

$$x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5 = 1$$

бу ерда:

x_1 — итбурн (*Rosa canina L.*),

x_2 — қорақат (*Ribes nigrum L.*),

x_3 — чаканда (*Hippophae rhamnoides L.*),

x_4 — қичитқийт (*Urtica dioica L.*),

x_5 — мойчечак (*Calendula officinalis L.*) хомашёсининг улуши.



Барча ўзгарувчилар $0 \leq x_i \leq 1$ оралиғида бўлиб, уларнинг йиғиндиси 1 га тенг.

Регрессия модели. Фитойиғманинг самарадорлик кўрсаткичлари (C витамини миқдори, антиоксидант фаоллик) жавоб функциялари сифатида қабул қилинди ва қуйидаги кўп омилли регрессия модели тузилди.

Экспериментал дизайн. Модел параметрларини аниқлаш учун **simplex-lattice** туридаги аралашма дизайнлар қўлланилди. Ҳар бир дизайн нуқтасида фитойиғманинг экспериментал намуналари тайёрланиб, белгиланган физик-кимёвий ва биологик кўрсаткичлар аниқланди.

Оптималлаштириш усули. Оптимал таркибни аниқлаш учун кўп мезонли оптималлаштириш усули қўлланилди. Асосий мезонлар:

- C витамини миқдорини максималлаштириш;
- антиоксидант фаолликни ошириш;
- органолептик хусусиятларнинг қабул қилинадиган даражада бўлиши.

Мезонлар умумлаштирилган функция орқали баҳоланди.

Модель адекватлигини баҳолаш. Тузилган математик моделларнинг ишончлилиги детерминация коэффициенти (R^2), Фишер критерийси ва р-қийматлар орқали баҳоланди. R^2 қийматининг 0,9 дан юқори бўлиши моделнинг адекватлигини тасдиқловчи мезон сифатида қабул қилинди.

График интерпретация. Моделлаш натижалари жавоб юзаси (response surface) ва контур диаграммалар орқали визуаллаштирилди, бу фитойиғма таркибидаги компонентлар улушларининг оптимал нисбатларини аниқлаш имконини берди.

НАТИЖАЛАР (RESULTS)

Қурилган кўп омилли регрессия моделлари юқори ишончлилиikka эга бўлиб, детерминация коэффициенти (R^2) C витамини учун 0,93, антиоксидант фаоллик учун эса 0,91 ни ташкил этди. Бу фитойиғма таркиби ва жавоб функциялари ўртасида мустақкам корреляцион боғлиқлик мавжудлигини кўрсатади.

Жавоб юзаси таҳлили натижасида фитойиғманинг оптимал таркиби аниқланди. Оптимал вариантда C витамини ва антиоксидант фаоллик кўрсаткичлари бир вақтнинг ўзида максимал қийматларга яқинлашди.

Фитойиғманинг оптимал таркиби. Математик моделлаш ва экспериментал тасдиқ натижасида фитойиғманинг қуйидаги оптимал таркиби таклиф этилди:

Ўсимлик хомашёси	Улуши, %
Итбурн (<i>Rosa canina L.</i>)	30
Қорақат (<i>Ribes nigrum L.</i>)	20
Чаканда (<i>Hippophae rhamnoides L.</i>)	20
Қичитқиўт (<i>Urtica dioica L.</i>)	15
Мойчечак (<i>Calendula officinalis L.</i>)	15

Олинган натижалар танланган фитойиғма таркибининг витаминларга бойлиги, юқори антиоксидант фаолликка эгаллиги ва компонентлар ўртасидаги ўзаро синергетик таъсир мавжудлигини кўрсатди. Математик моделлаш усули



фитойиғма таркибини оптималлаштиришда самарали экани исботланди ҳамда экспериментал натижалар билан тасдиқланди.

МУНОЗАРА (DISCUSSION)

Математик моделлаш усулини қўллаш фитойиғма таркибини эмпирик йўл билан эмас, балки аниқ ҳисоб-китоблар асосида танлаш имконини берди. Жавоб юзаси таҳлили оптимал нисбатларни визуал аниқлашга ёрдам бериб, бир вақтнинг ўзида бир нечта биологик кўрсаткичларни максималлаштиришга эришилди. Бу эса кўп компонентли фитотерапевтик воситаларни ишлаб чиқишда ушбу ёндашувнинг юқори амалий аҳамиятга эга эканини кўрсатади.

ХУЛОСА (CONCLUSION)

Математик моделлаш усули фитойиғма таркибини эмпирик ёндашувларсиз, аниқ ҳисоб-китоблар асосида оптималлаштириш имконини бериб, кўп компонентли фитотерапевтик йиғмаларни ишлаб чиқишда самарали илмий ёндашув сифатида тавсия этилади. Олинган натижалар витаминларга бой профилактик ва қўллаб-қувватловчи фитотерапевтик воситаларни яратишда амалий аҳамиятга эга бўлиб, кейинги фармакологик ва клиник тадқиқотлар учун асос бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Муродов А.М., Абдуллаев Ш.Ф. Доривор ўсимликлар ва фитотерапия асослари. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2018. – 320 б.
2. Каримов И.Р., Юсупов Х.Т. Фитопрепаратлар технологияси. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020. – 256 б.
3. Myers R.H., Montgomery D.C., Anderson-Cook C.M. Response Surface Methodology: Process and Product Optimization Using Designed Experiments. – 4th ed. – New York: Wiley, 2016.



“ВИТАМИНЛАРГА БОЙ ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАР АСОСИДА ФИТОЙИҒМА ТАРКИБИНИ ТАНЛАШ”

Реипназаров Б.Д., Хайдаров В.Р.

Бердоқ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Тошкент фармацевтика институти

E-mail: vosiljonxaydarov@mail.ru

АННОТАЦИЯ: Ушбу илмий мақолада витаминларга бой доривор ўсимликлар асосида самарали фитойиғма таркибини танлаш масалалари ўрганилган. Тадқиқотда маҳаллий ва кенг тарқалган доривор ўсимликларнинг витамин таркиби, биологик фаол моддалари ҳамда уларнинг фармакологик хусусиятлари таҳлил қилинган. Фитойиғма таркибини шакллантиришда ўсимлик компонентларининг ўзаро мувофиқлиги, синергик таъсири ва хавфсизлик омилларига алоҳида эътибор қаратилган. Илмий манбалар таҳлили ҳамда тажрибавий маълумотлар асосида витамин етишмовчилигини бартараф этиш, иммунитетни мустаҳкамлаш ва умумий тонусни оширишга қаратилган фитойиғманинг оптимал таркиби таклиф этилган. Олинган натижалар фитотерапия ва фармацевтика амалиётида қўллаш учун амалий аҳамиятга эга.

КИРИШ (INTRODUCTION)

Доривор ўсимликлар таркибида табиий витаминлар (асосан С, А, Е ва В гуруҳи витаминлари), минерал моддалар, флавоноидлар, органик кислоталар ва бошқа биологик фаол бирикмалар мавжуд бўлиб, улар организмга юмшоқ ва комплекс таъсир кўрсатади. Фитойиғмаларни ишлаб чиқишда асосий масалалардан бири - уларнинг таркибини илмий асосланган ҳолда танлашдир. Бунда ҳар бир ўсимликнинг витамин таркиби, фармакологик таъсири, ўзаро мувофиқлиги ҳамда хавфсизлик кўрсаткичлари ҳисобга олиниши лозим. Нотўғри танланган компонентлар фитойиғманинг самарадорлигини пасайтириши ёки ножўя таъсирларга сабаб бўлиши мумкин. Шу муносабат билан мазкур тадқиқотнинг мақсади витаминларга бой доривор ўсимликлар асосида фитойиғма таркибини танлашнинг илмий асосларини ўрганиш, адабиётлар таҳлили ҳамда амалий маълумотлар асосида самарали ва хавфсиз фитойиғма таркибини таклиф этишдан иборат.

МЕТОД (METHODS)

Тадқиқот объекти сифатида маҳаллий ва фармакогнозия амалиётида кенг қўлланиладиган витаминларга бой доривор ўсимликлар, жумладан итбурн (*Rosa canina L.*), қорақат (*Ribes nigrum L.*), чаканда (*Hippophae rhamnoides L.*), кичитқийт (*Urtica dioica L.*) ва мойчечак (*Calendula officinalis L.*) хомашёлари танлаб олинди. Ўсимлик хомашёси стандарт талабларга мувофиқ ҳолда йиғилди, қуритилди ва сақланди.

Ўсимлик хомашёсининг ҳаққонийлигини аниқлаш учун морфологик ва



микроскопик таҳлил усуллари қўлланилди. Бунда ўсимликларнинг ташқи белгиларини ўрганиш ҳамда микроскоп остида анатомик тузилишини текшириш орқали тури тасдиқланди. Хомашёнинг сифат кўрсаткичлари — намлик миқдори, кулдорлик даражаси ва механик қўшимчалар миқдори Давлат фармакопеяси талаблари асосида аниқланди. Витамин таркибини аниқлаш учун қуйидаги лаборатория усулларидан фойдаланилди:

- витамин С миқдорини аниқлашда 2,6-дихлорфенолиндофенол билан титриметрия усули;
- каротиноидлар (витамин А прекурсорлари) миқдорини аниқлашда спектрофотометрия усули;
- витамин Е (токофероллар) миқдорини аниқлашда ультрабинафша спектроскопия усули;
- В гуруҳи витаминларини баҳолашда хроматографик таҳлил усуллари қўлланилди.

Фитойиғма тайёрлаш учун танланган ўсимлик хомашёлари белгиланган нисбатларда аралаштирилди. Тайёр фитойиғманинг органолептик кўрсаткичлари (ранг, ҳид, таъм) ҳамда сувли экстракт олиш қобилияти экспериментал равишда баҳоланди.

НАТИЖАЛАР (RESULTS)

Тадқиқот натижасида витаминларга бой маҳаллий доривор ўсимликлар таркиби таҳлил қилиниб, улар асосида фитойиғма учун оптимал комбинация танлаб олинди. Адабиётлар таҳлили ва лаборатор тадқиқотлар натижасида фитойиғма таркибига киритилган ўсимликларнинг витамин таркиби, биологик фаол моддалари аниқланди.

Натижалар шуни кўрсатдики, энг юқори С витамини миқдори итбурун ва наъматак таркибида аниқланди, А ва Е витаминлари эса асосан чаканда мевасида юқори концентрацияда учради.

Ўсимликларни танлашда қуйидаги мезонлар асос қилиб олинди:

- витамин таркибининг бойлиги;
- витаминларнинг ўзаро синергик таъсири;
- хавфсизлик ва маҳаллий хомашё мавжудлиги.

Таҳлиллар асосида қуйидаги нисбатда фитойиғма таркиби таклиф этилди:

- итбурғун меваси – **30%**;
- чаканда меваси – **25%**;
- қичитқи барги – **20%**;
- ромашка гули – **15%**;
- наъматак барги – **10%**.

МУНОЗАРА (DISCUSSION)

Статистик таҳлиллар натижалари фитойиғма таркибида витамин С миқдори ҳамда антиоксидант фаоллик кўрсаткичларидаги фарқлар ишончли эканини ($p < 0,05$) тасдиқлади. Бу эса таклиф этилган фитойиғма таркибининг илмий асосланганлигини ва уни профилактик ҳамда қўллаб-қувватловчи терапия воситаси сифатида қўллаш мумкинлигини кўрсатади.



Шу билан бирга, тадқиқот маълум чекловларга эга. Жумладан, таҳлиллар фақат лаборатория шароитида амалга оширилди ва клиник самарадорлик баҳоланмади. Келгусида фитойиғманинг биокирувчанлиги, токсикологик хавфсизлиги ҳамда клиник таъсири бўйича кўшимча тадқиқотлар ўтказиш мақсадга мувофиқ.

Умуман олганда, олинган натижалар витаминларга бой доривор ўсимликлар асосида тайёрланган фитойиғма юқори биологик қийматга эга бўлиб, фармацевтик амалиётда ва профилактик фитотерапияда истиқболли восита сифатида қўлланилиши мумкинлигини кўрсатади.

ХУЛОСА (CONCLUSION)

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида витаминларга бой маҳаллий доривор ўсимликлар асосида фитойиғма таркибини илмий жиҳатдан асослаб танлаш имконияти исботланди. Адабиётлар таҳлили ва лаборатория экспериментлари натижасида итбурғун ва чаканда мевалари, қичитқи барги, ромашка гули ҳамда наъматак баргидан иборат фитойиғма юқори витамин фаоллигига эга экани аниқланди. Олинган натижалар таклиф этилган фитойиғманинг витамин етишмовчилигини олдини олиш, иммун тизимни мустаҳкамлаш ва профилактик фитотерапияда қўллаш учун истиқболли восита эканини кўрсатади. Шу билан бирга, тадқиқот натижалари фитойиғма таркибини ишлаб чиқиш ва фармацевтик маҳсулот сифатида жорий этиш учун илмий асос бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙЎХАТИ

1. Абдуллаев А.А. Доривор ўсимликлар кимёси ва фармакологияси. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги нашриёт, 2018. – 320 б.
2. Муҳаммадиев Н.М., Каримов И.Ф. Фитотерапия асослари. – Тошкент: Fan va technology, 2020. – 256 б.
3. Қодиров Ж.Қ., Раҳматуллаева Д.С. Маҳаллий доривор ўсимликларнинг витамин таркиби // Фармация журнали. – 2021. – №3. – Б. 45–49.
4. Государственная фармакопея Республики Узбекистан. – Тошкент, 2021. – Т. 1–2.
5. Алимова М.Х., Саидова Н.Н. Итбурғун мевасининг биологик фаол моддалари // Биология ва фармация муаммолари. – 2020. – №2. – Б. 62–66.



CURRENT TRENDS IN CAMEL MILK PRODUCTION AND
PROCESSING: GLOBAL INSIGHTS AND UZBEKISTAN'S EMERGING
SECTOR

Yunuskhodjaeva Kh.Sh.¹,
Maksumova D.K.²,
Dodaev K.O.³,
Usmonalieva E.J.⁴

¹PhD student, Tashkent Institute of Chemical Technology,
Tashkent city, Republic of Uzbekistan

² PhD in Technical Sciences, Associate Professor,
Tashkent Institute of Chemical Technology
Tashkent city, Republic of Uzbekistan

³Doctor of Technical Sciences, Professor,
Tashkent Institute of Chemical Technology,
Tashkent city, Republic of Uzbekistan

⁴Master student, Tashkent Institute of Chemical Technology,
Tashkent city, Republic of Uzbekistan

E-mail: khumora9606@mail.com

Annotation. Camel milk is increasingly recognized as a strategic dairy resource for arid and semi-arid regions due to its nutritional value and adaptability to harsh climatic conditions. This article reviews camel milk production worldwide and in Uzbekistan, using statistical data, published studies, and recent industry examples. It also studies economic aspects, showing that camel milk is significantly more expensive than cow's milk due to lower productivity per animal; including prices for raw camel milk in Uzbekistan ranging from 40 000 to 50 000 UZS per 1 L.

Keywords: camel milk, camel milk processing, chemical composition, dairy products, global production trends, Uzbekistan.

Camel milk has gained increasing global attention over the past two decades due to its unique nutritional composition, adaptability to arid and semi-arid climates, and growing market demand driven by health, sustainability, and food security considerations. Camels are well adapted to harsh environmental conditions, where conventional dairy species often fail. As a result, camel milk is increasingly recognized as a strategic dairy resource for climate-resilient food systems.

FAOSTAT data for 2023 show that global production of raw camel milk was approximately 4.1 million tonnes in 2023 (see Figure 1), with production heavily concentrated among a small number of countries. Kenya, Somalia, and Pakistan are the clear leaders (see Figure 2), each producing close to one million tonnes, and together accounting for roughly about three quarters of world production. After these



three, production drops sharply, with the next producers (Mali and Ethiopia) below 300 thousand tonnes and the remaining countries contributing substantially smaller volumes. Overall, the figures highlight a highly concentrated global camel milk sector, dominated by a few major producers [2].




Figure 1. Production/Yield quantities of Raw milk of camel in World + (Total) in 2023 [2]





Figure 2. Production of raw camel milk: Top 10 producers in 2023 [2]



Source: FAOSTAT (December 27, 2025)

Figure 3. Production and yield quantities of raw camel milk in Uzbekistan from 2003 to 2014 [2]

Chemical composition of camel milk. Ibrahim et al., (2018) conducted a comparative study on the physicochemical and microbiological qualities of cow, camel and goat milk farmed in Khartoum states. A total of nine fresh milk samples were collected during the month July–September 2017 from the individual animals. The authors analyzed moisture, fat, protein, ash, total solid content (T.S.S.), pH, acidity, and lactose amount. Their findings (see Table 2) demonstrate clear species-specific differences in milk composition [3].

Table 2. Chemical composition of cow, camel, and goat milk [3]

Parameters	Cow	Camel	Goat
Moisture content (%)	86.34 ± 0.00 ^a	87.28 ± 0.09 ^a	87.71 ± 0.07 ^a
Fat content (%)	3.63 ± 0.01 ^b	4.30 ± 0.01 ^a	3.90 ± 0.12 ^b
Protein content (%)	3.42 ± 0.10 ^b	3.83 ± 0.15 ^a	4.81 ± 0.12 ^a
Ash content (%)	0.813 ± 0.06 ^a	0.653 ± 0.05 ^b	0.899 ± 0.34 ^a
T.S.S (%)	15.0 ± 0.05 ^a	15.28 ± 0.01 ^a	14.66 ± 0.057 ^a
pH	6.42 ± 0.01 ^b	6.32 ± 0.05 ^c	6.47 ± 0.05 ^a
Acidity (%)	0.230 ± 0.06 ^c	0.183 ± 0.08 ^b	0.153 ± 0.03 ^a
Lactose (%)	3.19 ± 0.01 ^b	4.04 ± 0.05 ^a	3.79 ± 0.70 ^c

Pak et al., (2019), studied milk samples taken from milk mixture collected from breeders of the different regions of Karakalpakstan. In their research, total of 42 samples of raw camel milk were collected at 6 different periods of the year: 21 samples during summer (June, July, and August) and 21 during winter (December, January, and February). Table 1 shows average values of the component composition of camel milk samples by the sampling period [7].



Table 1. Composition of camel milk by the sampling period [7]

Component	December	January	February	June	July	August	Average (% w/v)
Fat	5.2	5.15	5.01	4.57	4.61	4.82	4.89
Protein	4.47	4.33	4.27	3.62	3.71	3.82	4.04
Lactose	4.85	4.25	3.88	4.01	4.45	4.25	4.28
Ash	0.88	0.90	0.75	0.69	0.68	0.73	0.77
Dry matter	15.56	14.60	14.4	13.65	12.64	12.83	13.95

Camel milk prices. Smits et al., (2023) reported that dromedary milk is more expensive than cow's milk. This high price is caused by the fact that a dromedary produces only up to 6–7 L of milk per day, whereas a cow can provide between 30 and 40 L [9]. Figure 4 [9] demonstrates comparative analysis of prices of dromedary camel and cow milk in different countries.

In Uzbekistan, the price of raw camel milk varies between 40 000 and 50 000 UZS per 1 L. Many consumers in Uzbekistan consume unpasteurized raw camel milk, fermented raw camel milk (qumron or shubat), camel milk fermented kurt, and sometimes they obtained from the preparation of kurt.




Figure 4. Differential prices of dromedary camel and cow milk in different countries [9]

Camel milk producers in the world. As reported in the discussion paper on the development of a camel milk commodity standard (CAC47/CRD03, United Arab Emirates, 2024, 18 p.), the trade of Camel Milk products has evolved to include a wide variety of products such as Pasteurized Camel Milk, Condensed UHT Camel Milk, Camel Butter, Camel Milk Cheese, Camel Milk Yoghurt, Camel Milk Powder, Camel Milk Ice Cream, and Dried Milk Chocolate [1].

Exports of Camel Milk products go beyond producing countries and include countries of the European Union, China and the United States of America [10].

The Kazakh-Chinese camel milk powder production plant, placed in the industrial zone of Turkestan in Kazakhstan, is reported to produce more than 200 tons of dry Camel Milk by 2024 since its launch in 2018 [1].



In France, La Camellerie farm processes and commercializes camel milk and dairy products, including pasteurized milk, kefir, and cheeses (see Figures 4 and 5). Since June 22, 2022, La Camellerie has been the only French farm to hold European health approval for the production, processing and sale of camel milk and dairy products [6].



Figure 4. La Bosse des Fagnes cheese [6]



Figure 5. Pasteurized Chamelle milk [6]

Konuspayeva et.al (2022), in their research focused on online camel milk trade to understand the growing global interest in camel products (milk, meat or wool). According to the information, Canada and India comprise the largest number of camel milk powder suppliers with 26 and 20 companies involved, respectively. Among the other suppliers, the largest number of companies are located in Germany, Thailand, Austria and Hungary. They mention such companies as the Chamelait company (United Arab Emirati origin) in Paris, Mr. Smits' dairy camel farm in the Netherlands, Camelicious - one of the world's largest dairy camel farms based in Dubai, Daulet-Beket Farm in Kazakhstan and others [5].

Camel milk producers in Uzbekistan The company FE LLC "DIYOR BIZNES" produces pasteurized camel milk in 500 g amount (Figure 6), as well as a fermented milk drink made from camel milk - kumron in 500 g amount, under the trade mark "Dairy Kitchen" [4].



Figure 6. Camel milk produced by FE LLC "DIYOR BIZNES", Uzbekistan.

According to the information provided on the official website of the Committee for Veterinary and Livestock Development of the Republic of Karakalpakstan, in September 2025, a camel milk processing enterprise was commissioned in Muynak district as part of national initiatives to develop local agri-food processing and support camel husbandry in arid regions. The enterprise was established under Presidential Resolution PQ-307 with financial support from the Innovation



Development Agency (1.063 billion UZS). The facility produces up to ten types of camel milk-based dairy products, including yogurt, kefir, and cottage cheese (see Figure 7) [7].



Figure 7. Products of a camel milk processing enterprise in Muynak District, Republic of Karakalpakstan [7]

Conclusion. Camel milk is becoming an important dairy resource, especially in arid and semi-arid regions where traditional livestock production is limited. Global production is concentrated in a few countries, while many others, including Uzbekistan, contribute smaller but gradually increasing amounts. In Uzbekistan, the camel milk sector is still developing, but recent processing enterprises and state-supported projects indicate positive progress. Further growth will require improved processing technologies, quality control, and continued investment to strengthen the role of camel milk in the national dairy industry and food security

References:

1. FAO/WHO Codex Alimentarius Commission. Discussion paper on the development of new work on a camel milk commodity standard. CAC47/CRD03. United Arab Emirates; 2024. 18 p
2. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2025). FAOSTAT: Production / Crops and livestock products – Metadata. FAO. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>
3. Ibrahim S. I. O, Awadelkareem A. M, Ashraf S. A, Sabahelkhier M. K. Comparative Studies on the Physicochemical and Microbiological Characteristics of Different Animal Milk Collected from the Farms of Khartoum State, Sudan. Biosc.Biotech.Res.Comm. 2018;11(3)



4. Instagram page “Molochka_uz”.
https://www.instagram.com/molochka_uz/?hl=ru
5. Konuspayeva G., Faye B., Duteurtre G., 2022. Online camel milk trade: new players, new markets (Update) [translation and update of the original French article published under doi 10.19182/remvt.36746]. *Rev. Elev. Med. Vet. Pays Trop.*, 75 (4): 95-101, doi: 10.19182/remvt.37041
6. Official website of La Camelerie. <https://lacamelerie.fr/en/>
7. Official website of the Committee for Veterinary and Livestock Development of the Republic of Karakalpakstan. <https://qrvetgov.uz/uz/2025/09/06/moynaq-rayoninda-tuye-sutin-qayta-islew-shanaraqliq-karxanasi-iske-tusti/>
8. Pak, V.V., Khojimatov, O.K., Abdiniyazova, G.J. et al. Composition of camel milk and evaluation of food supply for camels in Uzbekistan. *J. Ethn. Food* 6, 20 (2019). <https://doi.org/10.1186/s42779-019-0031-5>.
9. Smits, M., Joosten, H., Faye, B., & Burger, P. A. (2023). The Flourishing Camel Milk Market and Concerns about Animal Welfare and Legislation. *Animals*, 13(1), 47. <https://doi.org/10.3390/ani13010047>
10. The Dairy News. Camel milk powder from Turkestan region is exported to China, Macau and Hong Kong. <https://dairynews.today/global/news/camel-milk-powder-from-turkestan-region-is-exported-to-china-macau-and-hong-kong.html>



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

**ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Ч.М.Аролов

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ – ЯНГИ ТАХРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯСИ
МИЛЛАТИМИЗ ВА ХАЛҚИМИЗНИНГ ХУҚУҚИЙ ТИМСОЛИ.....6

Нуратдинов Сражатдин Камалатдинович

ОММАВИЙ ТАРТИБСИЗЛИКЛАР ИШТИРОКЧИНИНГ ШАХСИЯТИ ВА
УНИНГ КРИМИНОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ЖИХАТЛАРИ.....10

Нуратдинов Сражатдин Камалатдинович

ОММАВИЙ ТАРТИБСИЗЛИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ НОРМАТИВ
ТАРТИБГА СОЛИШГА ДОИР ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ.....15

Suyunboyev Pxom Oybek o'g'li

HAQIQATNI ANIQLASH VA HIMOYALANISH HUQUQI: NAZARIY-
HUQUQIY ASOSLAR VA AMALIY MUAMMOLAR.....20

Xakimova Inobatxon Marksovna

AYOLLARNING MEHNAT HUQUQLARINI XALQARO VA MILLIY
DARAJADA TARTIBGA SOLISH.....23

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ
ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

Уктамов А.Н.

КЛЮЧЕВЫЕ ТРЕНДЫ 2025 ГОДА ВО ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....27

Уктамов А.Н.

О СОВРЕМЕННОМ СТАТУСЕ МИГРАЦИОННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ.....34

Сеитов А.П.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ
УЗБЕКИСТАНА.....42

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

Rahmatova Xurshida G'ofurovna

МАКТАВ ТА'ЛИМИДА RAQAMLI BOSHQARUV VA UNING TA'LIM
SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....45

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**



**Базарбекова Нагима Шадибековна, Сарсенбаева Зоя Жангабаевна,
Утегенова Гулзира, Кудратулла Айнур**
ЗАЛОГ ГРАМОТНОСТИ – ПРАВИЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗВУКОВОЙ
СИСТЕМЫ.....48

Matyakubov Hakimboy Hamidjanovich
ONOMASTIK TADQIQOT METODLARINING LINGVISTIK TAHLILDA
QO‘LLANILISHI.....55

Turdieva Khulkar Kamilovna, Boburjon Samigov
PERSIAN LOANWORDS IN INDONESIAN LANGUAGE.....60

**ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Nurmatov Zuhkriddin Shavkat ugli
FINANCIAL REPORTING PREPARATION IN BUSINESS ORGANIZATIONS.....63

Mamayunusov Bekzod Ravshanovich
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY TAHLIL VA
AUDITORLIK FAOLIYATINI XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH.....67

Abilov Feruz Nematullaevich
AGROSERVIS XIZMATLRINI TO‘G‘I VA SAMARALI TASHKIL ETISH
ORQALI YUQORI XIZMAT NATIJALARIGA ERISHISH YO‘LLARI.....71

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Abilov Feruz Nematullaevich
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLAB,
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILIDIR.....74

Юлдашова Н.З., Нарзуллаева Ж.Х.
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ВНЕДРЕНИЯ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ.....78

Ишонкулова Феруза Асатовна, Джуманазарова Э.С, Шармбаева Х.Дж.
РЫНОК И РИСК.....82

**Умрзақова Зарнигора Дилмурот қизи, Ҳақимова Феруза Абдуллажонова,
ЗАМОНАВИЙ МОЛИЯ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ТЕНДЕНЦИЈЛАРИ БЎЙИЧА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ҚЎЛЛАШ
ИМКОНИЯТЛАРИ.....86**

Madaminov Damir Abduraxmanovich
MINTAQANING TADBIRKORLIK SALOHİYATI MEZONLARINING O‘ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI.....89

Madaminov Damir Abduraxmanovich
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
TADBIRKORLIK SALOHİYATINI BAHOLASH
USULLARI.....94

Tog‘aynazarov Akbar Ibragim o‘g‘li
MINTAQADA YOSHLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH YO‘LLARI.....99

Tog‘aynazarov Akbar Ibragim o‘g‘li



MINTAQADA YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH ORQALI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH MASALALARI.....102
Ustadjalilov Dostonbek Rustamovich
STRATEGIZING AS AN INSTRUMENT FOR THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S CLUSTER ECONOMY.....105
Намозов Жасурбек Кувадович
ПОТЕРИ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИИ КАК ОБЪЕКТ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА: КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЙСТВУЮЩИХ БУХГАЛТЕРСКИХ ПРОВОДОК.....110

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Karimova Nargiza Mamatkadirovna, Abdurasulova Lobar Baxtiyor qizi
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV USULLARNING SAMARADORLIGI.....113
R.M. Hojanazarova, A.Q.Abdikarimova
HOZIRGI ZAMONAVIY OPTIK ASBOB-USKUNALARNING BAZALARIDA TALABALARNING KASBIY-PEDAGOGIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRISH.....116
Заитова Озода Юсуповна
СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПО ВНЕАУДИТОРНОЙ РАБОТЕ.....119
Lutfullaeva Khulkarhon Asatullaevna
FOREIGN LANGUAGE TEACHING AS A KEY COMPONENT OF MEDICAL HIGHER EDUCATION.....122
Raxmataliyev Sherzod
ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI YO'LLARI VA METODIK YONDASHUVLAR.....126
Salixova Muhayyo Shakirovna
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING REFLEKTIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....129
Najmiddinova Madina Abduraxim qizi
TARBIYA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA GLOBAL VA MILLIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....132
Abdullayev Zafarbek G'aybullayevich
O'ZBEK MILLIY QADRIYATLARINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH.....136

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР



Yakubova Nafisa Odiljanovna, Alisherov Ozodbek Abdurashid o'g'li RANGLARNING TUS BIRIKMALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	140
Boyqulova Noila Qurbonali qizi TASVIRIY SAN'ATDA NUSXA KO'CHIRISH FANINING MUAMMO VA YECHIMLARI.....	143
Po'latova Xumora G'ulom qizi NATYURMORT JANRIDA ISHLASH.....	146
Tursunboyev Lochinbek Umirqul o'g'li O'ZBEK MINIATYURA SAN'ATI.....	148

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

Toshev Sherzod Ergashevich, Tosheva Shaxnoza Nosir qizi KICHIK TEZLIKLI SHAMOL ELEKTR QURILMASI GENERATORI.....	151
Палуанов Данияр Танирбергенович, Аблатова Айсанем Мажитовна МУРАККАБ ҚАТЛАМЛИ ГРУНТЛАРДА ПАСТ НАПОРЛИ ГИДРОТЕХНИКА ИНШООТЛАРИ ЗАМИНИДАГИ ФИЛЬТРАЦИЯ МУСТАҲКАМЛИГИНИ АНИҚЛАШ ТАДҚИҚОТЛАРИ.....	154

**ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Safarova Zulfiya Muxiddinovna O'RTA SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKANI O'RGATISHDA KO'RGAZMA, O'YINLI METOD LARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI.....	157
--	-----

**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Рахимова Висола Шавкатовна СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МУТАЦИОННОГО ПРОФИЛЯ ВИЧ ИНИФИЦИРОВАННЫХ ПАЦИЕНТОВ НА ВТОРОЙ ЛИНИИ ТЕРАПИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ДАННЫМИ.....	161
Рахимова Висола Шавкатовна МУТАЦИОННЫЙ ПРОФИЛЬ К ГРУППЕ НИОТ У ВИЧ ИНИФИЦИРОВАННЫХ ПАЦИЕНТОВ НА ВТОРОЙ ЛИНИИ ТЕРАПИИ.....	168
Д.Ш.Аллаберганов ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ ДАВРДА БАЧАДОН АТОНИЯСИДА МИОМЕТРИЙНИ ПАТОМОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИ.....	173
Юсупов Улуғбек Маматхалиқович, Расулов.У.А. ОҒИР ВА МЎТАДИЛ ИҚЛИМ ШАРОИТИДА ПТЕРИГИУМ КАСАЛЛИГИНИНГ ГИСТОЛОГИК ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	176



Д.Ш.Аллаберганов ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ БАЧАДОНДАН ДИСФУНКЦИОНАЛ ҚОН КЕТИШИДА МИОМЕТРИЙНИ ПЛАЦЕНТАР ЮЗАСИ МОРФОЛОГИЯСИ.....	179
Д.Ш.Аллаберганов ТУҒРУҚДАН КЕЙИН БАЧАДОН АТОНИЯСИ САБАБЛИ МАССИВ ҚОН КЕТИШИДА БУЙРАКЛАРНИ ДИНАМИКАДАГИ ПАТОМОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИ.....	183
Шукурова Юлдуз Уткуровна, Махкамов Носиржон Жўраевич, Шодиева Хуршида Тухтасиновна ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ АКУШЕРЛИК ҚОН КЕТИШИНING ЭРТА ДАВРИДА ЎЛИМГА ОЛИБ КЕЛУВЧИ ТАНАТОГЕНЕЗ ЖАРАЁНИ МОРФОГЕНЕЗИ.....	186
Шукурова Юлдуз Уткуровна, Махкамов Носиржон Жўраевич, Шодиева Хуршида Тухтасиновна ТУҒРУҚДАН КЕЙИНГИ АКУШЕРЛИК ҚОН КЕТИШИНING ЭРТА ДАВРИДА БАЧАДОНДАГИ МОРОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР.....	191
Аллаберганов Дилшод Шавкатович, Казақова Зайнаб Абдурахимовна ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА КЕЧГИ РЕПРОДУКТИ ДАВРДА АНИҚЛАНГАН КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИНING МОРОЛОГИЯСИ.....	195
Аллаберганов Дилшод Шавкатович, Казақова Зайнаб Абдурахимовна ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА КЕЧГИ РЕПРОДУКТИВ ДАВРДА КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ХАВФ ОМИЛЛАРИ.....	199
Рахмонова Jamila, Raximbayeva Sh.B LOTIN TILINING TIBBIYOT TERMINOLOGIIYASIDAGI АНАМИЯТИ.....	202
Б.С.Солижонов, Саттаров О.Х. ЭНДОТЕЛИАЛ ДИСФУНКЦИЯ ВА 2-ТУР ҚАНДЛИ ДИАБЕТДА ДИАБЕТИК НЕФРОПАТИЯНИING ПАТОГЕНЕЗИГА ТАЪСИРИ.....	206

ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Реипназаров Б.Д., Хайдаров В.Р. МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ УСУЛИДА МУЛЬТИВИТ ЙИҒМАСИНИING ТАРКИБИНИ ТАНЛАШ.....	208
Реипназаров Б.Д., Хайдаров В.Р. ВИТАМИНЛАРГА БОЙ ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАР АСОСИДА ФИТОЙИҒМА ТАРКИБИНИ ТАНЛАШ.....	211

АГРОПРОЦЕССИНИГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Yunuskhodjaeva Kh.Sh., Maksumova D.K., Dodaev K.O., Usmonalievа E.J. CURRENT TRENDS IN CAMEL MILK PRODUCTION AND PROCESSING: GLOBAL INSIGHTS AND UZBEKISTAN'S EMERGING SECTOR.....	214
---	-----



**TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР”
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 83-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

(2-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 30.12.2025